



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

2020-yil. 11-son.

L

ANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY TAVALLUDINING 145 YILLIGI



Mahmudxo'ja Behbudiy
(1875-1919)
(1875-2020) 145 yil

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY XX asr bo'sag'asida yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, noshir, jurnalist.

Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

Milliy qiyofa va til
munosabati

9
-
bet



Tahlil

Matnazar Abdulhakim
she'riyatiga xos
meditativlik

23
-
bet



Tadqiqotlar

"Mehrobdan chayon"
romanida ironiya hodisasi

29
-
bet



Свет негаснувших имен

Бунтарь и фантазер

74
-
bet

2021-yil mart oyida O'zbekistonda Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi keng nishonlanadi

O'zbekiston Qahramoni va xalq shoiri **ABDULLA ORIPOV** tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e'lon qilindi.

O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli shoir, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning betakror ijodiy merosi, uning Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat tuyg'usini, olijanob insoniy fazilatlarni madh etgan yetuk badiiy asarlari, sermazmun hayoti va ijtimoiy faoliyatining xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish,



yosh avlod tarbiyasidagi beqiyos o'rni va ahamiyatini inobatga olib hamda tavalludining 80 yilligini munosib nishonlash va xotirasini abadiylashtirish maqsadida:

– 2021-yil mart oyining uchinchi o'n kunligida O'zbekiston Xalqaro anjumanlar saroyida Abdulla Oripov xotirasiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy xotira kechasi o'tkaziladi;

– Abdulla Oripovning o'zbek tilidagi ikki jildlik "Tanlangan asarlar"i, qoraqalpoq, rus, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan she'riy to'plamlari, shuningdek, "Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida" kitobi nashrga tayyorlanadi va chop etiladi;

– Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "Abdulla Oripov ijodiy merosining o'zbek va jahon adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya o'tkaziladi hamda anjuman materiallari alohida to'plam holida chop etiladi;

– Toshkent viloyati Qibray tumani Arg'in mahallasidagi Abdulla Oripov yashagan xonadonda yodgorlik lavhasi o'rnatiladi;

– Abdulla Oripovning hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratiladi;

– mamlakatimiz teatrlarida Abdulla Oripov asarlari asosida spektakllar sahnalashtiriladi;

– umumiy o'rta ta'lim muassasalari, ijod maktablari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida Abdulla Oripov hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?" mavzusida insholar tanlovlari o'tkaziladi;

– Qarshi shahridagi Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabida ijod maktablari o'quvchilari o'rtasida "Mitti yulduz jilolari" she'riyat bellashuvi o'tkaziladi;

– ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, mahallalar, harbiy qismlar hamda Adiblar xi-yobonida taniqli ijodkorlar, olimlar, madaniyat va san'at namoyandalari ishtirokida Abdulla Oripov ijodiga bag'ishlangan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kitobxonlik va she'riyat kechalari tashkil etiladi.



1991-yildan chiqa boshlagan

Alisher Navoiy
Esmidagi
O'zbekiston MK

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALIНАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**Я** ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTANO'zbekiston Matbuot va axborot
agentligida 2014-yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan qayta
ro'yxatga olingan.

2020-yil. 11-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)**Sahifalovchilar:**Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA**Nashr uchun mas'ullar:**Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA**Tahririyat manzili:**100038, Toshkent shahri Matbuotchilar
ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@mail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2020.09.12. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasida. 10, 11 kegl. "PRINT REBEL" matbaa korxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Olmazor tum., O'rozboyev ko'chasi, 35-uy. Buyurtma №:31 Adadi 2850 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

TILSHUNSLIK

Asror MO'MIN. O'zbek tili va Navoiy quyoshi..... 3

DOLZARB MAVZU

Jumanazar ABDULLAYEV, M.TURDIBEKOV Tanqidiy tilshunoslik va til ta'limi tanqidiga zarurat bor(mi?) 5
Dilnoza RAHMATOVA. Milliy qiyofa va til munosabati 9

METODIK TAVSIYA

Mahbuba SOBIROVA. Pandemiya davrida o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish 10
Komil JALILOV. Yopiq test topshiriqlarining sifati va samaradorligini ta'minlash: ona tili va adabiyot testlari misolida 11
Sevara XOLJIGITOVA. Hikoyalarni o'qitishda interfa metodlarning o'rni 13

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Ilhomjon OXUNOV. Didaktik o'yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishdagi metodik imkoniyatlari 14
Makhfuza RAKHMANOVA. Use of effective strategies in writing cause and effect essays 16

TAHLIL

Shakhnoza SULTANOVA. Linguistic principles of compiling grammar term e-dictionaries 18
Shakhzoda GULYAMOVA. Socio-pragmatic analysis of monologue discourse 19
Shahnoza GIYAZOVA, Qunduz GADOYEVA. Nutqimiz boy va maftunkor 21
Gulnoza ERNAZAROVA. Matnazar Abdulhakim she'riyatiga xos mediativlik 23
Tolib ENAZAROV. Oltin bitiklar 24
Muhammadsodiq SAYFULLAYEV. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston adabiy muhitida "Al-izoh" jurnalining o'rni 27

TADQIQOTLAR

Surayyo ZIYOTOVA. "Mehrobdan chayon" romanida ironiya hodisasi 29
Mehriniso TOSHPOLATOVA. Ingliz tilini o'qitishda korporaning nazariy asoslari 31
Aziza AHMEDOVA. Analitik folklorizmlar va ularning lingvopoetik xususiyatlari 34
Odil FOZILOV, Shuhrat MURODOV. Chet tili o'qitishda xalq paremlarining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati 36

KICHIK TADQIQOT

Feruza SHAROPOVA. Matn ni o'qib tushunish malakasini shakllantirish metodikasi 38
O'tkur ISLAMOV. Og'zaki va yozma nutq shakllaridagi muammolar 40
Shahlo ALIMBAYEVA. O'zbek frazeologik birliklari milliy mentalitet ifodasi sifatida 42
Muhamadrizo DJURAYEV. Tardu aks ziyati 43
Xayriniso O'LJAYEVA. "Zarbulmasal" asarida badiiy san'atlarning qo'llanilishi 45
Tair AKIMOV. Iboralarda xitoy an'anaviy madaniyatining aks etishi 47
Suhrob POL'LATOV. Sergey Yeseninni o'zbekcha gapirtirgan shoir 48

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ - 2020

Марвар ШАРАФУТДИНОВА. Читательский дневник 49

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Ирина МОРОЗОВА. Знакомство с художественным стилем речи при изучении русского языка как неродного 53
Эльвина ВЕЛИШАЕВА. Применение метода интеллект-карт при изучении темы «Род имен существительных» в группах с узбекским языком обучения 54

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Дилбар БОЙБЕКОВА. Использование изобразительных средств при анализе художественных произведений на уроках литературы 57

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Махлиё ЗАЙНУТДИНОВА. Понятие основы слова в русском языке 59

НАРОДЫ, ЯЗЫКИ, КУЛЬТУРА

Беккенбауэр РЕЙМОВ, Айшолпан НИЯЗОВА. Что можно узнать о душе каракалпаков из их фразеологизмов 62
Надежда ЗУБАРЕВА. Функционирование фразеологических интенсификаторов в политическом дискурсе 64

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Амина ФАТТАХОВА. Контуры жизни в современной литературе 67

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Ирина КОНОНОВА. Скобочные вставные конструкции в лирике М.Цветаевой 1906-1920 гг. 69

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Умида АЛИБАЕВА. Основа речевого этикета и факторы, определяющие его формирование 71

КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ

Рубен НАЗАРЬЯН. Бухарская «Гастрономия» в романе С.Айни «Рабы» 72

СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН

Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. Бунтарь и фантазер 74

ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

Шохсанам АХМАДЖАНОВА. Ни минуты без книги 76

МЫСЛИ ВСЛУХ


Нигора АДIZОВА. Разнообразие образов в прибаутках 79

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫLANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING



Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida "Sharq adabiyotining qadimiy va bebaho durdonasi "Qutadg'u bilig" va uni o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusida onlayn tarzda xalqaro anjuman o'tkazildi.



Hindistonning "WINGSPAN group" kompaniyasi tomonidan "Bobur" serialini O'zbekistonda suratga olish uchun "O'zbekkino" milliy agentligi bilan memorandum imzolandi.



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, tarjimon, dramaturg, publitsist Jumaniyoz Jabborov tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan "Vatanimni kuylayman!" deb nomlangan xotira kechasi bo'lib o'tdi.

Qashqadaryo xalq ta'limi mas'ullariga xizmat avtomashinalari topshirildi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil etilganiga 150 yil to'ldi. Sana munosabati bilan 16-noyabr kuni kutubxona binosida an'anaviy "INFOLIB UZBEKISTAN – 2020" IX Milliy axborot-kutubxona haftaligining tantanalil ochilish marosimi bo'lib o'tdi.



"Yangi asr avlodi" nashriyoti "Oybegim mening" kitobini qayta nashr etdi.

Olmazor tumani "Barkamol avlod" bolalar maktabida "Ochiq eshiklar" kuni o'tkazildi.

Navoiy viloyati hokimi OTMga kirish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan maktab direktorlariga 10 mln so'mdan mukofot puli berdi.

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanidagi "Mustaqillik" mahalla fuqarolar yig'ini qoshida "Mahalla kutubxonasi" foydalanishga topshirildi.

M.DO'STMUHAMEDOVA tayyorladi.



O'ZBEK TILIM VA NAVOIY QUYOSHI



Yurtimizda birinchi marta O'zbek tili bayrami kuni katta tantanalar bilan nishonlandi. Qutlug' kun arafasida "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Prezident Qarori hamda "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonining qabul qilinishi O'zbek tili bayramiga benazir tuhfa bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shukuhli sanada O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi yo'lladi va unda zim-mamizdagi hamisha dolzarb vazifamizga ham to'xtal-dilar: "Necha asrlar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o'tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg'urish – bu millatning o'zligini anglashi, uning kamo-lotini yuksaltirish uchun kurash demakdir". Darhaqiqat, ona tilimizni o'zining yuksak mavqeyiga ko'tarish yo'li-dagi kurashimiz davom etadi va bu yo'lda har birimizdan yanada fidoyilik ko'rsatishimiz talab qilinadi.

Shuningdek, Prezidentimiz o'z tabrigida bayram arafasida imzolangan ikki muhim huquqiy hujjatning mazmun-mohiyatiga alohida to'xtalib, "Farmonga mu-vofiq o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayoti va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mam-lakatimizda davlat tilini to'laonli joriy etishni ta'min-lash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va istiqboldagi vazifalar" belgilab berilganligini, qabul qilingan "...Qaror ham o'zbek tili va adabiyotini, milliy madaniyatimizni yanada ravnaq toptirishga qaratilgan amaliy harakatlarimiz bilan uyg'un va hamohang"ligini ta'kidladilar. Endi har birimiz shu ikki muhim huquqiy hujjatni diqqat bilan o'qib chiqishimiz va unda belgilan-gan vazifalarni bandma-band bajarishimiz kerak.

Hazrat Navoiyning yod bo'lib ketgan misrasi yo-dimga tushdi: "O'ylakim, paydo bo'lg'ur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh". Xalqimizda esa: "Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi", – degan naql bor. Shu oddiy haqiqatni bilmaydigan mustabid tuzum bizdan ona tilimiz quyoshi nurlarini to'smoqchi bo'lishdi. O'zini soyaga urganlar

boshqa tildagi yulduzlar nuriga isinishdi. Ular o'sha til-ni ikkinchi ona tilim deyishgacha borib yetishdi. Zero, onamiz yagona bo'lganiday, ona tilimiz ham yagonadir.

Shukurki, tilimiz sadolari ona-momolarimiz beshik uzra kuylagan allalarida, ota-bobolarimiz aytgan er-tak-dostonlarida qonimizga singdi, gupurib oqdi. Biz bundan ming yil ilgari ulug' mutafakkirimiz Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarini yozib, ona til-imiz dunyodagi boy tillardan biri ekanligini isbotlagani-ni bilib oldik. Undan keyin yashagan buyuk ajdodlari-mizning ona tilimizda yaratgan bebaho asarlarini o'qib, irodamizga iroda, kuchimizga kuch qo'shildi. Nihoyat 1989-yil 21-oktabr kuni fidoyilarimiz bizni ona tilimiz quyoshi nurlaridan to'sgan pardani yulib olib, o'tmish qa'riga uloqtirdi. Ammo yulduz shu'lasi nuriga sarxush bo'lganlar gohida o'tmish zamonlarni qo'msab turish-di. Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaror hamda qutlug' bayrami-miz arafasidagi ikki muhim hujjat endi yurtimiz uzra ona tilimiz quyoshi mangu porlashidan dalolat beradi.

Muhtaram Yurtboshimiz shu yil 23-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi-ning 75-sessiyasida ona tilimizda nutq so'zlaganlarida o'zbek tilimiz quyoshi butun dunyoni ham yoritishga qo-dirligiga dilda iymon keltirdik.

Mustabid zamonada Hazrat Navoiy asarlari quyoshi nurlari ham qalbimizni yoritmasligi uchun parda qo'yish-ga urinishdi. Ajdodlarimizning bebaho asarlarini o'zlar-iga ma'qul kelgan tarzda talqin qilishib, bizga taqdim etishdi. Har lahzada Navoiy asarlarini tushunish qiyin-ligini uqtirishdi. O'zini soyaga urganlar bu puch idda-oni ma'qullashdi. Sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning quyidagi misralari ularning noxolis ekanini xalqimizga ko'rsatdi:

*O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir...*

...1968-yilda Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi Toshkentda keng nishonlangan edi. Unda turli mamlakatlardan kelgan taniqli davlat arboblari, olim-lar, adiblar qatori mashhur avar shoiri Rasul Hamzatov

ham ishtirok etgandi. O'sha kezlarda mashhur shoir va undan intervyu olmoqchi bo'lgan jurnalist o'rtasidagi suhbatni ziyolilarimiz tez-tez hayrat bilan tilga olishardi.

Restoranda ijodkor do'stlari bilan kechlik tanovulini boshlagan Rasul og'a oldiga jurnalist hovliqib kelib, deydi:

– Assalomu alaykum, Rasul Hamzatovich! Agar siz menga hozir Navoiy haqida intervyu bermasangiz va bu intervyu ertaga gazetamizda chiqmasa, bosh muharrir meni ishdan haydaydi.

Rasul og'a vazminlik bilan undan so'raydi:

– Ayt-chi, birodar, musulmonmisan?

– Alhamdulillah, musulmonman.

– Alhamdulillah, men ham musulmonman. O'zing ayt, musulmon kishi tahorat olmasdan namoz o'qishi mumkinmi?

– Yo'q.

– Men ul zotning nomini ham tahorat olmasdan tilga ololmayman, ertalab kel, tahorat olib seni kutib turaman. O'shanda intervyu olasan.

Afsuski, o'sha mustabid tuzum davrida bu suhbatni, ya'ni ajoyib intervyuni yozib bo'lmadi. Oradan qirq yil o'tib bu suhbat tafsilotini sevimli adibimiz O'tkir Hoshimov o'z esdaliklarida yozdi.

Shu o'rinda taniqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning Rasul Hamzatov haqidagi fikrini keltiraman: "Shoirilar ko'p, ularning ko'pchiligi men shoirman deb o'ylashadi. Ammo Rasul Hamzatovga o'xshashlar favqulodda kam uchraydigan noyob hodisa". Favqulodda kam uchraydigan shoirlardan biri Hazrat Navoiyning buyukligini e'tirof etib, ul zotning nomini tahorat olmasdan tilga olib bo'lmaydi, deb turganda, ayrimlar bobokalon shoirimizga tuhmat aytganiga nima deysiz? Ular necha yillar mustabid tuzumga jo'r bo'lib, ona tilimiz va Hazrat Navoiy qadrini tushirishga behuda urinishdi.

Hazrat Navoiyning ijodini o'rganishga e'tibor qaratilmagan o'sha davrda (to'g'ri, ta'lim dargohlarida o'qitildi, lekin o'qitish boshqa narsa, o'rgatish boshqa narsa) she'riyatning azaliy mezonlari nazardan chetda qoldi. Erinmagan odam borki, qofiyadosh satrlar tizdi, ularni to'plab muqovalatdi. Ma'lumki, loy qorigan odamning hammasi kulol sanalmaganiday, qofiyadosh satrlar tizganlarning hammasi ham shoir atalmaydi. Bu haqda Rasul Hamzatovning ajoyib bayti bor:

*Oddiy gildan yasaladi eng go'zal ko'za,
Oddiy so'zdan yaraladi she'riy mo'jiza.*

Ko'pchilik kulol bo'lish qiyinligini bilishgani uchun bilagigacha loy qorib, kulol bo'lish uchun intilishmaydi. Lekin she'r yozish oson deb o'ylab, qofiyadosh satrlar tizishdan to'xtashmaydi. Holbuki, she'r yozish eng qiyin ishlardan biri. Buni qancha ulug' shoirlar ta'kidlashgan. Faylasuf Arastudan boshlab she'r qoidalari to'g'risida qanchadan qancha risolalar yaratilgan. Nega she'r yozish qiyin? Bunga Hazrat Navoiyning quyidagi baytidan javob topishimiz mumkin:

Bo'lmasa e'joz maqomida nazm,

Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm.

Ona tilimizda Tengri kalomi bor nazmda barakali ijod qilgan Hazrati Navoiy bobomizning xizmatlari o'z davridayoq e'tirof etilgandi.

Hazrat Navoiy tavalludining 500 yilligida hurmatli rus navoiyshunosi Yevgeniy Bertels aytgan so'zlar hamon qulog'imizda jaranglaydi: "Bizni goho Navoiyni idealashtirishda ayblaydilar. Axir Navoiy shunday inson bo'lganki, uni ideallashtirmaslik mumkin emas".

Hozirgi kunda yuqoridagi qaror asosida buyuk shoir va mutafakkirimiz ijodini targ'ib qilish, o'rganish, o'rgatish borasida boshlagan xayrli ishlarimiz har birimizning, ayniqsa, yosh avlodning Hazrat Navoiy ijodiga bo'lgan mehrini yanada oshirish, Jomiy, Bertels, Hamzatov kabi buyuklar fikrlarining mag'zini chaqib, ulardan ibrat olishga qaratilgan.

Ona til va Alisher Navoiy – egizak. Ona tilimizni Hazrat Navoiysiz tasavvur etib bo'lmaganday, Hazrat Navoiyni ham ona tilimizsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hazrat Navoiy ona tilimizni ulug'ladi, ona tilimiz Hazrat Navoiyni. O'zbek tili bayrami arafasida qabul qilingan ikki hujjat ham mushtarak. Tilagim, ona tilimizni rivojlantirish va Hazrat Navoiy ijodini yanada o'rganish, o'rgatish uchun bu hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga jon-dilimiz bilan kirishaylik.

Til va adabiyot mamlakat taraqqiyotiga kuch beradi. Ingliz tili va Vilyam Shekspir ijodi Angliyani; rus tili va Aleksandr Pushkin ijodi Rossiyani rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shganidek, boy o'zbek tilimiz va Alisher Navoiyday buyuk shoirimiz jonajon O'zbekistonimizni taraqqiy topgan davlatlar qatoriga ko'taradi. Chunki endi ona tilimiz va Hazrat Navoiy quyoshi hech qachon nihon bo'lmaydi, muqaddas zaminimiz hamda jahon uzra mangu nur sochaveradi. Ular yoritgan oydin yo'ldan o'zbek tilimiz va O'zbekistonimiz buyuk istiqbol sari dadil odimlayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 201-son. 2020-yil 21-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 200-son. 2020-yil 20-oktabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 201-son. 2020-yil 21-oktabr.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. 237-bet.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-jild. – Toshkent: Fan, 1991. 61-bet.
6. Erkin Vohidov. Umrin daryosi. – Toshkent: Sharq, 2001. 216-bet.
7. Asror Mo'min. Rasul Hamzatov (drama). "Sharq yulduzi" jurnali, 2019. 10-son. 162-bet.
8. Rasul Hamzatov. Mening Dog'istonim. – Toshkent: Tafakkur, 2019. 48-bet.
9. Internet veb-saytlari.

Jumanazar ABDULLAYEV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi;

M. TURDIBEKOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

TANQIDIY TILSHUNOSLIK VA TIL TA'LIMI TANQIDIGA ZARURAT BOR(MI?)

Ma'lumki, yaqin yillarda o'zbek tilshunosligi maydonida ilk g'oyaviy asosi tasavvufga borib taqaladigan, ammo lingvistik ta'limot sifatida V. fon Gumboldt asarlarida¹ shakllangan, Boduen de Kurtene tadqiqotlarida² rivojlantirilgan, F. de Sossyur izlanishlarida³ esa metodologik asosda ishlab chiqilgan struktur tilshunoslik ta'limoti⁴ asosida shakllangan o'zbek sintetik⁵ sistem-struktur tilshunosligi yo'nalishlari yetakchilik qildi. O'ylaymizki, o'zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichi, jumladan, antroposentrik paradigmadam ham ushbu tilshunoslikning munosib o'rni bor. Bu bejiz bo'lmay, sintetik sistem-struktur tilshunoslik g'oyaviy-metodologik asoslarining mustabid mafkurdan xoliligi siyosiy-sinfy emas, obyektiv ijtimoiy hayot – milliy mustaqillik va ona tili talabi, milliy til ilmi va ta'limini yaratish zarurati tufayli yuzaga kelgani bilan izohlanadi.

Sintetik sistem-struktur tilshunoslik ta'limoti bilan ilk bor tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlariga asoslangan aniq va izchil tadqiqat mavoyillari, dialektik tahlil metod-usullari ishlab chiqildi va ongli ravishda ilmiy faoliyatga, til qurilishining avvalgi amaliy-analitik tavsifdan farq qiluvchi, tahlil qilib aniqlangan, tavsiflangan sathlar, birliklar, tur va tiplar, belgi-xususiyatlar qanday qilib, qay tarzda, nimalar asosida bir butunlik – sistema hosil qilish jarayonlarini aniqlash va yoritishga tatbiq etildi.

Avvalo, ta'kidlash joizki, bu ta'limotning g'oyaviy-nazariy asosini til (lison) va nutq farqlanishi tashkil qiladi. Bu farqlanish o'zbek tilshunosligida bugungi kung kelib deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan ilmiy haqiqat hisoblanadi va, demak, ilmiy, o'quv-metodik faoliyatda unga amal qilish talab etiladi.

Ammo, afsuski, hanuzgacha til ta'limida (ba'zan til ilmida ham) bu farqlanishga bilib-bilmay e'tiborsizlik qilish, befarq munosabatda bo'lish, fikr yuritishda farqlanish nazariyalariga rioya qilmaslik holatlariga tez-tez guvoh bo'lish mumkin. Xususan, til, lison, nutqni, shunga mos ravishda til birligi, lisoniy birlik, nutqiy birlik, nutq birligini; leksema va so'zni, uning ma'no turlarini; morfema va morfni; lisoniy qolip (konstruktema, sintaksema) va so'zshakl, yasalgan so'z, so'z birikmasi, gap, qo'shma gap (gaplar birikmasi)ni; tekstem va matnni farqlashda fanimizda erishilgan yutuqlar darajasidagi ilmiy aniqlik va izchillikni to'liq ta'minlay olmayapmiz;

fanimizdagi ilmiy yangiliklar, yangicha talqinlar, ijobiy o'zgarishlarga e'tiborsizlik, loqaydlik, hatto bepisandlik bilan qarashga yo'l qo'yilayotgan holatlar ham kuzatilyapti. Bizningcha, bu boradagi amaliy faoliyatimizga tanqidiy ko'z bilan qarash, murosasizlik yetishmayapti. Holbuki, lison va nutqning, ularga oid birliklarning farqlanishi asos e'tibori bilan sintetik sistem-struktur yondashuvning har uch yo'nalishida ham o'ziga xos ilmiy asosda amalga oshirilgan va ular farqli jihatlarga ega bo'lsa-da, bir-birini to'ldiruvchi nazariyalardir. Bunga quyida keltirilgan uch yo'nalishga oid bosh va umumlashma farqlanish nazariyalari misolida bevosita guvoh bo'lish mumkin:

1. "Til (lison) ... jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisi sifatida qaraladi.

Nutq tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqish, voqelanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan moddiy (tabiiy, fizik) shaklga ega.

Me'yor – til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini bo'lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangan"⁶.

2. "Til birliklari voqelanish belgisiga ko'ra ham, tuzilish (ontologik) tabiatiga ko'ra ham sistemadir. Masalan, har bir morfema bevosita kuzatishda bir qancha shakliy va mazmuniy variantlar (allomorflar, morfema variantlari) orqali namoyon bo'ladigan umumlashma sifatidagi sistemadir. ... Bundan tashqari, morfema va undan yuqori birliklarning hammasi tuzilish tabiati jihatidan qurilma (konstruksiya) sifatida ma'lum qurilish (konstruktiv) birliklarning o'zaro barqaror sintagmatik munosabatidan tashkil topgan sistema hisoblanadi"⁷.

3. "Til murakkab qurilishga molik bo'lib, dastlab uning ikki holati – *lison* va *nutq* farqlanadi. *Lison* – kishi miyasidagi til xotirasi qismida mavjud til birliklari va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik. *Nutq* esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi"⁸.

Yuqoridagilarga ko'ra o'zbek tilshunosligida tilni lison va nutqning, ularga oid birliklar, qonun-qoidalar, hodisalarning dialektik birligidan iborat harakatdagi dual funksional sistema sifatida talqin qilish imkoniyati

ti yaratildi va farqlanish nazariyalarini egallaganlar o'z ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatlarida bu imkoniyatdan oqilona foydalanmoqda. Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yaxlit holda o'lganda bu boradagi ishlarimiz unchalik ham quvonarli emas. Lison va nutqni farqlamay fikr yuritishga odatlanib qolganimiz bizga ko'pincha pand beryapti, uzil-kesil yangicha talqinlarga o'tish qiyin kechyapti. Albatta, bu har birimizning ilmiy layoqatimiz, zamonaviy mutaxassis, yangicha dunyoqarashli ilmiy-pedagog kadr sifatida shakllanganlik darajamiz bilan bog'liq subyektiv muammo. O'ziga talabchanlarda bu muammo bo'lmasligi yoki tez muddatda ijobiy hal etilishi aniq.

Ammo sintetik sistem-struktur talqinlarga amaliy faoliyatda e'tiborsizlik bilan qarash, o'z navbatida, obyektiv omillar, ya'ni tilning lison va nutq deb atalgan o'zaro farqli ikki mavjudlik holatining mazmun-mohiyati, tashkil etuvchilari, ichki tuzilishini belgilash, har bir tur lisoniy, nutqiy birlikni o'zi mansub va undan yuqori hamda quyi, shuningdek, butun bilan bo'lgan sistemaviy-strukturaviy munosabatlariga asosan belgilanadigan o'ziga xos tabiati, asosiy ma'no-vazifasi, funksiyasidan kelib chiqib nomlash, tasnif-u talqin qilish, shuning barobarida, ularning dialektik bir butunligini, muntazam takrorlanuvchi harakat-faoliyatdagi murakkab ijtimoiy-individual mexanizm ekanligini ilmiy asoslash, ko'rsatib berish borasida sintetik sistem-struktur qarashlarning o'zida ancha-muncha muammoli-munozarali holatlar, ichki ziddiyatlar, chalkashlik va noaniqliklar, ba'zi jiddiy xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilgani⁹ ham sabab bo'lgani va bo'layotganini qayd etishga to'g'ri keladi. Buni, baxtga qarshi, har uch yo'nalishda ham kuzatish mumkin. Jumladan, formal-funksional va semantik-funksional yo'nalishda e'lon qilingan o'quv adabiyotlarida so'zning maqomi leksema yoki morfema orqali belgilangan: leksemaning voqelanishi, ro'yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko'rinishi¹⁰ yoki leksik-lug'aviy morfema¹¹ sifatida talqin qilingan. Vaholanki, leksema ham, aslida, so'z. Leksema termini o'zbek tilshunosligiga so'zning lug'aviy ma'noli asosiy turini – leksik so'zni boshqalaridan ajratib va umumlashtirib talqin qilish uchun kiritilgan hamda bu ko'pchilik tomonidan e'tirof etilib, qabul qilingan. Bas, shunday ekan, birinchidan, so'zning lisoniy birlik ekanligi, binobarin, u o'zining (bir turining) nutqiy voqelanishi, varianti bo'la olmasligi o'z-o'zidan tushunarli (so'z leksemaning nutqiy voqelanishi bilan paydo bo'l(adi)gan hodisa emas); ikkinchidan, leksema so'zning asosiy bir turi ekan, uning asosiy bo'limgan, lekin so'z bo'lgan (so'zlik belgisini yo'qotmagan) boshqa turlari ham bor. Ular analitik tilshunoslikda olmosh, yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama), alohida olingan so'zlar (undov so'zlar, modal so'zlar, taqlidiy so'zlar) guruhlari sifatida o'rganiladi. Ular ham xuddi leksema singari lisoniy birliklar hisoblanadi. Shuning uchun ularni ma'no-vazifalariga chuqurroq nazar tashlab, shu jihatiga urg'u bergan holda ham leksema tipidagi lisoniy-emik (-ema elementli) birliklar

sifatida quyidagi turlarga bo'lib talqin qilish ham mumkin: leksogramma (olmosh), grammema (ko'makchi, bog'lovchi), subyektima (modal so'z, yuklama), emotema (undov so'z), mimema (taqlidiy so'z). Bular va leksema so'z bilan tur ~ jins munosabatidagi lisoniy birliklar hisoblanadi. Zotan, o'zbek tili jamoasi ularning barchasini so'z sifatida qabul qiladi. Chunki ularning ongida, til xotirasida bu birliklarning barchasining "psixik muhr", "akustik obraz", "neyrofonemik ramz" holatida saqlanadigan "so'z nusxalari" bor. Ularning barchasi, istisnosiz, til egalari uchun "umumiy va majburiy bo'lgan, tayyor holdagi, o'ziga xos shakl va mazmunning barqaror birikuv"¹²dan iborat mohiyatga ega til birliklaridir. Bunday mohiyat lisonida, lisoniy birliklardagina bo'ladi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: yuqorida qayd etilgan o'quv qo'llanmalari bo'yicha leksikologiyaning birligi bo'lgan leksema mustaqil va nomustaqil leksemaga bo'linib, mustaqil so'z turkumlarini ham, yordamchi so'zlarni ham, alohida olingan so'zlarni ham qamrab olsa¹³ yoki leksik-lug'aviy morfema deb qaralsa¹⁴, morfologiyaning birligi so'zshakl bo'lsa (chunki shunday demaslik va bo'lmasligi mumkin emas), bu holda so'z tilning qaysi sathiga mansub birlik bo'ladi? Yoki u sathlararo birlikmi? Qo'llanmalar orqali (o'zbek tilshunosligida desak ham bo'ladi) bunga ilmiy asosli aniq javob topib bo'lmaydi. To'g'ri, unga so'zshakl ma'nosidagi leksik-grammatik birlik sifatida nutqiy birlik deb qarash ancha keng tarqalgan. Lekin leksik-grammatik birlik uning morfologik birlik ekanligini anglatmaydigan talqinlar ham yo'q emas, ya'ni u leksik-grammatik birlik bo'lsa-da, so'zshakl hisoblanmaydi.¹⁵

So'zning maqomi aniq va to'g'ri belgilanmagani sababli sintetik tilshunoslikning substansial va semantik funksional yo'nalishlariga oid o'quv adabiyotlarida shunday chalkashliklarga yo'l qo'yilavergan. Ochig'i, ko'pincha, mualliflar bunga e'tibor ham berishmagan: leksema va so'z, ba'zan so'zshaklni yuqorida ko'rganlarimiz singari va quyidagi holatlardagi kabi aralash qo'llayverishgan: "...leksemalar ichida shundaylari ham borki, ular gapda mustaqil o'rinni egallay olmaydilar. Bunday **leksemalar (?)** sirasiga yordamchi **so'zlar (?)** (bog'lovchilar, ko'makchi ot, ko'makchi fe'l, ko'makchi, yuklama, nisbiy **so'zlar (?)** va boshqalar: *ham, hamda, biroq, lekin, uchun; bilan, kabi, sari, sayin; tag, ost, bo'y, old; qara, boshla, yubor, bo'l; so'ng, yanglig', burun...*) kiradi"¹⁶; "...odam ichki nutq jarayonida **so'zlarni**, qo'shimchalarni ketma-ket tizib, xuddi gapirayotgandek, ularni grammatik jihatdan shakllantiradi"¹⁶; "darajalanish qatorlarini ajratishning lisoniy asosi ma'noviy omil hamda **so'zlarning (?)** paradigmatic munosabatlarini qamrab oladi" (*Ta'kid va kiritmalar mualliflarniki*.) So'z nutqiy birlik deb tushunilgach, bu yerda uning sintagmatik munosabati haqida to'xtalish to'g'ri bo'lmasmidi? Yoki bu yerda so'z leksema ma'nosida qo'llanganmi? Tahlil-u tavsif so'zning nutqiy birlikmi, lisoniy birlikmi ekanligi farqlanmay, shu xilda amalga oshirilib ketilavergan va takrorlanavergan. Natijada professor N.Mahmudov aytgan mutanosiblik, muntazamlik

ehtiyoji¹⁷ masaladan masalaga, birlikdan birlikka ortib boravergan.

Sintetik sistem-struktur yo'nalishdagi o'quv adabiyotlarida morfema masalasida ham yutuqlar bilan birga jiddiy xato-kamchiliklarga yo'l qo'yilgani kuzatiladi. Jumladan, substansial yo'nalishning filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi uchun tayyorlangan o'quv qo'llanmasida, dastlab, morfema lisoniy birliklar qatorida qayd etilgani holda¹⁸, keyinroq, unga quyidagicha ta'rif berilgan: "...so'zning (?) o'zakdan boshqa qismlari ... undan ayricha qo'llanmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun (?) ular morfema deyiladi. Masalan, (paxtakorlarga) **so'zi(?)** (paxta), (-kor), (-lar), (-ga) qismlaridan iborat. ...Ular lisonida ana shunday ajralgan holda o'z "xonacha"larida guruh-guruh bo'lib yashaydi"¹⁹. Albatta, o'z "xonacha"larida guruh-guruh bo'lib yashash lisoniy birliklar uchun, jumladan, leksema uchun xosdir. Ammo yuqorida keltirilgan tavsifdan shunday ma'no kelib chiqmaydi. Chunki, birinchidan, **so'zshakl** o'rnida **so'z** termini qo'llangan. Ikkinchidan, leksema, so'z, so'zshakl terminlarini ishlatishda chalkashilgan. Uchinchidan, mazkur talqindan fikr yuritilayotgan morfemalar ongda aynan (paxta), (-kor), (-lar), (-ga) tarzida – aynan shu ketma-ketlikda yashaydi, degan ma'no ham uqiladi: talqin, birinchi navbatda, shunday tushuniladi. Nihoyat, to'rtinchidan, ta'rif lisoniy birlik bo'lgan morfema tabiatiga to'g'ri kelmaydi. Negaki, morfema o'zakdan ayricha qo'llanmasligi va ma'no anglatmagani uchun morfema deyilmaydi. Uning morfema deyilishiga sabab bu emas. Morfemaning mohiyati boshqa asos bilan belgilanadi va u bemalol so'zdan ayricha qo'llana oladi (Masalan, **-chi** ot yasovchi qo'shimchadir. Buni mazkur tavsifning o'zidan ham bilib olish qiyin emas). Qolaversa, so'z nutqiy birlik (o'quv qo'llanmasida shunday deb qayta-qayta ta'kidlangan) bo'lgach, uning nomustaqil qismi ham nutqiy bo'lishi o'z-o'zidan ayon. Demak, ta'rif aslida morfemaga emas, uning so'zshaklda voqelangan varianti – morfega berilgan. Negaki, tahlil uchun keltirilgan (paxtakorlarga) lisoniy emas, nutqiy birlik va yuqorida ta'kidlaganimizdek, so'z emas, balki **so'zshakl**dir. To'g'ri, tadqiqotchilar so'z va so'zshaklning ma'nodoshligi to'g'risida kiritma kiritib ketganlar. Odatdagi nutqlarda shunday holatlar bo'lishini tushunish mumkin, ammo bu yerda gap ayni so'z va so'zshakl bilan bog'liq aniq ilmiy muammoning yechimi haqida ketyapti. Bunday paytda ilmiy aniqlik va izchillik nihoyatda zarur omilga aylanadi. Salgina xato butun tavsifni izdan chiqaradi. Zero, morfemaning lisoniy birlikligini bila turib ham yuqoriroqda qayd etib, uni nutqiy birlik sifatida talqin qilish va uning mohiyatini nutqiy birlik (paxtakorlarga) so'zshakli asosida ochishga intilish ham mantiqiy chalkashlik hisoblanadi. Bu jihatdan akademik A.Hojiyev ayni substansialchilar qilishi kerak bo'lgan ishni a'lo darajada uddalagan deyish mumkin: morfemaga **yasovchi lisoniy birlik** sifatida qarab, quyidagicha ta'rif bergan: "**Yangi so'z yasalihi va shakl yasalihi uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik morfema deyiladi**"²⁰. Bizningcha ham, morfemaning

mohiyati uning semantik birlikligida emas, balki funktsional birlikligida, funksiyasida, uning funksiyasi esa **yasovchilik – yangi so'z yasash va shakl yasash**dan iborat. Morfema til sistemasida ana shunday funktsional birlik sifatida yashaydi va faoliyat ko'rsatadi: zarur bo'lganda yangi so'z va shakl yasalihsiga xizmat qiladi.

O'zbek filologiyasi yo'nalishining fikr yuritilayotgan substansial yondashuvga asoslangan o'quv adabiyotida so'z turkumlari va turlarining barchasi leksema sifatida talqin qilingan²¹ bo'lsa, xuddi shu yo'nalish uchun mo'ljallangan "O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari" o'quv qo'llanmasida ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik ma'noli lisoniy birliklarning barchasi morfema sirasiga kiritilgan.²² Vaholanki, **qayd etilayotgan birliklar o'z mohiyati va ma'no-vazifasiga ko'ra bir-biridan tamoman farqlanadi. Binobarin, ularning hammasini, xuddi yuqorida leksemada kuzatilganidek, lisoniy birlikning bir turi deb baholash to'g'ri bo'lmaydi va ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan hech narsa bermaydi. Aksincha, bu narsa o'ziga xos xatoliklarning, ortiqcha bahs-munozaralarning yuz berishiga sabab bo'ladiki, hozirda bunday holatlarning guvohi bo'lib turibmiz**

Bu xil muammoli-munozarali holatlar, ziddiyatli talqinlar, chalkashliklarni semantik-funksional yo'nalishdagi ayrim o'quv adabiyotlarida, hatto "O'zbek tilining nazariy grammatikasi"da ham kuzatish mumkin. Masalan, unda o'qiyimiz: "**So'zning grammatik ma'no ifodalovchi vositalarisiz qismi leksema sanaladi. Boshqacha aytganda, har qanday so'z o'zgarish paradigma-sida paradigma a'zolari uchun umumiy bo'lgan qism leksema sanaladi**"²³. Leksemaning invariant tabiatga ega lisoniy (emik) birlikligini alohida qayd etgan holda²⁴ yana uni so'zning (aslida, so'zshaklning – mualliflar) grammatik ma'no ifodalovchi vositalarisiz qismi deyish mantiqiy muvofiqlik tamoyiliga to'g'ri kelmaydi. Bu yerda ham leksema, so'z va so'zshakl farqlanmay ishlatib yuborilgan. Ta'kidlash joizki, har ikki, ya'ni substansial va semantik-funksional yo'nalishda yasama so'z va so'zshaklning yasalihsiga asos bo'lgan lug'aviy ma'noli nomlovchi so'z leksik yoki lug'aviy morfema; yordamchi va alohida guruh so'zlari esa, mos ravishda, **leksema-morfema va oraliq morfemalar** deb talqin qilinganki, bu yerda ham ziddiyatli, chalkash holatlar yetarli. O'z-o'zidan savol tug'iladi: **mazkur birliklar so'zmi, leksema-mi yoki morfemami?**

So'zning maqomi ilmiy asosda aniq belgilanmagani Sh.Rahmatullayevday zukko olimning o'ziga xos, yangicha talqinlarga boy ishlariga ham salbiy ta'sir qilgan. Shu munosabat bilan akademik A.Hojiyev aytgan quyidagi fikrga qo'shilmaslik mumkin emas: "...buni shu holatdanoq aniq tasavvur etish mumkinki, masalan, bir ishda til birligi sifatida leksema umuman tilga olinmasa²⁵, boshqa bir ishda til birligi sifatida so'z tilga olinmaydi.²⁶ Boshqa ishlarda esa leksema lisoniy birlik, so'z esa nutqiy birlik deb qaraladi. Lekin bu ishlarda ham ularning bir-biridan farqi (mohiyati) aniq isbotini topmagan..."²⁷

O'zbek tilshunosligidagi sintetik sistem-struktur yo'nalishda yaratilgan o'quv adabiyotlaridagi bunday muammoli, chalkash talqinlar, nomuvofliqlarga A.Hojiyev, N.Mahmudov, Y.Tojiyev kabi yetakchi tilshunolar o'z vaqtida e'tibor qaratib, ilmiy anjumanlarda tanqidiy fikr-mulohazalarini bildirganlar, asosiylarini ilmiy jurnallarda e'lon qilib ham borganlar.²⁸ Biroq, taassufki, sintetik sistem-struktur talqinlar va ular asosida yaratilgan o'quv adabiyotlari, tadqiqotchilar ko'rsatgan har xil daraja va maqomdagi kamchiliklar to'g'risida keng jamoatchilik, yanglishmasak, matbuot orqali rasman munosabat bildirmagan (Tahlilga tortilgan tadqiqot, darslik, o'quv qo'llanma mualliflari bundan mustasno, albatta. Ular o'z nuqtayi nazarlari, talqinlarini himoya qilib, A.Hojiyev va boshqa tadqiqotchilar qayd etgan kamchiliklarni, asosan, rad etganlar²⁹). Vaholanki, buning uchun sharoit ham, vaqt ham yetarli edi.

Yana shunisi ham aniqki, sintetik tilshunoslik yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar har qancha tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyotiga mos dialektika qonunlari asosida ishlab chiqilgan va ongli ravishda ilmiy tadqiqotga tatbiq etilgan bo'lmasin, bu tadqiq tamoyillari, metodlari

faqat mohiyatni aniqlash, topish, maqsadga erishish yo'li, usullari hisoblanadi xolos. Tadqiqotlarda qo'yilgan maqsadga erishilgani yoki erishilmagani esa butunlay boshqa masala. Bu ayni ishlarning o'zi, ularning sifati, saviyasi, amaliyotga tatbiqining ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir darajasi bilan belgilanadi. Buning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligi, obyektiv hayotga mosligi esa bu masalalarning har tomonlama chuqur va izchil tahlil qilinishiga bog'liq.

O'tgan chorak asr vaqt shuni ochiq-oydin ko'rsatdiki, bu jarayon tashqi kuch – biror markaz tomonidan tashkillashtirilmasa, faqat ko'pchilikni taqozo qiluvchi va shundagina real kuchga ega bo'lib, hisobga olinadigan ushbu ish o'z-o'zidan, tabiiy ravishda yuzaga kelmaydi. Shu ma'noda, nazarimizda, o'zbek tilshunosligida va ona tili ta'limida tanqidiy tilshunoslik va til ta'limi tanqidi sohasini shakllantirish vazifasi bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etish fursati allaqachon yetgan. Biz yuzaga kelgan muammoli vaziyatdan chiqishning konstruktiv yo'li shu, deb o'ylaymiz. Yoki shunday emasmi? Siz nima deysiz?

¹В. фон Гумбольдт. О различии организмов человеческого языка. – Москва, 1954.

²Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. Т. I. – Москва, 1963.

³Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1997.

⁴Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1997.

⁵Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Toshkent: Universitet, 2009.

⁶O.Bozorov. An'anaviy va sistemaviy tilshunoslikning o'zaro munosabati // O'TA, 2009. 3-son, 44–50-betlar.

⁷Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1995. 7-bet.

⁸Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. 6-bet.

⁹Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. – Toshkent, 2006. 4-bet.

¹⁰Bu haqida A.Hojiyevning "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998–2012-yillardagi sonlarida e'lon qilingan turkum maqolalari va "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari" nomli (Toshkent, 2010) tadqiqoti hamda quyidagi manbalarga qarang: Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2007. Tojiyev Y. O'zbek tilshunosligidagi ayrim muammolar haqida // O'TA, 2004. 2-son. 35–39-betlar; Tilshunoslikdagi ba'zi muammolar haqida // O'TA, 2004. 6-son. 25–30-betlar; Yana so'z, leksema, so'zshakl, morfema, morfemika haqida // O'TA, 2008. 6-son. 43–50-betlar; Hozirgi o'zbek tilshunosligiga bir nazar // O'TA, 2008. 2-son. 30–37-betlar; O'zbek tilida gap va gap bo'laklari maqomi masalasiga doir // O'TA, 2005. 4-son. 53-bet; Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi (yoki tilning sistem-struktur talqinlarida muntazamlik va mutanosiblik ehtiyoji) // O'TA, 2009. 1-son. 44–56-betlar.

¹¹Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1995. 47-bet.

¹²Ne'matov H., Rasulov R. Ko'rsatilgan manba. 37-bet. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent, 2001. 29–30-betlar.

¹³Ne'matov H., Rasulov R. Ko'rsatilgan manba. 7-bet.

¹⁴Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 72-bet.

¹⁵Ne'matov H., Rasulov R. Ko'rsatilgan manba. 37-bet; Nurmonov A. va boshqalar. Ko'rsatilgan manba. 29–30-betlar.

¹⁶Hojiyev A. Til qurilishining asosiy birliklari yuzasidan mulohazalar // O'TA, 2005. 4-son. 49-bet.

¹⁷Abuzalova M. O'sha asar. 23-bet.

¹⁸Abuzalova M. O'sha asar. 24-bet.

¹⁹Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi (yoki tilning sistem-struktur talqinlarida muntazamlik va mutanosiblik ehtiyoji) // O'TA, 2009. 44–56-betlar.

²⁰Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 4-bet.

²¹Sayfullayeva R. va boshqalar. Ko'rsatilgan manba. 13-bet.

²²Hojiyev A. Til qurilishining asosiy birliklari yuzasidan mulohazalar ("lug'aviy" va "grammatik" morfema haqida) // O'TA, 2004. 3-son. 30–35-betlar.

²³Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 73-bet.

²⁴Ne'matov H., Rasulov R. Ko'rsatilgan manba. 7-bet.

²⁵Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent, 2001. 29–30-betlar.

Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. – Toshkent, 2002.

²⁶Nurmonov A. va boshqalar. O'sha asar. 28-bet.

²⁷Zikrillayev G'. Istiqol va adabiy til. – Toshkent, 2004.

²⁸Hojiyev A. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari // O'TA, 2007. 1-son. 3-bet.

²⁹Yuqorida ko'rsatilgan manbalar.

³⁰H.Ne'matov. So'z yasash qolipi, yasalgan so'z va yasama so'z xususida // O'TA, 2007. 1-son. 14–19-betlar; O'zbek tilshunosligida formal, struktural va substansial yo'nalishlar xususida // O'TA, 2009. 4-son. 35–41-betlar; R.Sayfullayeva, Sh.Shahobiddinova. Neytral lisoniy birlik formal va struktural tilshunoslikda // O'TA, 2008. 5-son. 63–67-betlar; O.Bozorov. An'anaviy va sistemaviy tilshunoslikning o'zaro munosabati // O'TA, 2009. 3-son. 44–50-betlar; Sh.Iskandarova. Leksik-semantik sistema talqinlari // O'TA, 2009. 2-son. 43–45-betlar.

Dilnoza RAHMATOVA,

Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 44-maktabning
o'zbek tili fani o'qituvchisi

MILLIY QIYOFA VA TIL MUNOSABATI

Xalq orasida, ayniqsa, ta'lim muassasalarida juda ko'p tilga olinadigan va tadbirlarimizga sarlavha bo'ladigan ibora mavjud: "Til – millat ma'naviyatining ko'zgu-si". Bu mazmuni qanchalik chuqur bo'lsa, unga e'tibor shunchalik sust bo'lgan iboralardan bittasi, desak, xato bo'lmaydi. Bu iborani biz huda-behuda juda ko'p ishlatdik. Natijada bu ibora bizning ongimizga quyma shaklda joylashib oldi va biz uning mazmuniga e'tibor bermasdan takrorlaydigan bo'lib qoldik. Aslida, bu iboraning mazmuniga bir diqqat qilib ko'rsangiz, tilga nisbatan undan oshirib ta'rif berish mushkul ekanligini siz ham anglaysiz.

Darhaqiqat, til o'zi mansub millatning ma'naviyatini, shu tilda gaplashuvchi insonlarning madaniyatini belgilovchi eng muhim omillardan nafaqat biri, bizning nazdimizcha, birinchisi hamdir. Chunki til materialistik nuqtayi nazardan moddiy, mohiyat nuqtayi nazaridan ma'naviy, qo'llanilishi nuqtayi nazaridan madaniy, fan nuqtayi nazaridan ilmiy, adabiyot nuqtayi nazaridan estetik, diniy nuqtayi nazardan ilohiy hodisa hisoblanadi. Tilning ko'p qirrali hodisa ekanligi, shubhasiz, ammo mavzu nuqtayi nazaridan biz uning bir tomoniga diqqatingizni qaratmoqchimiz. U ham bo'lsa, millatdoshlarimizning milliy tilga munosabati masalasidir.

Til tabiatan osonlikka intiladi va bizga qanday gapirish qulay bo'lsa, shunday gapiramiz. Inson uchun adabiy tilda gapirishdan ko'ra o'z shevasida gapirishning qulayligi shundan. Ammo bu erkinlik tilga nisbatan behurmatlik qilishga izn bermasligi kerak. Milliy tilning mavjudligi va unga hurmat ko'rsatish, umuman, bu hodisaning nima ekanligini tushunish kishiga yuksak ma'naviy qoniqish hissini beradiki, buni madaniyatli-man degan kishi yaxshi anglaydi. Demak, madaniyat va milliy til bir-biridan uzoq tushunchalar emas ekan. Insonning o'z ona tiliga hurmati va shu tilni qay darajada bilishi uning madaniyatidan darak beradi. Madaniyatni tom ma'noda tushungun har qanday inson o'z ona tilining sofligi, uning jahon tillari orasidagi mavqe-martabasi, e'tirofi va tantanasi uchun o'zini mas'ul hisoblaydi. Bunday insonlar qaysi tilda gaplashsalar, o'sha tilning sofligini saqlaydilar. Ularning madaniyati tilga hurmat va undan qay tarzda foydalanishida namoyon bo'ladi. Ammo bugungi kunda tilimizda anchayin avj olgan bir muammo borki, u ham bo'lsa ayrim kishilarning o'zbekcha gapirib ruscha, ruscha gapirib o'zbekcha so'zlarni aralashtirishlari bilan bog'liq. Ayrimlar buni kichik muammo deb (hatto muammo emas deb) o'ylashlari mumkin. Ammo buning ortida milliy qiyofasizlik masalasi yotganini o'ylab ko'rganmisiz? Avvalo, bu hodisa har ikkala tilni ham buzish va uning yuziga oyoq qo'yishdan

boshqa narsa emas. Aslida bunday "yamoqchilik"ka na Pushkin va Lermantovni sharaf arshiga ko'targan rus tili, na Navoiy va na Boburni hurmat-e'tirofning haddi a'losiga munosib ko'rgan o'zbek tili muhtoj emas. Bu ikkala til ham ba'zi didi buzuq mahmadonalar qo'llayotganidek, birining "kuchi yetmay" qolganda, ikkinchisining "yordami"ga ehtiyoj sezmaydi. Ikkala til ham har qanday fikrni bayon qilish uchun yetarli so'z zaxirasiga, o'sha fikrni go'zal va ta'sirli ifodalash uchun esa o'z nafosatiga ega. Eng yomoni, o'z fikrlarini go'yoki "shir-u shakar" qilib bayon etayotgan o'sha kishilar bu ishlarini zamonaviylik, madaniyat deb tushunishlaridir. Bu noto'g'ri qarash, aslida, mohiyat e'tibori bilan ularning fikrlariga mutlaqo zid bo'lib, madaniyat emas, madaniyatsizlik belgisidir.

Bir necha xorijiy tillarni bilish zamonaviy dunyoda qanchalik ahamiyatli ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda yoshlarning xorijiy tillarda biyron gaplashishlarini ko'rib ularga havas qilamiz. Ammo bir necha tillarni bilish insonga fikrni ifodalashda o'sha tillardan qorishtirib foydalanish huquqini bermaydi. O'zini, millatini, tilini va shu bilan bir qatorda o'zga tillarni hurmat qilgan kishi bu kabi nomaqbul ishni o'ziga ep ko'rmaydi.

Ikki tilni qorishtirib gaplashishning ijtimoiy oqibatlarini tilning tabiatiga xos quyidagi hodisalar bilan bog'liq:

birinchidan, til ong va tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bu ikki tushuncha bir-birini taqozo etadi va biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Tafakkur jarayoni ongimizda til unsurlari ko'rinishida kechadi. So'z va boshqa til unsurlari tushuncha sifatida ongda tafakkur yuritish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon til unsurlarisiz amalga oshmaydi. Ammo o'sha tafakkur yuritish jarayoni qaysi tilda amalga oshiriladi? Mutaxassislar tafakkur yuritish jarayoni kishining ona tilida amalga oshiriladi, deb ta'kidlaydilar. Ammo, bizningcha, bu fikr biroz shubhali. Sababi insonning ona tili unga irsiy yo'l bilan o'tmaydi. Til ijtimoiy hodisa sifatida hayot davomida o'zlashtiriladigan jarayondir. Shunday ekan, insonning qaysi tilda tili chiqsa, u yoshligidan qaysi tilni o'zlashtirsa, uning uchun qaysi tilda muloqot qilish oson bo'lsa, o'sha tilda fikrlaydi, deyish to'g'riroq bo'ladi;

ikkinchidan, tildan qanchalik ko'p foydalanilsa, uning imkoniyatlari yanada oshib, sayqal topib, rivojlanib boraveradi. Eskirish tushunchasi tilga nisbatan teskari ishlaydi. Ya'ni undan qanchalik ko'p foydalanilsa, u boyib, yangilanib boradi, aksincha, undan foydalanilmasa, u eskirib, yo'qolib boraveradi. Yer kurrasida 6000 ga yaqin tillar mavjud bo'lib, shulardan 1400 tasi yo'qolib ketish arafasida turibdi. Bu tillarning yo'qolib

ketishiga shu til egalarning o'zga tillarni o'z tilidan ustun qo'yishi, o'z ona tillarini mensimaganliklari, uning sofliqi va taraqqiy etishi uchun kurashmaganliklari sabab bo'lmoqda;

uchinchidan, til doimiy ravishda o'zgarib turadigan ijtimoiy hodisadir. Bu o'zgarishlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Tildagi ifoda imkoniyatlarining oshishi, til leksik sathining kengayishi va adabiy til imkoniyatlarining mustahkamlanishi ijobiy holat sifatida shu til egalarning sa'y-harakatlariga bog'liq. Til sofligining buzilishi, vulgarizm va varvarizmlarning faollashuvi, adabiy til mavqeyining pasayishi kabilari salbiy jihatlar bo'lib, bu ham shu til egalarning mas'uliyatsizligi natijasida sodir bo'ladi. Bunga kuchli tillarning kuchsiz tillarni istilo qilishi bilan bog'liq tabiiy jarayonni ham qo'shsak bo'ladi. Yo'qolib ketishga mahkum bo'lgan til egalari mana shu jarayonlarni to'g'ri anglamaganliklari va unga qarshi choralar ko'rmaganliklari ulardagi milliy tillarning

mahv bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Demak, tilning doimiy mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun u doimo faollik bilan amalda qo'llanilishi, boshqa tillarning unga salbiy ta'sirini bartaraf etish kerak bo'ladi. Tildagi har qanday jarayon, xoh u salbiy, xoh ijobiy bo'lsin, asta-sekinlik bilan o'zining ijtimoiy oqibatlarini namoyon qiladi. Xuddi shuningdek, o'zbek va rus tillarini qorishtirib gaplashish bilan bog'liq bir qaraganda unchalik jiddiy ko'rinmagan muammo asta-sekinlik bilan ona tilimiz mavqeyining pasayishi, geografiyasining torayishi, so'zlashuvchilari sonining kamayishi, millatdoshlarimizda tilimizning nafasati va go'zalligini his etmaslik bilan bog'liq yangi ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Eng achinarlisi, millatdoshlarimiz orasida o'zga tilda tafakkur yuritadigan kishilarning ko'payishiga olib keladi. Ularning o'zga tilda tafakkur yuritishi esa milliy fojidadir. Inson tafakkur tarzining o'zga tilda amalga oshishi bu milliy qiyofaning yo'qolishi sari qo'yilgan mudhish qadam hisoblanadi.

Metodik tavsiya



Mahbuba SOBIROVA,
Namangan davlat universiteti
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

PANDEMIYA DAVRIDA O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Respublikamizda koronavirus karantini tufayli o'quvchilar va talabalarga masofadan bilim olish imkoniyatlari yaratilib, teleekranlarda teledarslar o'tkazilmoqda. Kutilmagan, yangicha sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanib, o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalash va, shu asnoda, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish talab qilinmoqda. Bugun pandemiya sharoitida o'quvchining ta'lim-tarbiyasi oilaga ham ko'chirilmoqda. Bu esa ota-onalardan farzandlari tarbiyasini, bilim olishga bo'lgan e'tiborini alohida nazoratga olishga undaydi. Onlayn mashg'ulotlarni vaqtida kuzatib borishini, topshiriqlarni bajarishga ruhlantirishni talab qiladi. Endi bolaning bo'sh vaqti ko'p bo'lgani uchun bu vaqtdan unumli foydalanish, badiiy asarlarni ko'proq o'qishga chorlashni talab qiladi.

Oilada bolani kitobga qiziqtirishning yo'llari xilma-xil bo'lib, ular quyida izohlanadi:

1. Namuna bo'lish. Ota-ona va oilaning katta yoshli a'zolari kitob o'qishda namuna ko'rsatishlari bolalarning badiiy asar o'qishga qiziqishlarini oshiradi. Ota-onalar shuni unutmasliklari kerakki, bolalarning badiiy kitoblarni mutolaa qilishlariga oila sharoitida e'tibor qaratilmay, ularda bu boradagi dastlabki ko'nikmalar shakllantirilmagan ekan, ta'lim muassasalari yetarli natijaga erisha olmaydi. Farzandlarning savodi chiqqanidan keyin ham iloji boricha ota-ona va katta yoshli oila a'zolarining ovoz chiqarib kitob o'qishlari oila tarbiyasining eng samarali usulidir. Shunga erishish zarurki, kitob mutolaasi soatlari bolalar uchun bayram kabi bo'lib qolsin.

Asta-sekin avvallari ota-onalar tomonidan asarlarning o'qib berilishi o'rni, keyinchalik, farzandlarning o'zlariga topshiriladi. Jarayonning samarali bo'lishi quyidagicha yo'l tutilishiga bog'liq:

- a) ota-ona tomonidan asarlarni maxsus o'qib berishda dastlab bolani tinglovchi bo'lishga o'rgatish;
- b) asta-sekin asarlarning ota-ona yoki yoshi katta oila a'zolarining bolalar bilan birgalikda, o'zaro hamkorlikda (muayyan sahifalarni navbatma navbat) o'qilishga erishish;
- d) o'qilgan asarni oila davrasida jamoa bo'lib muhokama qilish;
- e) asar yuzasidan o'zaro fikr almashishga erishish.

Oilada davrasida farzandlarning badiiy asar mutolaasiga qiziqishini jamoa asosida rivojlantirish hamda ularda o'qilgan asarga tanqidiy yondashish, bayon etilgan voqelikdan xulosa chiqarish, qahramonlarning ijobiy fazilatlarini o'zlashtirishga intilish ko'nikmasini tarbiyalash maqsadga muvofiq.

2. Ifodali o'qish. Ifodali o'qish va hikoya qilib berish bolalarni mustaqil o'qishga tayyorlashdagi dastlabki bosqich hisoblanadi. Bu jarayonni yanada samarador qilish uchun ifodali o'qish yoki ta'sirchan tarzda so'zlab berish jarayonida asarning eng qiziq joyiga kelganda to'xtatib, davomini so'zlab berishni bolaning o'ziga topshirish mumkin. Ifodali o'qish keyinchalik bolaning o'ziga topshirilsa, kitobdan olinadigan zavq, his-hayajon umumlashadi, kollektiv ravishda tarbiyalash-tarbiyalanish vujudga keladi.

3. Suhbat. Oilada kitob o'qishni uyushtirish yo'llaridan yana biri kitoblarning haqida samimiy suhbatlashishdir. Suhbat, odatda, ifodali o'qishdan oldin yoki keyin, bola kitobni mustaqil o'qiganidan so'ng olib boriladi. Har bir o'qilgan material oila davrasida muhokama qilib borilishi yoki, hech bo'lmaganda, bu to'g'rida suhbat uyushtirilishi zarur. Muhokama jarayonida suhbatlar rasmiyatchilikka aylanmasligi kerak. Odatda, oila davrasidagi suhbatlarning maxsus saboq berishga asoslanishi, ezmalik qilish, buyruq, talab ohangida so'zlash bolalar tomonidan o'qilgan materialning tarbiyaviy ta'sirchanligini kamaytiradi. Shu bois o'qilgan asar muhokamasi erkin suhbat bo'lishi, munozaraning samimiylik kasb etishiga diqqat qaratilishi kerak. Agarda bu kabi suhbatlar biror-bir uy yumushi bilan bog'liq ravishda yoki oila a'zolaridan biri aytgan fikr bahonasida "bexosdan boshlanib ketguday" bo'lsa, u yanada samara beradi.

4. O'yin. Kichik yoshdagi bolalarni kitobxonlikka o'rgatishda o'yinning ahamiyati ham katta. Bolalarga o'yin orqali ko'p narsani o'rgatish mumkin. O'yin metodini oilada, avvalo, topishmoqlar, she'rlar aytishdan boshlash kerak. Bolalar o'qigan kitoblaridagi qahramonlar holatlarini o'yin, xatti-harakatlari orqali ko'rsatishlari mumkin.

Kitob bolalik yillaridan boshlab insonning doimiy hamrohiga aylanishi uchun quyidagi tavsiyalarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

a) bolaning badiiy asar va maxsus adabiyotlarni tan-

lashini nazorat qilib borish va ularni qanday o'qishidan xabardor bo'lish;

b) bolani kitoblarga mehr bilan qarashga va ularni ehtiyoq qilib saqlashga odatlantirish;

d) kitobga va kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni oshiruvchi multfilmlarni ko'rsatish; bilimlarni olishga undovchi interfaol ko'rsatuvlarni birgalikda ko'rish, ularni muhokama qilish;

e) oilada bolalar xonasini tashkil etish, mabodo buning imkoniyati bo'lmasa, farzandlar uchun kitob burchagini tashkil etish. Bu burchakka har bir bola o'zi yasagan, o'zi chizgan suratlarni osishi (bola har ko'zi tushganda o'zidan faxrlanish, o'zidagi noyob qobiliyatlarini anglab yetishi uchun);

f) oila davrasidagi suhbatlarda bolalarning o'qigan kitoblaridan olgan taassurotlarini aytishlariga mos vaziyatlar yaratish;

g) farzandlar o'rtasida "Oilamizning jajji kitobxon", "Eng kitobxon o'quvchimiz", "Eng kitobxon talabamiz" deb nomlanuvchi tanlovlarni tashkil etish;

h) jahon adabiyotining eng sara namunalari elektron variantlarini hamda til o'rganish uchun mo'ljallangan kitoblarning audio darsliklarini oiladagi kompyuterga joylash va ularni vaqti-vaqti bilan farzandlarning ko'rishini nazorat qilish.

Bir so'z bilan aytganda, dunyoning sakkizinchi mo'jizasi sifatida e'tirof etiladigan kitob inson qalbining chinakam hamrohi, qalb va fikr qayrog'i bo'lib qolishi uchun oila muhiti ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Komil JALILOV,

TEAM universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, ToshDO'TAU mustaqil tadqiqotchisi

YOPIQ TEST TOPSHIRIQLARINING SIFATI VA SAMARADORLIGINI TA'MINLASH: ONA TILI VA ADABIYOT TESTLARI MISOLIDA

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga saralash jarayonida korrupsiya va subyektivizm singari salbiy holatlarning oldini olish, mazkur yo'nalishda yagona davlat siyosatini joriy qilish, jamiyatning intellektual quvvatini oshirish hamda ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish maqsadida test tizimi joriy qilingan edi. Dastlab tajriba-sinov sifatida joriy qilingan mazkur tizim keyinchalik barcha davlat OTMlari kirish imtihonlariga tatbiq qilindi. O'tgan yillar davomida bu tizim bir muncha takomillashtirildi va nafaqat OTMlarga kirish imtihonlarida, balki ta'limning turli bosqichlarida tahsil oluvchilarning bilim darajasini monitoring qilish uchun ham keng qo'llana boshlandi. Bugungi kunga kelib rivojlangan xorijiy davlatlarda bo'lgani kabi yurtimizda ham umumta'lim fanlari, xususan, ona tili va adabiyotdan o'quvchilarning bilim darajasini baholashning milliy test tizimini joriy qilish harakatlari boshlandi.

Ta'limning barcha bosqichlarida turli maqsadlarda qo'llanilayotgan testlarda, asosan, yopiq shakldagi, test topshiruvchidan to'g'ri javobni tanlashni talab qiladigan test topshiriqlaridan foydalanilmoqda. Bunday test topshiriqlarining eng katta afzalligi test natijalarini maxsus qurilmalar yordamida tez qayta ishlash hamda tekshirishda subyektivlikdan qochish imkonini berishidir.

Yopiq test topshiriqlari samarali bo'lishi, o'z vazifasini bajarishi hamda testologiya ilmidagi test sifatiga qo'yiladigan muhim talab – ishonchlilik tamoyiliga javob berishi uchun ularni tuzishda bir qancha qoidalarga rioya qilinishi lozim. Shundagina ular tekshirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni keng va har tomonlama qamrab olish imkonini beradi. Testologiya fanida qabul qilingan qoidalarga muvofiq tuzilgan yopiq test topshiriqlari nafaqat kognitiv ko'nikmalarning quyi darajalari – ma'lumotni bilish (eslash)

va qo'llashni, balki yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni ham tekshirish imkonini beradi.

Quyida yopiq test topshiriqlarini tuzishda rioya qilinishi lozim bo'lgan eng muhim qoida va tavsiyalar ona tili va adabiyot testlari misolida tushuntirilgan.

1. Har bir test topshirig'i baholanayotgan sohaning konkret bir elementini baholash maqsadida tuzilishi lozim. Har bir test topshirig'ining maqsadi aniq bo'lishi, shu bilan birga, bitta test topshirig'i orqali bir paytning o'zida bir nechta qoida, ma'lumot yoki ko'nikmani qamrab olishga harakat qilinmasligi kerak. Misol uchun:

"Oddiy kitobxon aqlli ikkita qahramonning qismatidan hayajonlanib, uzoq yillar eslab yuradigan yozuvchi – haqiqiy yozuvchi." Ushbu gapdagi ko'makchi morfemalar tarkibida nechta o'rinda quyi keng unlilar ishtirok etgan?

A) 8 B) 10 D) 7 E) 9

Ushbu test topshirig'ida ham ko'makchi morfemalarni, ham ular tarkibidagi quyi keng unlilarni topish so'ralmoqda, ya'ni test topshiruvchi bitta topshiriqqa to'g'ri javob berishi uchun ham morfemikadan, ham fonetikadan bilimni ishga solishi kerak bo'ladi. Demak, ushbu test topshirig'ida yuqoridagi talab buzilgan. Agar o'quvchi yoki talaba ushbu test topshirig'iga noto'g'ri javob bersa, uning bilimidagi bo'shliq aynan qayerda (morfemikadami, fonetikadami yoki har ikkalasidami) ekanligini aniqlash imkonsiz. Bu holda muammoning yechimi – ikkita alohida test topshirig'i tuzib, bir test topshirig'ida ko'makchi morfemalarni, ikkinchisida quyi keng unlilarni so'rash lozim bo'ladi.

2. Yopiq test topshiriqlari samarali ishlashi uchun hisobga olish lozim bo'lgan yana bir muhim qoida – har bir test topshirig'i baholanayotgan soha uchun muhim bo'lgan bilimga asoslanishi lozim. Muhim bo'lmagan, haddan tashqari umumiy yoki haddan tashqari xususiy mazmun asosida tuzilgan test topshiriqlari o'z vazifasini bajara olmaydi, ya'ni ular asosida baholanayotgan fanni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirgani to'g'risida asosli xulosa chiqarish imkonsiz. O'ta umumiy mazmun asosida tuzilgan test topshirig'iga fanni yaxshi o'zlashtirmagan, yuzaki bilimga ega o'quvchi ham to'g'ri javob berishi mumkin, haddan tashqari xususiy mazmun asosida tuzilgan test topshirig'iga esa fanni yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi ham javob bera olmasligi yoki tavakkal qilib javob berishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Misol uchun:

Shoira Anbar Otin qaysi mashhur mumtoz shoira-mizning jiyani bo'lgan?

A) Maknuna B) Dilshodi Barno
D) Nodirabegim E) Jahon otin Uvaysiy

Ushbu test topshirig'i tekshirilayotgan fan – adabiyot uchun muhim bo'lmagan ma'lumot asosida tuzilgan: Anbar Otin kimning jiyani bo'lganligini bilish uning ijodini tushunishda hech qanday rol o'ynamaydi.

Yana bir misol:

"Ishga kirganiga to'rt oy bo'ldi-yu, to'rt yillik charchadi bolam! – dedi ona. – To'rt yillik qaridi bolam! ... Yo'q, aravakashligi qursin! Boshqa ishga beramiz ... bo'lma-di bu." "Kecha va kunduz" romanidan olingan ushbu parchada onasi tomonidan qayg'urilayotgan aravakash obrazi qaysi javobda berilgan?

A) Hakimjon B) O'lmasjon D) Zunnun E) Xolmat

Ushbu test topshirig'i o'ta xususiy mazmun asosida tuzilgan bo'lib, testning maqsadi o'quvchining "Kecha va kunduz" romanini tushunishini tekshirishga qaratilgan bo'lsa-da, mazkur asarni o'qigan, u haqida muayyan tushunchalarga ega o'quvchi ham bu topshiriqqa to'g'ri javob bera olmasligi mumkin, chunki aravakash asarda epizodik obraz bo'lib, muhim rol o'ynamaydi va o'quvchi asarni o'qish, tahlil qilish davomida e'tiborini bu obrazga qaratmaydi.

3. Test topshirig'ini tuzishda uning yagona to'g'ri javobi mavjud ekanligiga ishonch hosil qilish, topshiriqni tuzish uchun asos qilib olingan ma'lumot yoki qoidani bir necha muqobil manbalar asosida tekshirib ko'rish lozim. O'quvchilar fanni o'zlashtirishda faqat tavsiya qilingan o'quv adabiyotlari bilan chegaralanmasdan, turli manbalardan foydalanishlari mumkin. Test topshiriqlarining turli manbalarda turlicha talqin qilingan ma'lumot yoki qoidalar asosida tuzilishi esa ularning haqli e'tirozlariga sabab bo'ladi va ortiqcha bahs-munozaralarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, test topshirig'i subyektiv munosabat yoki subyektiv baho asosida tuzilmasligi talab qilinadi, chunki subyektiv baho yoki munosabatga qurilgan test topshirig'i ham bahstalab bo'lib qoladi va uning yagona to'g'ri javobi mavjud bo'lmay qoladi.

Misol uchun:

Hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyaviy motivlari va badiiy qimmatini jihatidan dunyodagi eng katta epik asar nomi va uning muallifi berilgan javobni aniqlang.

A) Firdavsiyning "Shohnoma" asari
B) Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari
D) Rumiyning "Masnaviy" asari
E) Alisher Navoiyning "Xamsa" asari

Yuqoridagi test topshirig'ida to'g'ri javob mavjud emas. Test tuzuvchi to'g'ri javob sifatida "Shohnoma"ni belgilagan bo'lsa-da, ochiq manbalarda, xususan, Britannika ensiklopediyasida qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 100000 dan oshiq baytni o'z ichiga olgan "Mahabharata" hajm jihatidan dunyodagi eng yirik epik asar hisoblanadi (qiyoslash uchun: "Shohnoma", Firdavsiyning qayd etishicha, 60000 baytdan iborat). Shuningdek, test topshirig'ida ishlatilgan "g'oyaviy motivlari va badiiy qimmatini jihatidan dunyodagi eng katta epik asar" jumlasini test tuzuvchining yoki test tuzuvchi asos sifatida ishlatgan manba muallifining subyektiv bahosini ifodalamoqda.

4. Test topshirig'i matnida ishlatilgan ta'riflar, izohlar va misollar o'quvchi uchun yangi (notanish) bo'lishi kerak. Aks holda test topshiruvchi baholanayotgan fanni yaxshi o'zlashtirgani sababli emas, test topshirig'ida keltirilgan jummalarga oldin duch kelgani (masalan, dars paytida yoki o'quv adabiyotlari bilan ishlash jarayonida) va ularni eslab qolgani uchun to'g'ri javob berishi mumkin. Misol uchun, ona tili darslarida biror-bir grammatik qoida o'tilsa, va bu qoida misollar, mashqlar vositasida mustahkamlansa, xuddi shu qoidani tekshirishga qaratilgan test topshiriqlari darslarda ishlatilmagan, o'quv adabiyotlarida berilmagan misollar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq. Adabiyot fanidan test topshiriqlarini tuzishda ham amaldagi darsliklarda berilgan ma'lumotlar aynan, so'zma-so'z olinmasdan, o'quvchi

asarning mohiyatini qay darajada tushunganligini hamda o'rganilgan adabiy-nazariy tushunchalar mohiyatini qay darajada o'zlashtirganini tekshirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Misol:

Abayning inson hayotida muhim o'rin tutadigan aql, ilm-ziyo, insof va adolat, yaxshi xulq, muomala madaniyati, din, e'tiqod, davlatni idora qilish, xalqlar, elatlarning ahil, do'stona munosabatda bo'lishlari haqida mulohaza yuritgan nasriy asari qaysi javobda berilgan?

A) "Naqliya so'zlar"

B) "Boy bolasi bilan kambag'al bolasi"

D) "Iskandar" E) "Ilm o'rgan"

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf darsligida quyidagicha berilgan: "Abay ijodiy merosining salmoqli qismini xalqni ilm-ma'rifatga, madaniyatga da'vat qiluvchi "Naqliya so'zlar" majmuasi tashkil etadi. Hassos adib va shoir ushbu asarida inson hayotida muhim o'rin tutadigan aql, ilm-ziyo, insof va adolat, yaxshi xulq, muomala madaniyati, din, e'tiqod, davlatni idora qilish,

xalqlar, elatlarning ahil, do'stona munosabatda bo'lishlari haqida mulohaza yuritadi".

Yuqoridagi test topshirig'i Abayning "Naqliya so'zlar" asarining asosiy g'oyasini tushunishni tekshirishga qaratilgan bo'lsa-da, mazkur asar bilan tanish bo'lmagan yoki uning mohiyatini yaxshi anglamagan o'quvchi ham darslikda berilgan ma'lumotni eslab qolgan bo'lsa, to'g'ri javobni topa oladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, testologiyada qabul qilingan sifat talablariga javob bera oladigan testlarni tuzish nafaqat test orqali tekshirilayotgan fan sohasi bo'yicha, balki testologiya, pedagogik o'lchovlar bo'yicha ham chuqur bilimlarni talab qiladi. Testologiya talablariga muvofiq holda tuzilgan testlarga test topshiruvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholashda ishonchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. To'g'ri test topshiriqlarining tuzilishi ta'lim oluvchilar (o'quvchilar, talabalar) yoki ta'lim beruvchilar (pedagoglar, ta'lim muassasalari) faoliyati haqida asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Sevara XOLJITOVA,

Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 30-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

HIKOYALARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI

Maktabda adabiyot darslarida hikoya o'qitishning qulay usullari, hikoya o'qish davomida o'quvchi fikrlash qobiliyatining sezilarli darajada oshishi, interfaol usullardan foydalanish, mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntira olish o'qituvchi mahoratini yana bir bor namoyon etadi. Bundan tashqari, o'quvchida hikoya orqali ijobiy fazilatlar shakllanishiga sabab bo'ladi.


Umumta'lim maktablarida hikoyalarni o'rganishda, avvalo, o'quvchiga hikoya janri ixcham bo'lgani bois, epik turdagi roman, qissaga nisbatan ko'proq yozilishini, bu janr badiiy adabiyotda hayot hodisalarini yorqin bo'yoqlarda yaqqol namoyon etishini uqtirish lozim. Hikoyani o'qitish darsi rejasida o'quvchi uning mazmunini, asosiy fikrini bilishi, asarning tarbiyaviy, xususan, estetik ta'siri ko'zda tutiladi, uni ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Adabiy ta'lim jarayonida asar qahramonlarini salbiy yoki ijobiy guruhga bo'lmasdan, obrazlarni tahlil qilish orqali ularga to'g'ri ta'rif berishni o'rgatish lozim bo'ladi. Badiiy adabiyotda hikoya janri qadimdan shakllangan ixcham epik tur sifatida o'rganilib, o'qib kelinmoqda. Maktab darsliklarida bir qator o'zbek va jahon adiblarining hikoyalari o'quvchilar hukmiga havola etilmoqda. Xo'sh, o'quvchilar adabiyot darslarida sodda tuzilishga ega bo'lgan hikoyalarni o'rganishi uchun o'qituvchi qanday vazifalarni bajarmog'i kerak? Dastlab berilgan hikoya matnini quyidagi bosqichlarda o'rganish e'tiborga olinadi:

- hikoyani o'qishga tayyorlash;
- hikoyani o'qituvchi yoki o'quvchining ifodali o'qishi;
- idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);
- hikoyani ifodali o'qish yoki sahnalashtirishga tayyorlanish kabi usullardan foydalaniladi.

Tarmoqlash ta'lim metodi orqali hikoya qahramonlariga tavsif berishni o'rgatish yaxshi samara beradi.

O'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish hamda ular bilan birgalikda mashg'ulot mavzusini aniqlash maqsadida klaster metodi nafaqat yozma, balki og'zaki nutq malakasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilarga kartochkalarga yozilgan alohida so'z, fikr yoki gaplar taqdim etiladi va o'qib chiqib tayanch so'z yozilgan qog'ozni kerakli joyga yelimplash so'raladi. Masalan, A.Qahorning "Bemor" hikoyasida "Sotiboldi", "do'xtirxona" so'zlari sinf doskasiga yozib qo'yiladi. O'quvchilar tayanch so'zlarga oid fikr yoki gaplarni so'z atrofiga yopishtirib chiqadilar. Masalan:



Bu tayanch so'zlar orqali ma'lumotlar to'planib, mavzu bola xotirasida uzoq saqlanishiga sabab bo'ladi.

Rezyume texnologiyasini ham mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Unda mavzuning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish juda muhimdir. Yakunlash bosqichida esa olingan bilimlar tartibga solinadi. Nuqtayi nazar bilan hodisa, tushuncha tekshiriladi, asarning afzalliklari va kamchiliklari yozib chiqiladi. A.Qahhorning "Dahshat" hikoyasini oladigan bo'lsak, dahshat qorong'uda uvillagan shamol bilan birga zulmat hukmron bo'lgan qabriston emas, haqiqiy go'riston Olim dodxohning uyi, undagi muhit ekanligini Unsinning ganjiravonga ketish xayollari tasviridanoq sezamiz. Xonadondagi ayollar erki Olimxonning qo'lida bo'lishi o'quvchini hikoya oxirini tezroq anglab yetishga undaydi. Bunda inson qadri, erki qimmatli tushuncha ekanligi namoyon bo'ladi. O'quvchilar rezyume texnologiyasi orqali Unsin obraziga ketma-ket ta'rif berib, uning fazilat va kamchiliklarini ustun shaklida yozib chiqadilar.

UNSin OBRAZI

Afzalligi:

erki uchun kurashuvchi, mard, jasur ayol

Kamchiligi:

kurashuvchan bo'lsa-da, hiyla oldida ojiz, muhit qurboni

Mana shu sifatlar orqali dars davomida o'quvchilar hikoyaning mazmun-mohiyati, yozuvchining maqsadini aniqlab oladilar.

Interfaol metodlar orqali hikoyalarni o'qitish o'qituvchida ham, o'quvchilarda ham bir qator qulayliklarni tug'dirishi tabiiy. Chunki shakllanayotgan avlod qalbida badiiy adabiyot chin insoniy fazilatlar ildizini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Klaster texnologiyalaridan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi, 2019, 6-son.
2. Aliyev I. Pedtexnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2012.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar



Iltomjon OXUNOV,
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi

DIDAKTIK O'YINLARNING BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA YO'NALTIRISHDAGI METODIK IMKONIYATLARI

Ta'lim tizimining ibtidosi bo'lmish maktabgacha ta'lim bosqichida tarbiyalanuvchilarning yetakchi faoliyati o'yin sanalsa-da, ushbu jarayon zamirida ta'lim va tarbiya berish, borliqni anglatish, mustaqil fikr yuritishga undash orqali shaxsni shakllantirish ko'zda tutiladi. [1] Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida deyarli barcha jarayon – ta'lim ham, tarbiya ham o'yin shaklida amalga oshirilishi "Ilk qadam" dasturida alohida ta'kidlangan. [2] Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va metodikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda ta'kidlanishicha, o'yinlar bu yoshdagi bolalarning asosiy ish-faoliyatlaridan bo'lib, ularning har tomonlama rivojlanishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. [3] Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil qilinadigan didaktik o'yinlar tarbiyalanuvchilarda bir qator shaxsiy sifatlar tarkib topishining asosidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos didaktik o'yinlar tavsiya etilgan adabiyotlarda bunday o'yinlar shartli ravishda ikki guruhga ajratiladi: sensor (his qilish, tuyish orqali o'zlashtirish) faoliyatiga qaratilgan va mantiqiy didaktik o'yinlar (ya'ni matematik qobiliyatni o'stiruvchi o'yinlar). O'yinlarning birinchi guruhi narsa (pred-

met)larni ajratish (ulardagi o'xshash va farqli jihatlarni farqlash) va narsa (predmet)lardan yaxlit bir shakl yasash (tasavvur qilib, qismlardan yaxlit bir butunlikni yaratish)dir. [4:26]

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi didaktik o'yinlardan biri "Jamoatuz" deb nomlanadi. Bu o'yin o'z oldiga meva yoki sabzavotlarni turli belgilari bo'yicha saralash bilan bolalarda ma'lumotlar ko'lami, bilimni oshirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsadini qo'yadi. O'yin quyidagicha tartibda o'tkaziladi: tarbiyalanuvchilarga bir nechta meva yoki sabzavot tasviri tushirilgan suratlar yoki meva, sabzavotlarning o'zi tarqatiladi. O'yin avvalida tarbiyachining o'zi boshlovchilik qiladi. Masalan, pomidorni qo'lga oladi va quyidagi she'rni o'qiydi:

*Rangini ko'r – qip-qizil,
Sabzavot u – pomidor.
Taomga rang ham maza,
Siqsang, sharbat senda bor.*

Shunda pomidor o'z jamoasini "tuzadi": uning tegrasiga sharbati bo'lgan boshqa sabzavoti bor bolalar qo'lidagi rasm bilan kelib qo'shiladilar. Jamoaga qo'shil-

gan bola qo'lidagi sabzavot nomini hamda o'ziga xos xususiyatlarini bayon etadi: qo'limda sabzi bor, uning ham suvi-sharbat juda foydali; menda qovoq bor, uning ham sharbat bor. Uyda undan foydalanamiz.

Keyin boshqaruvchilik guruhdagi bolalardan biriga o'tadi:

Solinmayman men oshga,

Yoqaman qari, yoshga.

Sho'rva mensiz bo'lmaydi,

Nomim mening

Tarbiyachi bu she'rning oxirgi so'zini (kartoshka) o'qimay bir oz to'xtalish qilishini oldindan tayinlab qo'yadi. Bu o'ziga xos topishmoq vazifasini o'tashi mumkin. Guruhda kimdir zukkolik bilan javobni topsa, u rag'batlantiriladi. Hech kim topolmasa, ikki misra qayta o'qilib, tushirilgan (o'qilmay turgan) so'z ham aytiladi. Keyin bolalar sho'rvaga solinadigan boshqa sabzavotlar bilan yana bir jamoa hosil qiladilar, o'zlarida bo'lgan sabzavotning nomi va rangini (yoki boshqa bir xususiyatini) aytib qo'shilaveradilar.

Uchinchi bir boshlovchilik qilayotgan bola olmani ko'rsatganicha o'qiydi:

Atashar meni olma,

Bo'lsam-chi g'o'r, hech olma.

Mazzaman xo'p pishganda,

Deyishar berib: "Ol, ma!"

Bu she'r bolalarda kichik yoshdan so'z o'yinini his qilish, badiiy so'zdan zavqlanish tuyg'usini tarbiyalaydi. Qaysi bir bolaning qo'lida meva (nok, behi, anor) bo'lsa, ushbu jamoaga nomi va uning o'ziga xos tomonlarini aytib qo'shiladi. Shu kabi yangi jamoalar boshqa sabzavot yoki mevalarning u yoki bu xususiyatlaridan kelib chiqib uyushadilar, muayyan belgilarini bayon etadilar. Mazkur o'yin tarbiyalanuvchilarning meva yoki sabzavotlar, ularning xususiyatlari haqidagi ma'lumot, bilimlarini mustahkamlaydi, shu bilan birga ularda sinchkovlik fazilatini tarbiyalaydi.

Til va nutq faoliyat markazlarida bolalarni mustaqil fikrlash, nutqini o'stirishga o'rgatadigan "Insonlar va jonivorlar" didaktik o'yinlari yuqori samarasi bilan ajralib turadi. Bunda, avvalo, insonlar bolalarga yaxshi tanish bo'lgan uy hayvonlari, parrandalar, boshqa qushlarga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi, keyin esa bu jonivorlarning insonlarga qanday foyda, manfaat keltirishlari og'zaki bayon yoki to'rtlik, ikkilik shaklidagi she'rlar orqali tushuntiriladi. O'yin bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga suhbatga kirishish, nutqni shakllantirish, suhbat uchun mavzu tanlash layoqatini rivojlantiradi. Bu o'yin vositasida ular jonivorlarning odamlarga keltiradigan foydasini o'zlari uchun kashf etadilar.

Bolalar dunyoqarashini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi, ularda mustaqil fikrlash layoqatini takomillashtirishga omil bo'ladigan didaktik o'yinlardan boshqa biri "Bayram dasturxon" deb nomlanadi. Mazkur o'yin mashg'uloti jihozlari sifatida o'rmondagi hayvonlar, ularning uyalari va yeydigan ovqatlari tasviri tushirilgan kartochkalar bo'ladi. Tarbiyachi bugun bayram munosabati bilan quyon o'rmondagi boshqa hayvonlarni ziyofatga chaqirganligini, bir qancha taomlar tayyorlaganini aytadi va bolalarga har xil oziq-ovqat-

lar rasmini havola etadi. Keyin bolalarga murojaat qiladi: "Bolajonlar, shu taomlarga qarab topinglar-chi, quyon ziyofatga kimlarni taklif qilibdi?" Bolalar rasmlarda aks etgan idishdagi asal, taqsimchadagi yong'oq, ko'zachadagi sut, ixcham bog'langan pichan va h.k. taomlarga asoslangan holda ularni iste'mol qiladigan hayvonlarning nomlarini aytadilar. Keyin tarbiyachi bu ovqatlarning oldiga ularni iste'mol qiladigan hayvonlar suratini yopishtiradi va so'raydi: "O'ylab boqing-chi, quyon qaysi hayvonlarni mehmonga chaqirmabdi? Nima sababdan chaqirmadi ekan?" Bolalar mulohaza qilib, quyon bo'ri bilan tulkini mehmonga chaqirmaganini aytadilar. Chaqirmaganligi sababini o'zlari bilganicha izohlaydilar. So'ngra tarbiyachi hikoyani davom ettirib: "Mehmonga kelgan hayvonlar ziyofatda yayrab ovqatlanishibdi, suhbatlashibdi va kechga yaqin uylariga qaytishibdi", deydi va o'yindagi keyingi topshiriqqa o'tadi. Taxtaga har xil uyalarning suratini yopishtirib, quyidagi topshiriqni beradi: "Mehmondan qaytgan hayvonlarning suratini o'z uyasi oldiga qo'yinglar". Birin-ketin chiqqan bolalar maymoq ayiqni kattagina uyasiga, olmaxonni daraxtga, qushlarni daraxt shoxlariga, quyonni butalar ostiga joylashtirishadi. So'ngra yana hikoya quyidagicha davom ettiriladi: "Ertalab turib barcha hayvonlar quyon tashkil qilgan mehmondorchilik qanday o'tganini so'zlab berishibdi". Tarbiyachi shu o'rinda bolalarga savol bilan murojaat qiladi: "Bir o'ylab ko'ringlar-chi, qaysi hayvon qanday hayvonchalarga quyonning ziyofati haqida gapirib beribdi?" va ishtirok etgan hayvonlarning bolalari aks etgan suratlarini chiqaradi. Endi bolalar suratdagi hayvon bolalarining nomini aytib, ularni o'z onalari oldiga yopishtirib qo'yadilar. Shu tariqa baholash bosqichiga yetib kelinadi: to'g'ri qo'yilgan javoblar oldiga tarbiyachi har xil baholarni aks ettiruvchi belgilarni yopishtirib chiqadi. Masalan, to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yoniga yulduzcha yoki "smaylik"lar qo'yib borish mumkin. Bu didaktik o'yinlar vositasida bolalar ham bilim oladilar, ham mustaqil mulohaza yuritib kashfiyotlar qiladilar.

Bolalarda tez fikrlash ko'nikmasini shakllantiradigan didaktik o'yinlardan biri "Hozirjavob bola" deb nomlanadi. Tarbiyachi bunda turli mavzularni o'rtaga tashlaydi. Tarbiyalanuvchilar shu mavzuga doir so'zlarni topishlari kerak bo'ladi. Shart shuki, mavzu bo'yicha kim ko'p so'z topsa, u ball (yulduzcha) to'playveradi. O'yin so'ngida ballari (yulduzchalari) ko'p bo'lgan bola g'olib bo'ladi. Masalan, tarbiyachi: "Yovvoyi hayvonlar", desa, bolalar: "Fil, ayiq, bo'ri, tulki..." kabi bilganlarini aytadi. Tarbiyachi: "Multfilmlar", deydi, bolalar: "Zumrad va Qimmat", "Maugli" "Alpomish"; tarbiyachi: "O'quv qurollari" desa, tarbiyalanuvchilar: "O'chirg'ich, daftar, qalam, sirkul..." va hokazo deydi. Tarbiyachi qushlar, uy hayvonlari, ertak qahramonlari, suv havzalari va boshqalarni o'rtaga tashlayveradi, bolalar javob topaveradilar. Mazkur jarayonda bolalarning fikrlashi tezlashadi, so'z boyligi ortadi, xotirasi charxlanadi, bilimi ortadi.

Xullas, bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va ularni bunga yo'naltirishda badiiy asarlar bilan bir qatorda har xil didaktik o'yinlarning ham o'rni beqiyosligiga yuqorida taqdim etilgan o'yinlar mi-solida amin bo'lish mumkin.

Makhfuza RAKHMANOVA,
Uzbekistan State University of World
Languages, teacher

USE OF EFFECTIVE STRATEGIES IN WRITING CAUSE AND EFFECT ESSAYS


This article discusses the use of effective strategies of writing a cause and effect essay. It gives necessary recommendations on designing learner-centered approach to teaching and active involvement of students in the learning process. In addition, it suggests practical examples of building the structure and organization of essays.

As we know, it is not so difficult to write academic essays if we are aware of their purpose and basic structure.

Moreover, we should have to take into account the important elements of essays, such as the structure, organization, coherence and cohesion as well. If a writer is sure of the purpose of writing, it will be much easier to create a successful essay. For writing cause and effect essay, we should explore the "why" or "how" of a situation. There are two body paragraphs in cause and effect essays after the introduction. The first body paragraph is about causes of a situation; the second body paragraph is focused on the effects of the problem. You may give three or more causes and effects of the problem. The concluding paragraph follows after the body paragraphs, where you may restate the opinions given in the introduction.

In the introduction part of the essay, it would be better to start with a hook to grab reader's interest. Usually some quotations, interesting facts, rhetorical questions or metaphors can be used to begin the paragraph. After reading your opening statement, the readers decide to continue or not, so you should provide very powerful and persuasive ideas.

In this article I am going to teach you how to organize cause and effect essays with some examples. It is possible to write causes and effects of the problem or we may plan them separately as well. Let's choose the topic "The causes and effects of family divorce". The first sentence of the introduction is an opening statement. As I have mentioned it is the most important part of the essay. Here we may bring an interesting fact, quotation or even jokes to attract readers' attention. For example, to start with an interesting fact:



The most commonly cited statistic states that one in every four families will face divorce.

The following quotation can be used:

Divorce is not such a tragedy. Tragedy is staying in an unhappy marriage, teaching your children the wrong things about love. Nobody ever died of divorce.

Jennifer Weiner

Using a joke is also interesting:

"What do a hurricane, a tornado, a fire, and a divorce have in common? They are four ways you can lose your house!"

Before writing an essay it is a good idea to brainstorm or gather several useful ideas and phrases related to the topic. For example, the teacher may use any effective graphic organizers, such as fishbone or T-chart. Here I would like to share warm up ideas with you by using a fishbone diagram. The teacher may elicit some ideas from the students. Firstly, the causes of the situation can be gathered and discussed, after that they may brainstorm some effects of the case.

Another effective technique is T-chart, which can also be used to brainstorm the ideas of students. On the right side of the graphic organizer the causes of the issue can be written, on the left side there are effects.

Three causes can be:

- 1) marriage at an early age;
- 2) financial problems;
- 3) substance abuse.

Then three effects of the problems can be given:

- 1) emotional effects
- 2) relationship effects
- 3) financial effects

In order to organize a learner-centered atmosphere, the teacher may divide the students into two groups, one group should write the causes of family divorce and the second group about the effects of it. Another effective method of designing the task is to divide the students into four groups:

- 1) The first group – introduction

2) The second group – body paragraph (causes of the problem)

3) The third group – body paragraph (effects of the problem)

4) The fourth group – concluding paragraph

There will be three or four students in each group, each student should create a sentence. Of course, they should pay attention to the coherence and cohesion of the paragraphs. The teacher may provide some cohesive devices for the learners to use while connecting the sentences. There are several cause linking words, such as: *because, due to, one cause is, another is, since, for, first, second*.

As for the effects, such transitional words can be used as: *consequently, as a result, thus, resulted in, one result is, another is, therefore*.

As far as I am concerned, providing with all necessary elements of writing essays will be very productive for the learners to create well-written essays. Because while working in groups they will share ideas, help each other, listen and learn from each other, give feedback, try to respect each other's opinions and work collaboratively. The teacher's role is just to monitor and control them by approaching to each group and giving some useful guidance. After the groups have finished their writing, they may be invited to the board to write their parts of the essay. Each group should write on the board what they have created and other groups may copy it. Then they will have a whole essay ready and the teacher may provide some corrections, such as grammatical or spelling errors. Here the teacher may rely on learners' help as well and this will be more productive. The most important thing is that the teacher should involve each student into the learning process. Only by doing this, they will achieve effective results. As the Chinese proverb says:

Tell me I forget,

Show me I remember,

Involve me I learn.

Here I am going to share a cause and effect essay sample with you:

"The causes and effects of family divorce"

"What do a hurricane, a tornado, a fire, and a divorce have in common? They are four ways you can lose your house!" It is expressed as a joke, but in fact no one wants to break their marriage and suffer from it. However, it is a life, everything may happen even in a happily arranged families. As we know, there will be

some negative effects not only on the divorced couples but also on their children after the divorce. In this essay we'll discuss the causes and effects of family divorce.

The causes of family divorce can be different. For example, in some cultures it is highly appreciated to tie the knot at an early age and the married couples don't feel any responsibility. The decision is usually made by their parents. Having a close relationship, avoiding financial problems or other factors play an important role here. Consequently, such kind of marriages will soon face a tragic end. Another cause may be strong abuse of married couples. Mostly men may have heavy addiction to alcohol drinks, drugs or cigarette smoking, as a result, it will negatively affect not only on family budget but also on the relationship between husband and wife, or even their children. Such kind of parents will influence on their children badly and they may have big problems in their work places as well. It will have serious consequences and be a cause for family divorce.

The emotional, financial and relationship effects can be observed after the family breakdown. The effects that one is worse than others may follow gradually, remaining a huge nervous breakdown after it. Speaking about emotional effect of it, both separated couples will undoubtedly suffer from this unpleasant situation. They start to fight for a custody because both of them want to take care of the children. In some societies family divorce is accepted negatively and some rumors will be swirling about divorced pairs. This is also nerve-wrecking experience that one can imagine. Another offensive effect is financial, which is considered to be crucial especially for the mothers. It is totally true that most men refuse paying alimony and it will be tough for the mothers to support the children alone. It is financially stressful if the divorced woman is not working anywhere. Of course, there may be some financial aid by the government, but it is not enough to cover all the needs of the family.

All in all, family divorce is not so satisfying experience, which remain such harmful effects after it. For that reason, married individuals should keep in minds all negative impacts of this situation and try to save their relationship for the sake of their children. If it is not possible to have warm feelings between husband and wife, the divorce is the only solution of this problem. However, they should separate from each other acting honestly considering both legal and human rights. No one should suffer from this unpleasant event.

References

1. Skillful reading and writing. Mike Boyle and Lindsay Warwick, 2014.
2. The writer's workplace with readings. Sandra Scarry and John Scarry. – pp. 432, 6th edition, Thomson Wadsworth, 2008.
3. Academic writing. Stephen Bailey. –pp.109-111, New York, 2011.
4. <https://writemyessay4me.org/blog/cause-and-effect-essay>
5. <https://www.eapfoundation.com/writing/essays/cande>
6. <https://www.slideshare.net/mobile/hacersivil/cause-effect-paragraph-32046555>



Shakhnoza SULTANOVA,

Tashkent State University of the Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi, teacher

LINGUISTIC PRINCIPLES OF COMPILING GRAMMAR TERM E-DICTIONARIES

Complying with a linguistic approach to terminology, according to which terms are seen as lexical units with specialized meaning, the findings show a far-reaching impact of English not only on grammar terminology but also the entire lexical system of the Uzbek language. In order to counteract the negative consequences of such a trend two measures require high priority: the standardization of the Uzbek terminology and higher-quality lexicographic work. [1] Consequently the paper deals with theoretical and practical aspects of lexicographic codification of English-based linguistics terms in Uzbek within the framework of basic principles relevant for general bilingual lexicography.

Of central importance to specialized lexicography is the issue of defining the concepts of *term* and *terminology*. Given that there is no generally accepted definition of these terms, this paper is grounded on the linguistically-based approach, according to which terms are seen as lexical units with specialized meaning. However, this does not mean that terminology is a subdiscipline of linguistics, since it is unique in its use of general lexical resources. [2] Consequently, a term is a lexical unit which acquires terminological meaning when it is activated by the pragmatic characteristics of the discourse, whereas "terminology is an inter-disciplinary field of enquiry whose prime object of study are the specialized words occurring in natural language which belong to specific domains of usage". [1] The implications of these linguistically-based definitions in lexicography are reflected by the fact that a term is no longer treated as the name of a concept but rather as a lexical unit of a natural language. Seen in this light, the existing practice in English-Uzbek lexicography, which used to be oriented towards presenting word lists in the two languages, is no longer satisfactory. Therefore, in addition to English and Uzbek terms, an English-Uzbek dictionary of linguistics terms should also contain: definitions of meaning, grammatical information, cross-references, and examples of use. [2]

The topic of the English-Uzbek dictionaries in the era of a globalizing world brings the question of English-Uzbek language contacts to the forefront, since knowledge transfer from the prestigious English-speaking region into Uzbek is carried out by borrowing concepts together with their names. As a result, Uzbek has been exposed to an uncontrolled influx of English words, especially terms, many of which are not only unjustified but also incorrectly adapted in the lexical system of Uzbek. Even though a large number of studies

examine the issue of Anglicization, not many of them address the Uzbek language in the field of linguistics. Given that the lexical borrowings from English into Uzbek are adapted through transshipping and translation, it is not rare that a single concept has several names in Uzbek, which more often do not comply with the linguistic standard of English. Thus Uzbek is increasingly faced with the requirement for linguistic standardization in regard to the adaptation of lexical borrowings from English. This involves not only a corpus-based theoretical analysis of the linguistics register, but also concrete proposals concerning English-based standard solutions in Uzbek and their dissemination in the language community. Communication of this information to the wider public could be established by means of an English-Uzbek dictionary of standardized linguistics terms, preferably in electronic form owing to its fast and easy accessibility. Theoretical aspects of standardization of English-based linguistics terms in Uzbek were elaborated in a previous study, which has resulted in a proposal of the model that includes six principles listed in descending order of priority. They are: bi-univocity, transparency, systematicity, productivity, concision, and frequency. The principles are briefly defined and exemplified in the text which follows. [4]

Bi-univocity implies the requirement that the term should represent only one concept in a register, e.g. *coach* ≠ *trainer* > TRENER ≠ *murabbiy* – *treynner* but not TRENER, which used to be the same translation equivalent of two English terms. Transparency implies the requirement that the concept a term designates can be inferred without a definition and that it should be motivated etymologically, semantically, or morphologically [3], e.g. *diving* > *mashina haydash* but not SUVANJE (archaic), which existed before the process of standardization. Systematicity is the requirement that a term must be in accordance with the linguistic standard of Uzbek on the level of: orthography, phonology and morphosyntax, e.g. *playoff* > *pleyof* but not PLAYOFF since this is a recently borrowed Anglicism in Uzbek, which is adapted according to the acoustic impression. Productivity is the characteristic of the language system which enables communicators to encode and decode the maximum number of higher-order terminological units [5], e.g. *held ball* > *to'pni tutib qolmoq* but not to *hold ball* and *staying* which existed before, since the standard term allows several derivations of the modifier *tutmoq* (*tutdi*, *tutyapti*, *tutmoqchi*), whereas the same is not true of the other term. Concision implies that a term

should not be too long, due to the fact that undue length violates the principle of linguistic economy, e.g. *offending children* > *bolalarni xafa qilib qo'yish* but not *bolani xafa qilish* which existed before. Eventually, following Bowman, "the more frequent term should be preferred over its competitors", e.g. *penalty kick* > *penatli* but not *jazo zarba* with lower frequency of use.

Bearing in mind pedagogical prospects of an English-Uzbek dictionary of grammar words terms in

building contact linguistic competence, it is necessary not only to intensify lexicographic efforts in the field of linguistics, but also to introduce lexicographic contents into the teaching process of ESP for students of linguistics. Eventually, following the user-centred approach, further lexicographic work in corpus-poor languages such as Uzbek necessitates a greater involvement of language engineering technology in order to achieve efficient and high quality work.

References

1. Antia, B. A. (2000). Terminology and language planning: An alternative framework of practice and discourse. Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.
2. Hartmann, R. K. (2001). Teaching and researching lexicography. Harlow: Pearson Education Limited.
3. Hayati, M., & Fattahzadeh, A. (2006). The effect of monolingual and bilingual dictionaries on vocabulary recall and retention of EFL learners. *The Reading Matrix*, 6 (2), 125-134.
4. Prčić, T. (2014). Building contact linguistic competence related to English as the nativized foreign language. *System*, 42, 143-154.
5. Yong, H., & Peng, J. (2007). Bilingual lexicography from a communicative perspective. Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Co./John Benjamins North America.

Shakhzoda GULYAMOVA,

Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, teacher

SOCIO-PRAGMATIC ANALYSIS OF MONOLOGUE DISCOURSE

There are distinctive definitions of pragmatics, which each language specialist characterizes from his/her point of view. The cutting edge utilization of pragmatics is credited to Charles Morris, who concerned to the use of signs or semiotics in language and characterized it as "the connection of signs to mediators". [3] Within the same setting, in his book "Pragmatics", Levison claimed that pragmatics ought to be concerned as it were with standards of language utilization, and have nothing to do with the depiction of linguistic structure encoded within the structure of a language. [2] In this manner, pragmatics centers on examining the connection between language and setting.

According to Yule, pragmatics concerns with examining the speaker meaning as communicated as by the speaker and deciphered by the audience or the reader since pragmatics is in talked and composed setting. On the other hand, Levison, in his book "Pragmatics", expressed that pragmatics centers on examining the connection between language and setting as a way to get it the talked or composed discourse. The extreme objective of pragmatics as a subfield of etymology is the capacity of a listener to a reader to comprehend the deliberate of a speaker in a particular social circumstance. In other words, pragmatics concerns with considering how the setting shapes the meaning in which it centers on examining the use of language in any communicative

setting decided by the conditions of society. Socio-pragmatics inside talk centers on the meaning in which it is impacted by stylistics and its hypotheses concerning with a speaker. [3]

Language specialists characterized pragmatics as "the thought about the utilized signs by a questioner in his communicative handle and the components that influence communication and interaction with others within the expression of context". [4]

Pronouns are considered as one of the parts of discourse getting their meaning from other thing expressions in a sentence. The part of utilizing the individual pronouns is to encode the part of a speaker and his recipient within the setting of an expression. In this manner, they can get their meaning from the thing expressions for which they substitute.

Fillmore expressed that individual deixis includes an understanding of how phonetic shapes are chosen due to the language user's recognition and his mindfulness of his interlocutor's capacity to screen his stances and movements. [1] Accordingly, individual deictic expressions center on encoding of the part of the members of the discourse occasion. Jesperson classified the pronouns into three classes of individual pronouns: the primary individual (speaker), the moment individual (the individual is talked to) and the third individual (the individual or thing is talked of). [2]

First-person deictic expression (I, we) alludes to a speaker, either speakers or a gather of speakers which it communicates in solitary pronouns (I, me, my, mine, myself) and plural pronouns (we, us, our, our own, ourselves)

The moment individual deictic expression could be a reference to an individual or a gather of people who are distinguished as recipient, such as: you, yourself, yourselves, your. The third-person deictic expression may be a reference to a referent such as a speaker or a recipient who are absent from the setting of expression, he, she, and they, him, himself, her, herself.

Taking into consideration the Uzbek content, the analyst ought to be mindful of the contrast between Uzbek and English syntactic framework of pronouns in which Uzbek linguistic pronouns have separated person pronouns and joined to pronouns. Pronouns are characterized by being unclear or equivocal whether they have a place to the primary individual or moment individual or third individual. There must be something to disambiguate them or dispense with their unclearness. As for the primary individual and the moment individual, they can be recognized by the truth that their referents are display at the time of expression; one is display and talking and the other is show and tended to by the speaker straightforwardly. As for the third individual pronoun, its referent is obscure since he is not one or the other display nor witness. Hence, the third individual ought to have something to distinguish its referent. It ought to be famous that the elucidation of the third individual is distinctive from that of present day etymology, where the referent is not one or the other neither the speaker nor the recipient; he may be display or witness but he isn't a member within the discourse occasion. Agreeing with depending on the Uzbek content, the analyst intends to say the contrasts between Uzbek and English pronoun frameworks within the taking after chart. The Uzbek pronoun frameworks are isolated into two sorts: isolated and joined. However, the researcher takes into consideration the Uzbek divisions and intends to mix them to be suitable with the English division of pronouns.

Monolog as a term comes from the Greek words "monos", which suggests "alone," and logos, which suggests "speech." It may be a scholarly gadget, that's the discourse or verbal introduction given by a single character to specify his or her collection of contemplations and concepts out loud. Agreeing with Ridges, a monolog could be a self-address, a talk of one speaker with no desire of a reaction from a recipient. Monologs take numerous shapes: from the 'talking aloud' to oneself in private, to the arranged open address. Numerous exchanges can contain extends of discourse by a single speaker which are really monologs: depictions, accounts, jokes and confessions, for case. Monologs are more common within the composed medium, particularly in show: exceptionally few sorts of composed talk, other than let-

ters, have a coordinate desire of a reaction; indeed, in spite of the fact that articles, surveys, instruction flyers, etc., are composed with a readership in intellect. [5]

There are two distinctive sorts of monologue:

Dramatic Monolog. In this sort of monolog, a character talks to the quiet audience. This sort has dramatic qualities; consequently, it is known as an emotional monolog, and is as often as possible utilized in poetry.

Inner monolog. In anecdotal writing, an inner monolog may be a sort of monolog that shows the contemplations, sentiments and affiliations passing through a character's intellect. In other words, the inner monolog is the expression of a character's considerations, sentiments and impressions in a story. For instance, in Abdulla Kahhar's novel, there is one prevailing voice, the voice of Habiba in which she depends on utilizing the singular pronoun (I) with its sorts agreeing with the examination on the Uzbek content. Habiba is the hero of the novel who composes her diaries to tell her daughter about all things, particularly the truth of her marriage. Habiba misplaced her identity after her experience with wrong cherish and her battle with cancer. To speak to her cherish story, she conveyed the individual deictic expressions expectation through her inner monolog centering on the primary (I, me, my) and moment deictic expression (you). The hero Habiba imaginatively sent the individual deictic expressions to present herself through her inner monolog.

You are my coincidence that you intentionally planned on your own. I thought that destiny gathered us in an ordinary love story; An Eastern migrant girl who abided by her father's choice of her study field and an ambitious young man seeking life in big cities, and so we met (p.12)

The writer effectively employs the sorts of individual deictic expressions to present her cherish story through her inner monolog. Depending basically on the primary (we, us) and moment individual deictic expressions (you, your) Habiba makes a difference to depict the adore story and how her spouse arranged to meet her since the honorific social and political circumstance among Uzbek community. In spite of utilizing the inner monolog with total numbness of her personality, hence, she deletes her identity before her father and her love.

I did not smile back at you, and in a challenging way, seemed to be emotional, I added elongating my words: "My mother is a Noble woman who is descended from Mohammed's (SAW) lineage. Her ancestors had arrived in our country in Al-Motasim's reign and were labelled "The Nobles" and sometimes "The Masters". But my father was born a master, though he is not related to the Arab" (p.17). Habiba is glad of the root of her family and her predecessor, and considers her spouse carefully looked for to reach her due to her predecessors. She depends on sending the primary and moment deictic expressions to bolster her point of view. She depends on first-person deictic expressions (I).

References

1. Fillmore, C. (1997). Lectures on Deixis. Stanford: CA: CSLI Publications.
2. Jespersen, O. (2006). Essentials of English grammar. London: Routledge.
3. Levinson, S. (1983). Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Nahala, M.A. (2002). New Horizon in Modern Linguistic Research (1st ed.). Cairo, Egypt: Al-Adab Library.
5. Wales, K. (2011). A Dictionary of Stylistics (3rd ed.). London and New York: Routledge.

Shahnoza GIYAZOVA,

Buxoro shahridagi 17-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi;

Qunduz GADOYEVA,

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi 8-ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

NUTQIMIZ BOY VA MAFTUNKOR

Insonning ma'naviy olami, qalb go'zalligi uning nutqida o'z ifodasini topadi. Zohiriy va botiniy dunyo nutqda birlashadi. Shunday ekan, inson o'z nutqiga e'tiborli va talabchan bo'lishi, nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlarni bilishi hamda o'z nutqini ulardan tozalashi zarur. Quyidagilar esa nutq sofligiga putur yetkazuvchi omillar hisoblanadi:

- a) varvarizmlar (chetdan kirgan so'zlarni noo'rin, haddan tashqari ko'p ishlatish);
- b) dialektizmlar (shevaga xos so'zlar);
- d) vulgarizmlar (haqorat, so'kinch so'zlar);
- e) evfemizmlar (aytilishi qo'pol va noloyiq bo'lgan so'zlar).

Bundan tashqari, so'zlashuv uslubida ba'zan "xo'sh", "demak", "ya'ni", "shu", "o'sha" kabi so'zlarning nutqda noo'rin takrorlanishi kuzatiladi. Bu esa tinglovchida zerikish kabi salbiy kayfiyat hosil qiladi.

O'quvchilarning mana shunday unsurlardan ko'r-korona foydalanishiga yo'l qo'ymaslik, ular nutqining sofligi va boyligini ta'minlash bugungi kunda ona tili va adabiyot fanining dolzarb masalalaridan biri sanaladi. N.Mahmudov, Y.Odilov, G.Ziyodullayeva hammuallifligida nashr etilgan 11-sinf Ona tili darsligiga nutqning sofligi, uni boyituvchi vositalar haqida yetarlicha ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, mustahkamlash uchun keltirilgan mashqlarda badiiy parchalarning berilishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar mashqlarni bajarish jarayonida ham yangi mavzuga oid bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlaydilar, ham ma'lum bir asar qahramoni bilan tanishib estetik zavq, ma'naviy oziqa oladilar. Qahramonlarning nutqini tahlil qilish orqali ularning kamchilik va yutuqlarini ham o'rganadilar. Nutqning sofligi mavzusida berilgan S.Ahmad qalamiga mansub badiiy nutq namunasi fikrimizga dalil bo'la oladi:

54-mashq.

– Xo'jayin, shu, shu, desangiz. Shu... bizdi mashina dovonning naryog'ida, shu, radiatori teshilib, shu, qolib ketibdi.

– Qanaqa mashina? – dedi hayron bo'lib Mirvali.

– Hozir Toshkent tomondan, shu... kelayotgan, shu, bir "Jiguli" garajga kelib shundoq dedi.

– Qanaqa mashina, deb so'rayapman.

– Shu... asalchining yukini Toshkentga, shu, olib ketgan mashina, shu...

– Nega menga aytasan, garaj mudiriga ayt.

– Shu, xotini to'lg'oq tutib, shu, kasalxonaga olib ketgandi.

– Bo'пти, bosh mexanikka ayt.

Qorovul shu deb yana nimadir demoqchi edi, Mirvali qo'l siltab, "ketaver" ishorasini qildi.

Ushbu parchada "shu" so'zining noo'rin takroriga yo'l qo'yilganligi, natijada nutqning kambag'allashib qolganligini o'quvchi oson tushunadi. O'z nutqida ham bu holat yuz berishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi va nutqini nazorat qila boshlaydi.

Darslikda bunday badiiy parchalarning ko'plab berilishi nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar haqidagi bilimlarning ko'nikmaga aylanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga o'quvchilarning badiiy asarlarga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi. Asar qahramonlariga ularning nutqi orqali baho berishni o'rganadi. Nutqning inson shaxsiyatini namoyon etishdagi ahamiyati katta ekanligini anglaydi.

Ushbu darslikda ko'plab so'z, so'z birikmalari va iboralarning ma'no qirralari, ma'nodoshlari, variantlari va o'xshashlarining keltirilishi esa o'quvchining lug'at boyligi oshishi, so'zni o'z o'rnida qo'llash ko'nikmasi shakllanishiga xizmat qiladi:

– yetti uxlab tushiga ham kirmaslik – mutlaqo o'ylamaslik, kutmaslik;

– yetti uxlab tushida ko'rmaslik – hech qachon ko'rmaslik;

– yuragi tars yorilib ketayozdi – sabr-chidami tugab, xunob bo'lib ketmoq;

– yuragi qoq yorilayozdi – sevinib juda kuchli haya-jonlanmoq.

Bu iboralarning shakl jihatdan farqi faqat qo'shimcha yoki birgina so'zda bo'lsa-da, ularning ifodalaydigan ma'nolari orasida katta tafovut bor. Bu iboralarning birini bilgan kishi ikkinchisi o'rnida ham aynan shuni ishlatadi va bu uslubiy xato hisoblanadi. Bu kabi iboralarning ko'plab berilishi o'quvchi nutqini boyitish bilan birga ularni o'z o'rnida qo'llash imkoniyatini ham beradi.

Nutq boyligini ta'minlovchi vositalardan leksik, semantik, grammatik, intonatsion vositalar alohida o'rin tutadi. Boy, shirali nutq tuza bilish uchun so'zlovchining, eng avvalo, so'z zaxirasi boy bo'lmog'i kerak. O'z nutqining boy va ta'sirchan bo'lishini istagan har bir

o'quvchi o'z lug'at boyligini kengaytirib borishi zarur. Nutqni boyitishda, ayniqsa, ma'nodoshlikning o'rni beqiyos. Ma'nodosh so'zlar bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so'zlardir. Sinonimlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalash, nutqni bezash, ta'sirchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinonimlik faqat so'zlar orasida emas, balki morfologik va sintaktik birliklar orasida ham yuz bersa, nutq yanada ko'rkamlashadi. Fikrimizni darslikdagi 62-mashq orqali dalillaymiz:

62-mashq. Matnni o'qing. Leksik va sintaktik ma'nodoshlikning nutq boyligini ta'minlashdagi ahamiyatini tushuntiring.

O'shanda his-hayajonga bandi bo'lgan Erman qasam zamiridagi o'ta og'ir, o'ta zalvorli yukni dastlab to'la his etmagan, guldor kigiz ustida bamisoli baqadek tosh qotib o'tirgan, hayratdan tosh qotgan Itolmasning behad quturishini va uning g'azabkor bo'kirishidan tog'lar boshi ko'chib, olam ostin-ustin bo'lib ketishini kutgan. Biroq u kutgan hol yuz bermadi – Itolmas quturmadi. U biror muddatdan so'ng xayolini jamlab, jilovlab, avvaliga nim tabassum qildi, so'ng kuldi. (N.Norqobilov)

Leksik ma'nodoshlik:

og'ir – zalvorli
o'ta – behad
jamlab – jilovlab
nim tabassum qildi – kuldi
dastlab – avval

Sintaktik birliklar orasidagi ma'nodoshlik:

bamisoli – dek
tosh qotib o'tirgan – hayratdan tosh qotgan
boshi ko'chmoq – ostin-ustin bo'lib ketmoq

Darslikning 66-mashqida berilgan matn o'quvchining hukmiga havola etilganligi ayni muddao bo'lgan. Berilgan matnlar orqali o'quvchi nutqning boylik sifati qaysi uslubda ahamiyatli ekanligini mulohaza yuritgan holda o'zi aniqlaydi, mushohada qiladi.

O'rik

Qantak o'rik
Otim bor,
Xo'p mazali
Totim bor.
Mag'izimga berkitgan
Qantim bor,
Novvotim bor.

(E.Vohidov)

O'rik

O'rik – ra'noguldoshlar oilasiga mansub mevali o'simlik. Vatani – O'rta Osiyo. O'zbekistonda, asosan, oddiy o'rik turi ekiladi. Mevasi etli, yumaloq, tuxumsimon, oq, sariq, qizg'ish; danagidan ajraladigan, ajralmaydigan xillari bor; shirin, shirinnordon. O'rik – yaxshi asal beruvchi daraxt. (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi)

Matn bilan tanishgan o'quvchi badiiy uslubga jimjimadorlik, o'xshatish, ohangdorlik xosligi, shular orqali nutq boy va ta'sirchan bo'lishi, ilmiy-ommabop uslubda esa oddiy ifodaviylik matnni tushunarli qilishga xizmat qilayotganini yaxshi anglaydi. O'rikning eng shirin narsalarga qiyoslanayotganidan nutqning boyligini ta'minlovchi vositalar badiiy uslubda keng imkoniyatlarga ega ekanligi va shu uslubda ko'proq yuzaga chiqishini tushunadi.

O'quvchining so'z boyligi ortishi bilan birga uning shu boylikdan o'rinni foydalanishi ham muhim jihat hisoblanadi. Darslikda bu muammo ham yetarlicha o'z yechimini topgan. Nutqning jo'yaliligi – so'z va iboralarni o'z o'rnida qo'llash, ya'ni bir so'zning bir nechta muqobilidan nutqqa keraklisini olib kirish demakdir. Masalan, yuz so'zining bir nechta variantlari bor: oraz, chehra, ruxsor, uzor (ijobiy bo'yoqli), aft, turq, bet, bashara (salbiy bo'yoqli) kabi. Biz ijobiy fikr bildirganimizda "chehrasi ochildi", "orazing oydek", "orazi oy", "gul ruxsor" kabi birikmalardan foydalanamiz. Ammo salbiy fikrni ifodalaganimizda "chehrasi sovuq" birikmasini qo'llashimiz jo'yalilikning buzilishiga olib keladi. Bu o'rinda "turqi sovuq" deyish o'rinni. Hatto oraz, ruxror, uzor so'zlari badiiy uslubga xos bo'lib, bu so'zlarni so'zlashuv uslubida ijobiy ma'noda bo'lsa-da qo'llash no'rin va jo'yalilikning buzilishidir. So'zlashuvda ijobiy bo'yoqdor so'z sifatida chehra yoki betaraf bo'lgan yuz so'zi ishlatiladi. Uslublar o'rtasidagi muvozanatni, chegarani saqlay bilish nutqning jo'yaliligini ta'milaydi.

O'quvchida yashiringan ichki qobiliyat, imkoniyatni yuzaga chiqarish bugungi ta'limning bosh vazifasidir. Darslik bilan yaqindan tanishish va mukammal o'zlashtirish o'quvchilarning ruhiy-ma'naviy olamida muhim yuksalish bo'ladi. Xullas, bugungi kun nuqtayi nazari-dan jadal rivojlanish jarayonida o'quvchilar salohiyatini inobatga olgan holda darslikda berilgan mashqlar o'quvchilarning nutqi boy, go'zal, jozibador bo'lishini ta'minlaydi va nutqimizni har qanday o'rinsiz takror birliklardan tozalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Mahmudov, Y.Odilov, G.Ziyodullayeva. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari o'quvchilari uchun darslik. Birinchi nashri. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
2. N.Erkaboyeva. 11-sinf uchun Ona tilidan universal qo'llanma. – Toshkent: Yosh kuch, 2019.
3. N.Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami, topshiriq va savollar. – Toshkent: Yosh kuch, 2019.

Gulnoza ERNAZAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
filologiya fanlari nomzodi

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIGA XOS MEDITATIVLIK

Shoir – ezgulik kuychisi. Zulmatga cho'mgan jamiyatlar ham shoirlar millati va xalqi qalbiga o'zining masihvash so'zlari bilan tiriklik urug'ini qadagan, ularga yaxshi so'z, ezgu so'z bilan umid g'unchalarini taqdim etgan. Cho'lpon 1920-yillardagi murakkab muhitda o'zining go'zal she'rlari bilan ezilgan, ko'ngli cho'kkan yurtdoshlari kayfiyatini ko'tarishga harakat qildi. Ko'p hollarda shoirning "men"i ijtimoiy mazmun kasb etdi. Meditativ she'riyatning muhim bir qirrasida shunday ulkan ijtimoiy mazmun ham ba'zan aks etishi lozim. O'zbek meditativ she'riyatida muhim o'rin tutuvchi yagona shaxs fojiasi talqini bilan bir qatorda milliy, ijtimoiy, umumbashariy muammolar ham uyg'unlik kasb etganligining guvohi bo'lamiz. M.Abdulhakimning "Mo'min qobil" she'ridagi kinoya ruhi shunday holatning metaforik talqiniga misol bo'la oladi:

*So'l desangiz, yetar – so'laman,
Ochil deb aytsangiz – ochilaman.*

*Yig'il desangiz – jam bo'laman,
Sochil desangiz – sochilaman.*

*Yon desangiz yonay shu zamon,
O'ch desangiz darrov o'chayin.*

*Savladingiz kecha ko'p yomon,
Qamchingiz og'rimadimi, xo'jayin?! [1:256]*

Ushbu she'rda shoir mustamlaka davrida paydo bo'lgan mutelik psixologiyasini tasvirlash orqali o'zlik va g'ururini yo'qotgan shaxs fojiasini meditativ mushohada qilmoqda. She'rga metaforik asos bo'lgan narsa xalqona kulgi madaniyati, albatta. Xalq orasida Nasriddin afandiga nisbat berilgan ba'zi latifalarda uchrovchi ushbu motiv shoir uchun bir fon, ya'ni maqsadni amalga oshirish uchun metaforik manba bo'lib xizmat qilgan xolos. Albatta, bu yerda jamiyatda yashayotgan odamlar orasida aynan shu voqea ro'y bergani yoki shunga o'xshash odamning yashagani muhim emas. Shoir lirik psixologizmni bu qadar maksimal darajaga ko'tarar ekan, bu bilan hayotda mavjud mutelik psixologiyasi ko'lamini kengaytiradi. Mutelikning turli shakl va ko'rinishlarini tipiklashtiradi. Natijada shaxs fojiasini meditativ planda aks ettirishga erishadi. Adabiyotshunos D.Quronov ta'biricha, meditativlikka asoslangan she'riyat keyingi davrlarda "ko'ngil she'riyati" deb ham nomlanmoqda. Shuning uchun ham olim "meditativ lirika-ning predmeti shoir ko'nglidirki, bunda shoir ko'nglidan kechayotgan oniy kechinmalar, doim ham mantiqiy idrok etish va tushuntirish mushkul tuyg'ular" ifoda qilinishi, shuningdek, "lirik meditatsiya (hissiy mushohada, his-tuyg'uga yo'g'rilgan mushohada) meditativ she'riyatning asosini" tashkil etishini ta'kidlaydi. [3:139]

"Gujumlar qo'shig'i" she'rida esa nabotot tilidan ajdodlar ideali va uni unutgan xalq, o'zligidan uzoqlashayotgan millat holati haqida mushohada yuritadi. She'ning boshida "Xorazmda gujumlarni – "shahar mo'ylovdori" – deb atalgan zararkunandalar g'ajib bitirmoqda" degan izohli epigraf keltirilgan. Haqiqatan ham o'sha yillar Xorazm vaqtli matbuotida bu haqida xabarlar berilgan. Bu haqida xorazmlik ko'plab shoirlar she'rlar yozgan. Fozil Zohid, Shuhrat Matkarimning bu haqida maxsus maqolalari ham bor. Ammo M.Abdulhakim ushbu tabiat hodisasidan tamomila o'zgacha meditativ muammo yasaydi, muammodan o'ziga xos xulosa chiqaradi. She'rdagi badiiyat kuchini poetik kinoyaga qaratadi:

*Balki so'nggi bor shovullamoqda
Bizning bag'rimizda yashil oh.
Endi homiy bo'la olmaysiz bizga,
Sizga biz azaldan bo'lsakda panoh... [1:16]*

Voqelikda daraxtning insonga "panoh" bo'lishi mumkin emas. Aslida odam o'zi ekan har qanday ko'chatni parvarishlaydi, tabiiy ofatlardan asrashga harakat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda shoir gujum metaforasi orqali Xorazm bag'rida qarovsiz qoldirilgan osor-u atiqalar, buyuklar maqbarasi va ularning ma'naviy xotirasiga e'tibor qaratadi. Ajdodlari ruhini chirqiratayotgan avlodlarga kinoya qiladi. Quyidagi band lirik "men"ning psixologik vijdon o'rtanishi va shu asnoda yuzaga kelgan kinoya ruhini yorqin ifodalaydi:

*Nahot soyamizda tebranmas beshik,
Takror pichirlashib kirmaymiz tilga.
A'zoyi badanimiz ilma-teshik,
Naq o'qqa tutilgan. [1:16]*

"Yovshan" she'ri xuddi shu konsepsiyaning davomiga o'xshaydi. Shoir tabiat metaforasini poetik zidlov yo'li bilan aks ettirar ekan, gujumlarga oid she'ridagi meditativ konsepsiyani yanada chuqurlashtiradi:

*Archa, senga oson, archa, senga maza,
Hamma fasl sening pushtipanohing.
Libosing yam-yashil xoh to'y, xoh aza,
Sovuq ham, issiq ham suyangan tog'ing.*

*Mening har bir novdam tezroq unib, o'sib,
Tezroq yashab qolish uchun oshiqqan.
Uzoq bir umrga yetmaydi ko'zim,
Mening hech kimim yo'q bahordan boshqa. [1:85]*

Ma'lumki, archa bizning hududimizda, ayniqsa, Xorazmda o'sadigan daraxt emas. Tuzum o'zgarishlaridan keyin mustamlakachilikning bir belgisi sifatida archa ekish, archa bezash, ular haqida she'r va qo'shiqlar

yoziq rasmga kirdi. Ham tabiiy, ham ma'naviy nuqtayi nazardan bu daraxt bizlarga "begona". Biroq shoirning iddaoli solishtiruv daraxtga tegishli emas. Bu yerda ham gujumdagidek metaforadan foydalanilgan. Ushbu metaforaning qamrov ko'lami shunchalar kengki, xohlang bundagi ikki daraxtni shaxs va jamiyatdagi ziddiyatlarga, istang erk va erksizlik, tuzum siyosatidagi g'oyaviy adolat yoki adolatsizlik muqoyasiga o'xshat-ing.

M.Abdulhakim o'zining meditatif mushohadalarini nafaqat semantik, balki stilistik priyomlarni yangilash bilan ham ifodalaydi. Bunda adabiy til me'yorlaridan chekinib, to'lig'icha o'g'uz-xorazm shevasiga murojaat qiladi:

*Rahmon qolib, shaytonino yon bardi,
Dil qushimo zaharlangan don bardi.
Dosh boshshimo solg'on kulfatlarinnin
Sal dotvadi, o'zi sasmiy jon bardi.*

Yoki:

*Yorosino dilni yorouloshdi,
Oppoq ko'nglim ozoploro buloshdi.
Porq qolmodi geja bilan gunduzdan,
Qoro ilon oq ilono cho'loshdi.*

Yoki:

*Sani so'vdim, go'rdim yurak to'yini,
Oylondiq bir Polvonyopni bo'yini.
Bir so'z bilan yenchib getding yurakni,
Muhabbat bu – urdi-qochdi o'yini. [2:224–225]*

Har uchala to'rtlik ham umumiy ko'rinishiga ko'ra muhabbat mojarolari haqida. Ularda yorning sevgisi, ma'shuqqa qaratilgan istig'nolari, dardlari aks etgan. Lekin bunda har bir mavzuga shoir o'zgacha rakursdan yondashgan, o'zgacha falsafani singdirgan. Shu tariqa

ko'rinishidan xususiy bo'lib tuyuladigan holat medita-tiv mushohada, o'ziga xos stilistik priyom yordamida meditatif-falsafiy xulosa bilan yakunlangan. Birinchi to'rtlikda Allohning rahmati qolib shayton vasvasasiga uchgan va o'z yoriga xiyonat qilgan ma'shuq haqida gap ketmoqda. Adabiyotshunos Ibrohim G'afurov yoza-di: "Ko'ngilning nozikligi aslida tengsiz boylik. U olamni tushunish va his etish boyligi. Ko'ngilning nozikligi hech istisnosiz atrofdagi barcha narsalar, barcha hodisalar va mavjud harakatlarga badiiy ko'z bilan, nafosat nigohi bilan qarashdir. Faqat qarash emas, balki eng oliy savi-yadagi nafosat nazari bilan baholashdir". [4:221]

Shuning uchun ham ma'shuqaning "dil qushi"ni za-harlangan don bilan jarohatlagani alohida urg'ulangan. Ammo qasos – Haqdan. Xoin o'z zahriga o'zi xo'rak bo'ldi, bir "dovtab", dovdarab o'zi ham sezmay jonini Haqqa topshirdi. Ikkinchi to'rtlikda ko'ngli yara yorning ma'shuqaga yara ulashgani haqida so'z boradi. Natijada ma'shuqaning oppoq, dardsiz ko'ngli azob-uqubatda qoldi. Uning uchun kecha-kunduzning farqi qolma-di. Go'yo bu qalbdagi qiyomat-qoyim qo'padiki, klassik shoirlarimiz qiyomat kunini shu tarzda tasvirlaydilar. Uchinchi to'rtlikda esa xorazmcha uslubda muhabbat falsafasining mohiyati aks ettirilgan. Ma'lumki, muhab-bat she'riyatning azaliy mavzularidan bo'lib, har shoir unga o'zicha ta'rif-u tavsif beradi. M.Abdulhakim bu to'rtligida muhabbatni "urdi-qochdi o'yini" tarzida sif-atlaydi. Darhaqiqat, xalq orasida ham "yuragidan uribdi", degan gap bor. Yuragidan urilgan, ishq jarohati bilan og'rigan oshiq o'z jarohatiga malham izlab yorning par-vonasiga aylanadi. Ma'shuq esa u yaqinlashgani sari qochadi. Mana shu qochdi-quvdi hayotning muhabbat haqidagi azaliy falsafasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhakim M. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. Abdulhakim M. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
3. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Ibrohim G'afurov. Hayo – xaloskor. – Toshkent: Sharq, 2006.

Tolib ENAZAROV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori

OLTIN BITIKLAR

Oltin bitiklar jumlasini adabiyotimiz tarixidagi noyob asarlarga nisbatan ham, nomlarga nisbatan ham, haligacha o'rganilmagan shevalarga xos dialektal so'zlarga nisbatan ham ishlatiladi. Qo'lyozma asarlar kabi nomlar ham, toponimlar ham xalqlarning azaliy qadriyati, ruhiyati, tili-yu dili bilan obrazli nomlanishlar orqali bir butun holda qadim tarix sahifalarida muhr-langani *oltin bitiklardir*. Ular insoniyat yana qancha ya-

shasa, shuncha vaqt davomida o'zining betakror maz-mun-mohiyatini, aniqrog'i, "oltin bitik"ligini namoyon qila oladi.

Oltin bitik termini quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- 1) topib aytilgan ma'nili, mazmunli ibratomuz fikr-mu-lohazalar;
- 2) qadimiy qo'lyozma asar;
- 3) noyob toshbitik;

4) xalq tiliga xos, lekin haligacha maxsus o'rganilib, yig'ib olinmagan dialektal so'zlar;

5) ulug' ijodkorlarning tanlangan asarlari;

6) kam miqdordagi qadimiy asar;

7) kam nusxali mukammal asar;

8) qadimiy va tarixiyligi bilan ham xalq tilini, ham xalq tarixini ulug'lovchi nomlar;

9) yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga mo'ljallangan zamonaviy, biroq har jihatdan mukammal va saylanma tipidagi asarlar.

Albatta, nom va obrazli nomlanishlar orqali shakllangan toponimlar, shuningdek, dialektal so'zlarimiz *oltin bitiklar* hisoblanadiki, ularning majmuyi esa *oltin bitiklar fondidir*. "O'zbekiston toponimlarining etimologik lug'ati – toponimlar tilsimi" ham *oltin bitiklar fondining* bir bo'limini tashkil etadi. [1] Quyida ular haqida to'xtalamiz.

O'zbek leksikografiyasida ayni vaqtgacha turli nom va turli mavzularda ko'p lug'atlar yaratilgan. Biroq "O'zbekiston toponimlarining etimologik lug'ati – toponimlar tilsimi" haligacha yaratilmagandi. O'zbek onomastikasi hamda uning bo'limlariga oid oldingi ilmiy va ilmiy metodik ishlarga, darhaqiqat, tanqidiy yondashib, tanqidiy baho berish vaqti keldi.

"O'zbekiston toponimlarining etimologik lug'ati – toponimlar tilsimi"ni shakllantirish uchun joy nomlarining etimologik tahlilini etimologik tadqiq tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirish lozim bo'ladi. Toponimlarni o'rganish qadim zamonlardan boshlangan bo'lsa ham, XX asrning 50–60-yillaridan boshlab ularning nomlanish asoslari, motivlari, motivatsiyasi, ba'zi bir nomlarning tavsifiy, tasnifiy, ensiklopedik talqinlari-yu, izohi va etimologiyasiga doir fikrlarni ilmiy asosda mukammal tadqiq qilish amalga oshirila boshlangan.

Oltin bitiklarning o'ziga xos majmuasi bo'lgan "O'zbek onomastikasi" XX asrning 20-yillaridan to XX asrning 90-yillarigacha shakllanish davrida bo'ldi. Onomastik (nomlangan) obyektlar boshqa turdagi obyektlardan ma'no, mazmun-mohiyat jihatidan ajratilayotgan, grammatik tahlil bilan onomastik va toponimik tahlil, leksik ma'noni onomastik, xususan, toponimik ma'nolardan ajratish masalalarini farqlash jarayonlari bo'yicha ilmiy kuzatishlar yakunlanayotgan bir davr edi.

Oltin bitik, ya'ni toponimlarning etimologik tadqiqi *muammo – tadqiq – taxmin – tahlil – talqin – yechim* shaklida olib borilishi bilan ularda mamlakatimizdagi xalqlarning milliy ruhi va til tizimining ichki rivojlanish qonuniyatlari mujassamlashganligini mantiqiy izchilikda ko'rsatish lozim. Chunki vaqti kelsa, tosh ham, temir ham yemirilishi mumkin, lekin nomlar, jumladan, toponimlar hech qachon yemirilmaydi. Buning isbotiga *oltin bitiklar* hisoblanadigan tarixiy va zamonaviy nom hamda toponimlar asos, qadim tarix esa guvohdir.

Toponimlarni faqat tilshunoslik yoki tarix, yoxud geografik jihatdan o'rganish noto'g'ri. Ular takrorlanmas obrazli nomlanishlar orqali tilshunoslik, tarix va geografiya fanlarining bir butun holda tadqiq etish obyektlari sanaladi. Har bir toponimning etimologik tahlilida tilshunoslik, geografiya, tarix va boshqa fanlarga oid dalillardan zaruriyatga qarab o'rinni foydalanish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimiz toponimiyasining turkiy, arabiy, eroniy hamda boshqa qatlamlarida toponimlarning tarixiy rivoj, o'zgarish va boyish tendensiyalari, eskirish va yangilanishining me'yoriy xususiyatlari, ijtimoy-lisoniy sabab va asoslari *oltin bitiklardan* namunalar sifatida o'z ifodasini topgan. Toponimlar qatlami o'tmishda yashagan turli qavm va elatlarning joylarni nomlash bilan bog'liq udumlari, an'analari, nom ijod qilish mahorati va san'ati haqida ma'lumot beruvchi qimmatli lisoniy manba hisoblanadi. Ular har bir joyni o'ziga xos va mos ravishda nomlashganki, "nom qo'yish ham san'at" darajasiga ko'tarilgan. [2] Ular xalqlarning tarixi, ajdodlarimizning tafakkur yo'sini, yashash tarzi, turli topoobyektlarga nom berish me'yor, omil va usullarini o'zida jamuljam qilgan ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarining uzviy qismidir. [3]

Toponimlar ham nominativ birliklardan biri sifatida o'zaro munosabat va aloqaga, ya'ni zaruriyatga xizmat qiladi. Ular bebaho tarix hamda tarixiy yodgorlik ham sanaladi. "*Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir. Zotan, tarix xalq ma'naviyatining asosidir*". [3] Mamlakatimiz tarixining noma'lum sahifalarini tez va osonroq bilish yo'llaridan biri bu – ulardagi toponimlarning ma'nolarini "*chaqa bilish*", ya'ni ishonarli dalillar bilan amalga oshirilgan toponimik tahlillar ko'rinishidagi etimologik tahlil(lar)ni o'qib, o'rganib, o'zlashtira bilish kerak.

Nom va toponimlarning tarix, jumladan, boshqa til birliklaridan farq qiladigan qo'shimcha vazifasi, ya'ni toponimik vazifasi va toponimik ma'nosi ham bor. Kishilarning adashmasdan u topoobyektidan bu topoobyektga borishlari, topoobyektlar orasidan o'ziga zarur obyekt(lar)ni topa olishlari, turli xil geografik muhitlarni bir-biridan farqlashlari, topoobyektlarning bir-biriga nisbatan joylashuvidan xabardor bo'lishlari kabi nom va toponimlarning ma'no nozikliklarini bilib, farqlash ham ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida katta ta'limiy-tarbiyaviy, ma'rifiy-ma'naviy ahamiyatga ega.

Shu o'rinda *oltin bitiklardan* biri bo'lgan toponimlarning etimologik tahlillaridan namunalarni berib o'tamiz:

Saksonkapa (Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi qishloq, qishloq kengashi) – toponimining kelib chiqishi xususida quyidagi taxminlar ham uning obrazli nomlanishi orqali nomlarga xos betakror *oltin bitikligini* ifodalaydi:

1. Ushbu toponim o'sha yerlik aholi vakillarining aytishlaricha, *kapalik* joyning shakllangan nomi: **Saksonkapa**. Kapalar ko'p bo'lgani uchun nomning shakllanishiga sakson miqdor soni ishlatilgan:

on+kapa>saksonkapa>Saksonkapa>Saksonkapa. Agar uning daryo bo'yida joylashganligi va dehqonchilik, chorvachilik yaxshi rivojlanganligi, shuningdek, Shahrisabz shahri yaqinida joylashgan **topoobyektligi** hisobga olinsa, *kapalar* ko'p degan fikr noo'rin bo'lib qoladi. *Sakson* miqdor soni tarixi qadim tarixga bog'liq bo'lgan xalqimizning qadriyatlari va sehrli sonlari [4] bilan *bog'liq uch (3), yetti (7), yigirma (20), qirq (40) va yil (bir yil to'ldi)* shakllaridagi sonlarga yaqinlashmaydi ham. Xullas, ushbu toponimdagi *sakson* so'zini miqdor sonlar jumlasiga kiritish noo'rin.

2. "**Kapa** – chayla hamda urug' nomi (masalan, kapasaro). *Kapa* komponentli toponimlar Farg'ona vodiysida ko'p uchraydi. Xatirchi, Payariq, Jalaquduq, Beshariq tumanlarida **Kapa**, Yangiqo'rg'on, Urgut, Beshariq, Uchqo'rg'on, Asaka tumanlarida **Beshkapa** qishloqlari bor". [5]

3. Bu oykonimning shakllanishiga qadimiy turkiy qabilalar nomi bo'lgan *shak//sak//saks//masaget*larning nom(lar)ji asos bo'lgan. Undagi *-on* topoformanti til tarixida ko'plik ma'nosini anglatgan. Undagi *kapa* topoleksemasiga kelsak, *sak//saks//shaklar* harbiy yurishlarda ham, kunlik faoliyatda ham doimo aravalarda yurishgan. *Kishilar usti yopiq aravalarda ko'p bo'lgan joylarni "kapa"* so'zi vositasida nomlashgan: **Saksonkapa**. Toponimdag *sak//saks//shak//masaget* so'zlarining *sakson* holatiga kelishi va shu tarzda tushunilishi sinxron nuqtayi nazardan hisoblanadi. Qadimda *shak//sak//saks//masaget* deb atalgan jangovar va kurashchan qabilalar bo'lgan: *Saka* – kirgizi; *Saksan* 1) kazaki (aliquli); 2) uzbeki (durmen). [6] Shu sababli ham aslida mazkur toponimga diaxron nuqtayi nazardan to'g'ri va ishonchli munosabat (baho) bildirish o'rinli, deb bilamiz. [7] Toponimik aniqlagich bo'lgan bu *kapa* topoleksemasining mazmun-mohiyatida *usti yopiq arava* ma'no nozikligi mavjud.

Ushbu toponim to'g'risidagi taxminiy fikrlar to'g'ri xulosaga kelishga imkoniyat yaratdi. Uning etimoni *sak//saks//shaklar* o'zlarining usti yopiq aravalari bilan yashagan joy degan ma'no nozikligini ifodalaydigan *saks* (*shak*) + *-on* + *kapa* > *saksonkapa* yasama so'zidir. Bu nomda qadimiy *sak//shaklar* nomining saqlanib qolishi ham uning *oltin bitikligini* asoslaydi.

Toshkent toponimining obrazli nomlanishi va kelib chiqishi (etimologik tahlil)ning mohiyati uning *oltin bitikligini* anglatadi:

1. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning "Surat ul-arz kitobi" asarida **Toshkent** avval *Torband*, *Burji hijora*, *Tosh qal'a*, *Shosh* deb qayd qilingan. [8] Bizningcha, arab yozuvidagi *Torband* toponimida *o* unlisi noto'g'ri o'qilgan, aslida *a* bo'lishi kerak. Qishloq, shahar ma'nosidagi *kand* so'zi tarkibidagi *k* undoshi arab yozuvining turli ko'rinishlarida *b* shaklida o'qib ketilgan. *a* unlisining *o* unlisiga o'tishi esa keyingi jarayon. *Torband* aslida *Tarkand* shaklida [9] yozilishi lozim edi. *Toshli qal'a* arabchada *Burji hijora* deb atalgan. [10] U holda *Chosh* (*Choch*) va *Shosh* nomlarining kelib chiqishini faqat arab tiliga bog'lash shart emas, balki u turkiy va arab tillari unsurlaridan shakllangan. Sababi, obyektning *Chosh* (*Choch*) va *Shosh* shaklidagi nomlari fors-tojik va xitoy manbalarida ham uchraydi. [11] Demak, muallif **Toshkent** toponimining *Torband* (*Tarband//Tarkand*) shaklini VIII asrdagi ko'rinishi, deb to'g'ri ko'rsatgan.

2. Bu shahar oldin **Tarkan** deb, so'ngra esa **Toshkent** deb atalgan. [12]

3. Xitoy manbalarida **Shi**, **Chach** deb qo'llangan. [11] Xitoyliklar **Toshkent**ning oldingi nomi bo'lgan **Shi** va **Chach//Chosh**ni o'zgartirmay qo'llashgan.

4. Ushbu toponim XII asrda **Tarband** deb qo'llangan. [14]

5. E.Murzayev uning ma'nosini "*tosh shahar*" degan holda E.D.Polivanovning ushbu toponimni *taj//taji//tadjik* etnonimiga bog'lashiga qo'shilmaydi. [15]

6. Sh.Qodirova ushbu toponimning shakllanishini *Tarig'kentga* bog'laydi [16]: *Tarig' (kent)>Tar(kent)>Shash(kent)>Tashkent*.

7. H.Hasanov: "*Ehtimol, "Toshkent" so'zi bu yerdagi dastlabki tosh binoga qarab paydo bo'lgandir. Kelgusi arxeologik tekshirishlar va filologik tahlillar bu masalaga aniqlik kiritisa kerak*", deydi. [17]

8. Tarixiy taraqqiyot tufayli toponim tarkibida *Chosh* – *Shosh* – *Tosh* shaklida fonetik o'zgarishlar bo'lganini M.Mirtojijev qayd etgan. [18]

9. S.Qorayevning fikricha, "*Sof turkiy nom bo'lgan Toshkent so'zining tarixiy manbalarda qayd qilina boshlanganiga ming yildan oshdi*". Muallif boshqa asarida uning etimologiyasi to'liq o'rganilmaganligini qayd etgan. [19]

10. Z.Do'simov va X.Egamovlarga ko'ra, "Toponimning eng ko'p tarqalgan etimologiyasi **Toshkent** – "tosh qal'a", "tosh shahri"dir". [20]

11. Toponim **Choch**, **Shosh**, **Shoshkent**, **Madinat ash-Shosh**, **Binkat**, **Tarkand** va **Toshkent** deb atalgani, *choch* so'zi qadimdan *tog'* va *tosh* ma'nolarini anglatishi, **Choch** avval *tog'*ga, so'ng daryo, keyin voha, vohadan shaharga ko'chganligini A.Muhammadjonov ko'rsatgan. [21]

12. Toponimning nomi yozma manbalarda *Choch*, *Chochiston*, *Shosh*, *Shoshkent* shaklida uchraydi. *Choch* so'zi so'g'd tilida *tosh*, *Shosh* esa *Choch* nominining arabcha shaklidir. *Choch* yoki *Shosh* deganda *Toshkent* hamda uning atrofi tushunilgan. *Shosh* viloyatining markazi *Binkat* shahri. *Binkat* hozirgi *Eskijo'va* va *Chorsu* oralig'ida bo'lgan. *Binkat* nomi forscha ko'rimli shahar demakdir (*bin* – ko'rinish; *kat* – so'g'dcha "shahar, qishloq, manzilgoh" degan ma'nolarni bildirgan). Beruniy "Qomusi Mas'udiy" asarida "*Binkat* bu – *Shosh*ning poytaxti, turkiy tilda "*Toshkand*", yunonchadan arabchaga tarjima qilinsa – "*Burj al-hijora* ("*Tosh minor*")", deb yozgan. [22]

13. Bu joy nomining **Choch** nomi ham ancha mashhur bo'lganligi haqida "So'g'd elchisi *Fatufar*ning *Choch* diplomatik missiyasi" misolida M.Is'hoqov maxsus to'xtalgan. [23]

14. A.Devonaqulov bu joy nomining **Toshkand**, **Choch**, **Shosh**, **Gang** shaklidagi ko'rinishlarini fors tilidagi tarixiy asar va lug'atlar, shuningdek, "*Shohnoma*" asosida izohlashga harakat qilgan. [24]

15. Toponimning **Binkent** varianti arab geograflarining ishlarida berilganligini E.M.Pospelov qayd etgan. [25]

16. Bizningcha, toponimning **Torband//Tarband//Tarkand** variantlari obyektning M.Koshg'ariygacha bo'lgan nomi. **Toshkent** esa **Tarkand** shaklida XI asrda ham qo'llangan. Birinchi bo'lib obyektning **Torband//Tarband//Tarkand** nomlanishi, so'ngra **Toshkand//Toshkent** deb atalishi fikrimizni tasdiqlaydi. Toponim M.Koshg'ariy davrigacha **Torband//Tarband//Tarkand** deyilgan. Muallif yashagan davrdan boshlab esa obyekt **Tarkand** va **Toshkent** nomlari bilan atalgan. Keyinchalik, birinchi nom arxaiklashgan, ikkinchi nom esa obyekt uchun asosiy nom bo'lib qolgan. Joy nomi ikki morfemadan iborat: *tar* va *-kan*. *Tar* so'zining "*zich, tig'iz, jips, mahkam*" ma'nolari bor. [26] Uning ikkinchi

ma'noli bo'lagi bo'lgan *-kan (-kand)* esa "qal'a, qo'rg'on, o'ralgan joy" ma'nolarini ifodalaydi. U holda **Tarkan** "zich, mustahkam o'ralgan qal'a, qo'rg'on" ma'nolarini anglatadi.

Tar so'zining "zich, mustahkam" ma'nosini ifodalashiga ko'ra u "qattiq, mustahkam" ma'nosidagi tosh so'ziga fonetik o'zgarishlar tufayli o'tgan. Bunda *r>sh* fonetik o'zgarishi ro'y bergan: *tar>tash>tosh*. Chosh (*Choch*) Shosh so'zlari bilan *Tarkan* so'zining o'zaro munosabati natijasida *r* undoshi *sh* undoshiga (*r>sh*), *a* unlisi esa *o* (*a>o*) unlisiga almashgan:

*Chosh(kand)>nd>*Tarkand>Tarkan>Tazkan>Tashkand>Toshkan(d)>Toshkent.

Tar so'zidagi *r* tovushi *kand//kent* leksema ko'rinishlariga ega bo'lgan ushbu so'zga qo'shilishi bilan quyidagi fonetik o'zgarishlar sodir bo'lgan: [27]

1. *ch>sh*.
2. *sh>t*.
3. *r>d//t*.
4. *d>d'>z* (*z>y*; *z>s>sh*).
5. *r>z>z'* (*z>sh*; *z>s>ch>sh*).
6. *r>l>sh*.

Demak, *r* undoshi birdaniga *sh* undoshiga o'tmagan, oldin *d* undoshiga (*r >*)

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining qarori. "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga qabul qilish bo'yicha eksperimentni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida". 1992-yil 9-aprel, №181. <https://lex.uz/docs/737462>

²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to'g'risida". 1994-yil 14-may, №258. <https://lex.uz/docs/726048>

³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Umumta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to'g'risida". 2020-yil 12-oktabr, №646. <https://lex.uz/docs/5044726>

⁴Batafsil ma'lumot uchun, qarang: Downing, S. and Haladyna, T. Handbook of Test Development. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006; Popham, W. J. Modern Educational Measurement: Practical Guidelines for Educational Leaders, 3rd ed. Boston: Allyn and Bacon, 2000; Haladyna, T. and Rodriguez, M. Developing and Validating Test Items. London – New York: Routledge, 2003.

⁵Davlat test markazi. Oliy ta'lim muassasalariga kiruvchilar uchun test kitobi. Savollar kitobi raqami: 1701312. – Toshkent, 2017. 2-bet.

⁶Davlat test markazi. Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari to'plami: amaliy qo'llanma.– Toshkent: Davr Press, 2019. 112-bet.

⁷Davlat test markazi. Ona tili va adabiyot fanidan namunaviy savollar. Davlat test markazining rasmiy saytidan yuklab olingan. <http://dtm.uz>

⁸Qarang: Basham, A.L. Hinduism. In: Encyclopedia Britannica. <https://www.britannica.com/topic/Hinduism>

⁹Davlat test markazi. Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari to'plami: amaliy qo'llanma. – Toshkent: Davr Press, 2019. 117-bet.

¹⁰Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. 2-qism. Qayta ishlangan 4-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. 70-bet.

Muhammadsodiq SAYFULLAYEV,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON ADABIY MUHITIDA "AL-IZOH" JURNALINING O'RNI

XX asr nihoyatda evrilishlarga boy yuz yillik o'laroq jahon tarixi sahifalariga bitildi. Ilm-fan, texnika, sanoat, iqtisod, siyosiy hayot, ijtimoiy ong va tafakkurdagi keskin o'zgarishlar bilan to'la bu davrning dastlabki 20 yilligi esa mazkur yangilanishlarning tamali, desak yangilishmaymiz.

Tabiiyki, bu o'zgarishlar birinchilardan bo'lib badiiy adabiyotda aks-sado bera boshladi. Vaqtli matbuotning kirib kelishi va ommaviylashuvi esa adabiyotning hozir-javoblik funksiyasini yanada kuchlantirdi.

Ma'lumki, 1870-yildan to 1917-yilgacha "Turkiston viloyatining gazetisi"da mahalliy o'lka ijodkorlarining turli

janrdagi badiiy asarlari nashr qilinib turgan. 1906-yildan ilk milliy matbuot nashri sanalmish "Taraqqiy"dan tortib, "Samarqand", "Sadoyi Turkiston", "Oyna", "Hurriyat" singari gazeta va jurnallarda milliy uyg'onish shoirlari, jaddidlar va ilm ahlining ijod namunalari chop etilib turgan.

1917-yilning 19-iyunida "Ulamo jamiyati" o'zining targ'ibot vositasi sifatida ta'sis etgan "Al-izoh" jurnali ham ana shunday davriy matbuot sirasiga kiradi. 1918-yilning 5-mayiga qadar jurnalning 31 soni eski o'zbek yozuvida, asosan, o'zbek tilida chop etilgan. Uning ilk sonida diniy, ilmiy, adabiy, siyosiy mavzular yoritishga mo'ljallangan majalla bo'lishi xabar berilgan.

Darhaqiqat, majallaning qo'limizdagi sonlarining mundariyasi yuqoridagi ma'lumotni tasdiqlaydi. Juda ko'plab diniy-e'tiqodiy, fiqhiy (qonunga oid), tarixiy-ijtimoiy, siyosiy-ma'rifiy maqolalar qatorida adabiy matnlar ham mavjud bo'lib, ular deyarli faqat she'riy shakldagina uchraydi.

Jurnalda aruz, barmoq vaznlarida aralash jami 28 ta she'r (26 ta o'zbekcha, 2 ta fors-tojikcha, 1 ta arabcha) e'lon qilingan bo'lib, ular g'azal, tarkibband, masnaviy, murabba', muxammas kabi janrlarda yaratilgan. She'rlarning aksar qismi tarixchi olim M.Zikrullayev tomonidan "Taraqqiyot va hurriyat ishqida" nomli risolasida joriy kiril alifbosida e'lon qilingan.

Ushbu she'rlar Vasliy Samarqandiy, Karimbek Kamiy, Sidqiy Xondayliqiy, Tavallo singari taniqli jadid shoirlari hamda Abdulloh maxdum, Karim Oxund o'g'li (Nasriy), Tursunmuhammad A'lam Turkistoniy (G'urbatiy), Shukriy-Sharaf, Mullo Muhammad Yunus Toshkandiy (Ramziy), Mulla Sodiq Imonquli (Sodiqiy) kabi Turkiston o'lkasining turli hududlari, ko'proq Toshkent miyonalarida yashab, badiiy ijod bilan ham shug'ullangan din olimlari, mudarrislar, shuningdek, "Al-izoh" jurnalining xodimlari: Avliyootali Mubashshirxon, Abdulqodir Toshkandiylar qalamiga mansubdir.

Mazkur mualliflar orasida Vasliy Samarqandiy va Sidqiy Xondayliqiy she'rlari jami badiiy matnlarning teng yarmini tashkil qiladi. O'z navbatida, ular o'sha davrda kun tartibining dolzarb muammosiga aylangan Milliy istiqloq, Hurriyat, Ittifoq, Taraqqiyot, Islomning sofligini saqlab qolish va ma'rifatini anglatish kabi mavzularda yozilgani bilan yanada diqqatga molikdir.

"Al-izoh"da hal qilinishi lozim bo'lgan diniy-ijtimoiy masalalarni, o'zi mansub hududning eng og'riqli nuqtalarini teran anglagan ziyoli, din olimi, tarixchi va tarjimon, shoir Sirojiddin Sidqiyning asarlari ham chop etilgan.

U o'z ismi oldidan "faqir", "maxdum", "zohid" kabi izohlovchilarini qo'llar ekan, "Sidqiy", "Xondayliqiy" singari taxalluslarni istifoda etadi. Jurnalning dastlabki sonlarida uning muntazam ishtiroki ko'rinadi. "Toza adabiyot", "Izhori haqiqat", "Taronai islomiy", "Saylovg'a da'vat" she'rlari Sidqiyga tegishli bo'lib, mazkur she'rlar shoirning bugungi kungacha chop etilgan kitoblarida uchramasligi bilan xarakterlanadi.

"Al-izoh"ning ilk sonida Sidqiy g'azali o'rin olgan. She'r garchi "Toza adabiyot" deb nomlansa-da, unda "ulam" lafzi radif bo'lib kelgan bo'lib, satlardagi mazmun ulamolarning Islom jamiyatida tutgan nihoyatda yuqori maqomi, hal qiluvchi roli, sabr, bardosh, taqvo singari yuksak fazilat sohiblari ekanligi, payg'ambarimiz (c.a.v.)ning ma'rifat chirog'ini tutgan rahnamo ekanliklari zo'r ishtiyok bilan ifoda etilgan. Jumladan, matla'da adib ulamolarni boshdagi farq misoli hidoyat yo'lini ochuvchi tanlangan jamoa, ko'z qorachig'i singari bebaho va pokiza insonlar, deb ta'riflaydi:

Turray farqi istifo ulamo,

Qurrai ayni asfiyo ulamo.

Shoir tazod san'atiga murojaat qilish bilan ulamolarni noraso kishilardan har qancha jabr-u jafoda vafodorlikdan yuz burmaydigan, turli toifa orasida e'tiqodlarini sof saqlab qola biladigan sabr-bardosh egalari o'laroq tasvir etadi.

Shoirning g'azalda ulamolarni avliyolarga mengzashi, sof tiynatli, taqvoli, ilm ul-yaqin egalari, to'g'ri yo'lga boshlovchi shabchirog' sohiblari deb tanitishi, izlarini ko'zlarga to'tiyo qilish darajasida muhabbatli bo'lishga undashi, insoniyat gulshanidagi eng xushnavo qush misoli e'zozlashini shunday izohlash mumkin: birinchidan, ajdodlarimizning olimlarga, ilm ahliga cheksiz izzat-ikromi natijasida shakllangan asriy urf-odatlariga hurmat; ikkinchidan, g'azal aynan "Ulam" jamiyatining nashri o'laroq maydonga kelgani uchun ularni rag'batlantirish; uchinchidan va, eng asosiysi, shoir jamiyatda obro'-e'tibori, ta'siri tobora kuchsizlashib borayotgan din olimlarining asl fazilatlarini xotirlatish, tarixiy missiyalariga munosib bo'lishga da'vat; to'rtinchidan, alg'ov-dalg'ovli bir davrda musulmonlar uchun sobitlik va fikrda barqaror qolish yuzasidan bir eslatma.

Shu yerda yana bir mulohaza. Shoir bu g'azalni "Toza adabiyot" deb nomlashda an'anaviy ishq-muhabbat, hijron va ayriliq motivlaridan boshqacha, zamonaviy, to'g'rirrog'i, XX asr boshlaridan adabiyotga kirib kelgan yangi mavzulardan birida yozganiga urg'u berishni maqsad qilgan bo'lsa kerak.

Xulosa qilib aytganda, ba'zi o'rinlarda, "Al-izoh"da e'lon qilingan materiallar jadidlarga qasdma-qasd chiqarilgandek taassurot uyg'otsa-da, aslida, shu millat, shu o'lka, shu vatandoshlarning birligi, taraqqiysi, ittihodi, orzu-intilishlarini ozmi-ko'pmi yuzaga chiqarishga xizmat qilgani haqiqatdir.

Jurnalda bosilgan lirik asarlarning Islom ma'rifati bilan yo'g'rilgani, milliy tuyg'u, vatanparvalikka chaqiruvchi badiiy puxta she'rlar ekanligi tahlillarda anglashiladi. Shuningdek, ko'p asrlardan buyon sinovdan o'tib kelayotgan yana bir hodisa shuki, Sharq xalqlari har vaqt nazm bilan oshno bo'lgan. Ularning ong-u shuuriga, tuyg'ulariga chiroqli so'z, hikmat aytish bilan ta'sir etish, ko'pincha, ijobiy samaralar bergan.

Garchi mualliflar aruzda ijod qilgan bo'lsalar-da, an'anaviy poetik ifodalari, she'riy san'atlarning qo'llanishi, shubhasiz, mumtoz adabiyotning qat'iyatlashgan poetik qonuniyatlaridan, yorqin namunalaridan osonlik bilan voz kechish mumkin emasligini bildiradi.

Sanab o'tilgan ijodkorlar shu tarzda Vatan ozodligi, millat erki va jamiyat ozodligi uchun o'z hissalarini qo'shishga erishdilar. Eng muhimi, jamiyatning ilg'or vakillari, ziyoli qatlamiga, ayniqsa, shoirlariga ko'z tikkan xalq millatning butun shaxsiyatlarini, haqiqiy fido-yilarini kashf qila oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi (1870–1917). – Toshkent: Akademiya, 2000.
2. Nazarova Z. "Al-izoh" jurnali – Turkistonning diniy-ma'rifiy hayotini o'rganishda noyob manba // TIU ilmiy tahliliy axboroti. – Toshkent, 2006. 3-son.



Surayyo ZIYOTOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA IRONIYA HODISASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda uchraydigan ironik mazmuni ifodalovchi lingvistik birliklarning badiiy matnda qo'llanilishi hamda ironik mazmuni hosil qiluvchi lisoniy vositalar badiiy asar matni doirasida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ironiya, ironik mazmun, kinoya, istehzo, piching, sarkazm, lingvistik vositalar, frazema, parema, sema, konnotativ ma'no, so'z birikmasi, mikromatn, uslub.

Annotation. In this article, the usage of linguistic units is examined in the literary text to express the ironic content encountered in linguistics, as well as the linguistic means that form the ironic content within the literary text.

Key words: irony, ironic content, sarcasm, linguistic tools, phrase, parema, sema, connotative meaning, word combination, microtext, style.

Аннотация. В этой статье исследуется использование лингвистических единиц в художественном тексте для выражения иронического содержания, встречающегося в лингвистике, а также лингвистические средства, создающие ироническое содержание художественного текста.

Ключевые слова: ирония, ироническое содержание, сарказм, языковые средства, фразема, парема, сема, коннотативное значение, словосочетание, микротекст, стиль.

Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida asar ta'sirchanligini oshirish, obraz yaratish, voqelikni tanqidiy baholash, shaxs, predmet, voqea-hodisaning muayyan jihatlari tasvirlashda ironiya hodisasidan mahorat bilan foydalangan.

Kinoya-ironiya zimdan kulish, kesatish bo'lib, badiiy matndagi inkor etish usullaridan biridir. Bunda jiddiy holda gapirilgan so'zlar o'z asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llanadi va biror shaxs, uning xatti-harakati yoki hodisa ustidan kesatib, masxaraomuz kulinadi.¹ Ironiyada so'zlovchi voqeani jiddiy bayon qilganday bo'ladi, ammo til vositalarini ko'chma (okkazional) ma'noda qo'llab, biron shaxs yoki voqelik ustidan kesatiq bilan kuladi. Boshqacha qilib aytganda, so'zlovchi nutqining zamirida haqiqiy ma'noga zidlashuvchi asosiy maqsad – kulgi yoki kinoya ma'nosi yashiringan bo'ladi.² Nutqda so'z va iboralarning kesatiq va piching orqali o'z ma'nosiga qarshi qarama-qarshi (ko'chma) ma'noda ishlatish usuli ironiya deyiladi.³ Ironiyaning satiradan farqi shundaki, satira modallikni ochiq namoyon etsa, ironiya subyektiv munosabatni yopiq holda, yashirin ifodalaydi.⁴

Tildagi juda ko'p badiiy vositalar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarni, so'zlovchining biror maqsad uchun mo'ljallangan mazmuni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladigan hodisa ironiya hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan ironiya so'zlovchining ma'lum bir niyat-maqsadini yo'naltirishga xizmat qiluvchi salbiy subyektiv munosabatni ifodalash usuli hisoblanib, nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qodiriy ushbu asarni “Mehrobdan chayon” deb nomlashining o'zi ironiya hodisasini yuzaga keltirgan. “Mehrob” so'zi asli arabcha so'z bo'lib, “ibodatxona”, “tokcha”, “taxmon tepasining yarim doira qilib ishlangan qismi”⁵ degan ma'nolarni bildirib, masjid ichida uning qibla tomonidagi devorida taxmon shaklida qurilgan joy (namoz shu tarafga qarab o'qiladi) hisoblanadi. Asardagi mehrobdan chiqqan chayonlar esa ziyoli ulamolalar, ularni qahramon qilib tanlashdan murad – muqaddas dargohdan chiqqan, o'sha

dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban, hasadgo'y, e'tiqodsiz kishilarga ishoradir.

Abdulla Qodiriy romanda juda ko'p o'rinda ana shunday kinoya usuli asosida voqelikni, timsollarning o'ziga xos xususiyatlarini kitobxon ko'z oldida aniq va yorqin namoyon qiladi. Muallif maqsadga muvofiq tanlagan so'zlar, iboralarni kinoyaviy tarzda qo'llash asosida voqea-hodisa, holatlar va shaxslarning xarakterini butun nozikligi, o'ziga xosligi bilan ko'rsata oladi.

Tilshunos E.Ibragimova ironik mazmuni ifodalovchi vositalarni tilning barcha sath birliklari misolida tadqiq qiladi va ularni intonatsion-fonetik, leksik-frazeologik, paremik, morfologik, sintaktik lisoniy vositalarga ajratadi. Matnda ironik mazmun muallifning asosiy niyati, rejasiga asosan yuzaga chiqariladi. Qodiriy asar davomida ironik mazmuni ifodalashda leksik-frazeologik, paremik, sintaktik lisoniy vositalardan unumli foydalangan. Jumladan:

1. Leksik-frazeologik lisoniy vositalar asarda kinoya, qochirim, kulgi, piching (sarkazm) kabi tasviriy vositalardan voqea-hodisalar va kishilarning salbiy tomonlari, xususiyatlarini fosh qilishda unumli foydalanilgan. Piching-sarkazm (yunoncha) achchiq zaharxanda, istehzoli ta'na demakdir.⁶ Piching so'zlovchining murojaat qilinayotgan kishiga nisbatan ustunlik hissiyotiga asoslanadi. Ironik mazmun ifodalashning eng yuqori kulminatsion nuqtasiga yetkazilgan usuli uslubshunoslikda sarkazm deb ataladi. Sarkazm o'ta salbiy munosabat usuli bo'lib, unda achchiq zaharxandalik, masxaralash, mazax, qahr-g'azab ochiq-oydin sezilib turadi.⁷ Piching kuchli mantiqiy munozarada qo'llanuvchi ironik vositalardan biri hisoblanadi: *Kecha Samad bo'zoqni ko'chada uchratib, piching otdi: “Mirzaboshimning tegiga suv kelipti-ya, gapingni to'g'ri chiqishig'a qara, Samad?”* – dedi. Chunki Anvarga borib aytgan xabarni shu Samad bo'zoqdan eshitkan edi. *Samad bo'zoq uning bu pichingidan qizardi: “Qulog'img'a yanglish kirgan ekan-da, ablah!”* – deb gapni kulgulikka burdi. *Safar bo'zchi ham “payrav” qildi. “Bir qo'chqorning boshi ketkuncha, minglab qo'ning boshi kesilar em-*

ish, deb ayt domlang'a!" – dedi. *Samad bo'qoq indamadi* (201-bet). Ushbu parchadagi voqelik situativ ironiya bo'lib, asar qahramoni Safar bo'zchi Abdurahmon domla va Anvar mirzolarning munosabati, Abdurahmonning munshiylikdan ketganligini frazeologik vositalar orqali payrov qilmoqda va bu orqali personaj voqelikka individual munosabatini namoyon qilmoqda.

Muallif bevosita asar qahramonlarini o'zi ham, personajlar vositasida ham qattiq tanqid qiladi va kulgiga oladi. Xususan, Solih maxdumning qiyofasi, xatti-harakati, kundalik odatlarini tasvirlash, boshqa personajlar bilan munosabati ironik qochirimni yuzaga keltiradi: *Bu kunda bo'lsa to'rt yil burung'i g'usli, yetti yillik tusi, turlik-turlik yamog'i bilan sakkizinchi qish maxdum pochchasig'a sodiqona xizmat qilish uchun bo'g'joma ichida o'ziga kuch yig'ib yotadur. Mahalla kishilari maxdumning bu choponig'a "moltopar" deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilgan kun maxdumga sezdirmay "moltopar savdodan qaytibti... hali baquvvat, ish qilib yamoqqa charchamasang yana o'n yillingmi, Mamarayim!" deb kulishadirlar* (14-bet). Solih maxdumning haddan ortiq ziqnaligi kiyib yuradigan choponini tasvirlash orqali qattiq kulgiga olingan.

2. Paremik vositalar badiiy asarlarda, asosan, ko'chma ma'noda qo'llanilib, matn ortidagi yashirin ma'nolarga ishora qiladi: *O'chadiring'an charog' yorqin o'chadir, maqoli kabi Turkiston xonlarida siyrak ko'rilgan bu ma'muriyatparvarlik bizga qolsa shu omillardan tug'ilgan va bunda samimiy hech narsa yo'q edi* (127-bet). Bu mikromatnda muallif Xudoyorxonning qurilish ishlariga xalqni qiynash hisobiga kirishgani, aslida bu faoliyat xalq manfaati uchun emas, boshqa rus xalqiga ma'muriyatparvar hukmdor sifatida o'zini ko'rsatishga qaratilgan harakatni tanqid qiladi. *O'chadiring'an charog' yorqin o'chadir* maqolida esa bevosita Xudoyorxonning yaqin kelajakda hukumatdan ag'darilishiga ishora qiluvchi yashirin qochirimli ironiya mavjud.

3. Sintaktik vositalarning so'z birikmalari tobe komponentlari orasida baholash xususiyati alohida hodisa hisoblanadi:

– *Sening qig'an ishing pusulmonchilikda bormi, it uvli?*
– *Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga bir kambag'al uylanmakchi bo'lg'an qizg'a ham zo'rliq qilish bormi, qiblayi olam!* (304-bet)

Ushbu misolda "it uvli" aniqlovchili so'z birikmasi Xudoyorxonning asar personaji Anvarga nisbatan salbiy bahosini ifodalaydi. "Qiblayi olam" arabcha so'zdan olingan bo'lib, shoh, xon, amir va shu kabi hukmdorlarga hurmat yuzasidan murojaat; jahonning, olamning qibla tarafi⁸ degan semalarni ifodalasa-da, Anvarning ayni shu asar voqeligida Xudoyorga nisbatan "qiblayi olam" izofali birik-

masi murojaat shakli sifatida qo'llanilishi esa xonga nisbatan ironik mazmunning istehzo, kinoya shaklida namoyon bo'lmoqda.

"Mulla Abdurahmondan non yemaymiz, **sizga qarshi qattig' quturg'an ikki itimiz bor edi, endi uchunchisini o'zingiz keltirganga o'xshaysiz...**" (191-bet) Bu parchada ironik mazmun bevosita butun gap orqali yuzaga kelmoqda. Birinchi gapdagi *"Sizga qarshi qattig' quturg'an ikki itimiz bor edi"* jumlasida quturg'an ikki it konnotativ ma'noda ishlatilgan bo'lib, Anvarga nisbatan g'ayirliq bo'lgan Shahodat mufti va Kalonshoh mirzolarga nisbatan qo'llanilib, *"endi uchunchisini o'zingiz keltirganga o'xshaysiz"* jumlasida asar personaji Abdurahmon nazarda tutilmoqda. Itning xususiyatlari: ochko'zlik, shafqatsizlik, g'ayirlik semalari majoz orqali ushbu uch qahramonning salbiy xususiyati, xarakterini ochib bermoqda.

Qodiriy asarda kinoya usuli orqali voqelikni, personajlarning o'ziga xos xususiyatlari, munosabatlari, xarakterlarini butun nozikligi, o'ziga xosligi bilan ko'rsata olgan:

– *Chunki shunchalik achchig' yozmasam, – dedi Ra'no tovshida tiroq ohang bilan, – siz kelmas edingiz... Siz... siz mirzoboshiliqni yaxshi ko'rasiz-a? Anvar bu munosabatsiz savoldan biroz hayron bo'lib turdi* (259-bet). Ushbu keltirilgan parchada Ra'no "mirzoboshiliqni yaxshi ko'rasiz-a" savol-kesatig' orqali Anvarning Ra'noni taqdir hukmiga tashlab, indamasdan ketganiga nisbatan baholovchi hukmi kinoya-kesatig' orqali namoyon bo'lmoqda. Ushbu sintaktik vositalar orqali gapning tagma'nosiga ishora qilinmoqda.

– *Bo'lmasa mudarrislik, muftilik, mirzolik – bularning bariga ham taqsim yetuk... Faqat tole past-da, bek bobo. Mana endi mirzam otaliq qilib, o'rdadan birar ish topib bersalar, taqsirimg'a ham oftob tegsa ajab emas. O'zlari ham bir haftadan beri mirzanning haqlarig'a duoda edilar... a, taqsir, shunday emasmi?* (101-bet). Asardan keltirilgan ushbu parcha asarning rivojlanib kelayotgan Safar bo'zchi, Abdurahmon, Abdurahmonning Anvarga bo'lgan munosabati ironik mazmunning piching va qochirim usuli butun mikromatn orqali yuzaga kelmoqda. Mikromatn asarning butun voqeligiga ishora qilmoqda.

Xullas, Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" asarida ironiya hodisasini ifodalovchi kinoya, piching, qochirim, istehzo kabi turlaridan qahramonlar xakteri, ularning emotsional holatini yoritishda samarali foydalangan. Badiiy matnning tasviriy vositalarini hosil qiluvchi leksik-frazeologik, paremik, sintaktik lisoniy vositalaridan turli shaklda o'rinni foydalanilgan. Asardagi ironik mazmunning ustunligi muallifning davr va zamon, qahramonlar ichki dunyosi, fe'l-atvori, voqea-hodisalarga tanqidiy munosabatini ko'rsatadi.

¹Jalolova L.O. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining lingvistik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi...diss. – Toshkent, 2007. 99-bet.

²Ibragimova E.I. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari: Filol.fanlari nom...diss. – Toshkent, 2001. 8-bet.

³O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 241-bet.

⁴Ko'rsatilgan asar. 10-bet.

⁵O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. II tom. 588-bet.

⁶Ko'rsarilgan asar, 2007. 101-bet.

⁷Ibragimova E.I. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari: Filol.fanlari nom...diss. avtoref. – Toshkent, 2001. 13-bet.

⁸Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 70-bet.

Mehriniso TOSHPO'LATOVA,
Termiz davlat universiteti Ingliz tili o'qitish
metodikasi kafedrasasi o'qituvchisi

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KORPORANING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda korporaning nazariy asoslariga bag'ishlangan, ya'ni ingliz tilini o'qitishda foydalaniladigan asosiy til korpuslarining nazariy asoslariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: korpus, korpora, konkordans, miqdoriy, sifatiy, elektron matn.

Annotation. This article focuses on the theoretical foundations of corpora in teaching English, that is, the theoretical foundations of the main language corpora used in teaching English.

Keywords: corpus, corpora, concordance, quantitative, qualitative, electronic text.

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется теоретическим основам корпоры в обучении английскому языку, то есть теоретическим основам основных языковых корпусов, используемых в обучении английскому языку.

Ключевые слова: корпус, корпора, конкорданс, количественный, качественный электронный текст.

Bugungi kunda til o'rganish vositasi sifatida texnologiyalarning o'zni tobora ortib bormoqda va o'rganuvchilar uchun qulaylik va yengillik yaratayotgani bilan ahamiyatlidir. Shu o'rinda dunyo tillari korpusi yaratilar ekan, o'rganuvchilar uchun til korpuslari orqali bilim olish imkoni paydo bo'ldi. O'qituvchilar ham ingliz tili korpusi orqali til o'qitish usullaridan darslarida foydalanadilar.

Korpus haqida olimlar turli ta'riflarni keltirib o'tgan. Xususan, o'zbek tilshunosi B.Mengliyev tomonidan korpus til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysindirilgan matnlar majmuyi, elektron shaklda saqlanadigan yozma va og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlovchi matnlar jamlanmasi deya ta'rif keltirilgan. Aslida 1960-yillarda korpus termini Jon Sinklair tomonidan tilga kiritilgan. MakKarti, Reppin, MakEniri, Tribble, Aston kabi tadqiqotchilar tomonidan korpus ustuda ish olib borilgan va bu terminga turlicha ta'riflar berilgan. Har biri o'ziga xos ma'no va mazmun anglatadi.

Korpora tilni o'qitishda, til o'rganuvchilar uchun real va haqiqiy matnlarni tasvirlashda qimmatli ma'lumot sifatida tan olingan.¹ So'nggi yillarda elektron korporaning tillarni o'qitish va o'rganish sohasidagi dasturlariga katta e'tibor berilmoqda.² Hanks takidlaganidek, korpora hozirda ma'lumotnomalar, ayniqsa, lug'atlar, shu bilan birga grammatikaga oid kitoblar va o'quv qo'llanmalarini yaratishda keng tarqalgan. Korpora til o'qituvchilari uchun foydali, chunki ular o'quvchilarga taqdim etiladigan mazmunli ma'lumotlarni ko'paytiradi.³

Korpus tilshunoslikda tahlil qilish uchun foydalaniladigan, tilning boshqa bir qismini ko'rsatuvchi deb taxmin qilingan matnlar to'plamidir.⁴

Korpus og'zaki va yozma matnlarning kompyuterda yozilgan jamlanmasi hisoblanadi. O'tmishda bu termin bir ishning asosiy qismi bilan bog'liq bo'lgan, misol uchun, bitta yozuvchining butun bir ishlari jamlanmasi

hisoblangan.⁵ Korpusning boshqa bir xususiyati shundaki, Biber, Konrad, Reppin ta'kidlaganidek, u sifatiy va miqdoriy matnlarning prinsiplashgan jamlanmasidir. Bu ta'rif juda ahamiyatli bo'lib, muhim muammolarni qamrab oladi.⁶

Korpus prinsiplashgan matnlar jamlanmasi

Har qanday matnlar jamlanmasi korpusni tuza olmaydi. Matn nimanidir aks ettirishi kerak va buning afzallik tomoni qanday qilib korpusni aks ettirgani bilan baholanadi. Agar sinfxonada ingliz tilini o'qitish korpusini tuzmoqchi bo'lsak, qanday qilib uning eng yaxshi variantini yaratishimiz mumkin? Buning uchun sinfxonadagi barcha asosiy mezonlar: o'quvchilar yoshi, jinsi, millati, maktab turi (xususiy va davlat maktabi), darajasi, o'qituvchi (jinsi, malakasi, tajribasi, mahalliy yoki chet ellik), xona hajmi (katta guruh, kichik guruh), joylashuvi va boshqalarni inobatga olishimiz lozim. Korpus yaratish mezonlari uni qanday aks etishini baholash imokini beradi.⁷ Bu borada turli olimlar tomonidan nazariyalar taklif qilingan bo'lib, ular shaxsiy korpusni yaratish uchun asosiy manbalar hisoblanadi.

Korpus kompyuterda terilgan elektron matnlar jamlanmasi

Korpus kompyuterda teriladi, chunki bu juda katta hajmdagi matnlar jamlanmasi hisoblanadi. Til korporalari og'zaki va yozma matnlar aralashmasi, ikkalasining qo'shilmasi hamda videokliplar kabi zamonaviy multimedia elementlaridan tashkil topadi. Agar bu yozma til korpusi bo'lsa, matnlardan kompyuterga nusxa olish, ularni Internetdan yuklab olish yoki elektron shakli mavjud bo'lgan fayllardan foydalanish orqali ma'lumotlar olish lozim bo'ladi. Misol uchun, bir yildan ortiq ta'lim olayotgan talabalarning yozma ishlari korpusini yaratmoqchi bo'lsak, ularning leksikaga qiziqishini kuzatishimiz va boshqalar bilan solishtirishimiz kerak.

Talabalardan pochta orqali yozma ishlarini jo'natishini so'rash biroz osonroq bo'ladi.

Og'zaki til korpusini yaratish va yig'ish juda ko'p vaqt talab qiladi. Masalan, agar sinfxona muloqoti korpusini tuzish kerak bo'lsa, birinchidan, sinfxonada so'zlashuv nutqi, gaplari yozib olinadi, ular qaytadan yozilib, tahlil qilib chiqiladi. Bir soatlik og'zaki matn yozib olinganda taxminan 12000 yoki 15000 so'z bazasi vujudga keladi, ularni yozib chiqish uchun 2 kun vaqt ketadi, transkripsiyasini kiritib chiqishni esa o'qutuvchining o'zi hal qiladi. Og'zaki matnlar korpusida turli so'zlashuvchilar navbati, xalal berishlar, ekstralingvistik muammolar, kulish, eshik yopilishlari, baqir-chaqirlar kabilar ham material sifatida qaraladi. Umuman, yozma manbalarda kiritiladigan manbalar keng berilishi bois yozma kopruslar og'zaki til korpuslariga qaraganda ancha katta bo'ladi.





Korpus sifatii va miqdoriy tahlil uchun foydalimi?

Til xususiyatlarini korpuslarda turli yo'llar orqali ko'rib chiqsa bo'ladi. Misol uchun, gazeta korpusidan foydalanilsa, unda necha marta *fire* va *blaze* so'zlari uchraganini bilib olish mumkin. Bu miqdoriy natijani, ya'ni uning boshqa korporalarda qanchalik ko'p uchraganini qiyoslash maqsadida har kunlik suhbatlar yoki umumiy yozma matnlarni ko'rib chiqish mumkin. Bu tahlildan *blaze* yozma va og'zaki ingliz tilidan ko'ra gazeta maqolalarida ko'proq uchrashi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu boradagi yana bir yondashuvda so'z va iboralar korpuslarda qanchalik sifatli ishlatilishi tahlil qilinadi. Bunga konkordans satrlari yordam beradi.

Qaysi korpus, nima uchun va qanday hajmda?

Barcha maqsadlar uchun birdek mos keladigan korpus mavjud emas. Istalgan vaqtda ehtiyojga eng mos keladigan korpusni tanlash mumkin. O'z-o'zidan korpusdan foydalanish nima uchun kerak, degan savol tug'iladi. Ba'zilar korpusdan ilmiy ishda foydalanish yoki lug'aviy birikma va namunalardan o'rganishni istashi, boshqalar esa turli tillarda til birliklari, misol uchun, Amerika va Britaniya ingliz tilidagi *will*, *shall* ni solishtirishni xohlashi mumkin. Bunday holatlarda tanlangan korpus til yoki tilning xilma xilligini aks ettirishi va xilma xillikni taqqoslashda korpusning o'zi taqqoslanishi kerak. Misol uchun, 1960-yildagi Amerika o'quv kitoblari korpusi va hozirgi zamon og'zaki Britaniya ingliz tili korpusidan foydalangan holda Amerika va Britaniya ingliz tilidagi *will* va *shall* ni taqqoslash aniq va arziqli natijaga olib keladi.⁸





Korpus pedagogika sohasida turli maqsadlar uchun qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, *bargain* fe'li eng ko'p qaysi predlog bilan birga kelishini aniqlash uchun o'quvchi-talabaga uning korpusini izlash tavsiya etiladi. Lug'atdan so'zlarni qidirish orqali bu savollarning ko'piga javob topish mumkin. Korpusdan leksik-grammatik savolga javob izlashning afzalligi shundan iboratki, u izlangan namuna bo'yicha ko'plab misollar taqdim etadi, biroq korpus so'z yoki birikma ma'nosini bermaydi. Ba'zan, ko'plab misollardan bitta xulosaga kelish imkonligi bois lug'at va korpusni birlashtirish pedagogik jihatdan arziqli yo'nalish bo'lishi mumkin. Quyida ayrim lug'at va korpus misollaridan foydalanib, *bargain* so'zi ko'rib chiqilgan:

bargain (AGREEMENT)    /'ba: .gin/  /'ba: r- / noun [C]

an agreement between two people or groups in which each promises to do something in exchange for something else:

"I'll tidy the kitchen if you clean the car." "OK, it's a bargain."

*The management and employees eventually **struck/made a bargain** (= reached an agreement).*

bargain    /'ba: .gin/  /'ba: r- / verb [I or T] Verb Endings

*Unions bargain **with** employers for better rates of pay each year.*

*I realized that by trying to gain security I had bargained **away** my freedom (= exchanged it for something of less value).*

bargain for/on sth phrasal verb

to expect or be prepared for something:

*We hadn't bargained **on** such a long wait.*

*The strength of the opposition was rather **more than** she'd bargained **for**.*

Korpus *bargain* so'zi bilan keladigan predloglar miqdorini ko'rsatish bilan bir qatorda, bu so'zni qanday qilib boshqa so'z bilan bog'lash haqida chuqurroq bilim

beradi. Masalan: *to strike bargain, bargain hunters*. Shuningdek, nafaqat *bargain* so'zining ma'nosi, balki uning frazeologik birligini ham topish mumkin:

1 blic-sector unions have been allowed to bargain away jobs for pay. In a deal
2 over ... The chancellor also asks us to bargain away whatever obligations or int
3 : your loss is Southampton's gain. A bargain buy at pounds 1 million this sea
4 weapons; and that the Russians will not bargain for cuts in something that Labou
5 in his shirt front. Scurra has struck a bargain,' he called out as he hustled fu
6 e, and even the possibility of making a bargain, he turned his back on them for
7 tologists had kept to their side of the bargain; he'd make their deaths quick...
8 he airport.' I see now why this is a bargain holiday. Once the clients have p
9 erm these really s5 sort of quite bargain holidays where you take+
10 Chuffed. You little bargain hunter you. laughs
11 Events' are manna from heaven for the bargain hunter. When shares get marke
12 ost of the phone calls I took were from bargain hunters,' Steve says. While L
13 junkies, pop history freaks and casual bargain hunters. Record Collector magazi
14 as keen on trail running as they are on bargain hunting. A spokeswoman for PR co
15 and you'll lose a lot of wine into the bargain. Reading a champagne label
16 point and got a little success into the bargain, she'll go back to what she was
17 And it's invariably dishonest into the bargain.* So how has he managed to we
18 tanding but seem pretty boring into the bargain. THERE was a moment about a t
19 t free tickets. He's a widower into the bargain, they say. Quite a catch for som
20 ess accepted separate electorates and a bargain was struck over the distribution
21 chaser and it really is if you like the bargain we will strike and I like to thi
22 ents that they can actually strike up a bargain with a patient. Em and things ca
23 occurred to me that I might be able to bargain with him. If you really are a Ke
24 es.* But you're not. All you have to bargain with now is a copy of the decode
25 added. The Americans are prepared to bargain with the Russians on almost anyt
26 ers from their beds each day at five to bargain with the wholesalers, which g

Ingliz tilida asl ma'noga ega bo'lmagan bu so'zga misollar miqdorini topish uchun 1000000 dan ortiq so'z manbalarini izlashga to'g'ri keladi. Boshqa qidirilayotgan so'z yoki strukturalar uchun kichikroq korpus yetarli bo'lishi mumkin. Og'zaki nutq korpusi uchun katta miqdorda, milliondan ortiq so'z hisobga olinadi. Bino-barin, yozma korpora uchun 500000 so'z yetarli emas. So'zlar moslashuviga keladigan bo'lsak, aniqlanayotgan omil hajmi korpus dizayniga qarama-qarshi bo'ladi. Masalan, yuqori darajadagi texnik tildan tashkil topgan

korpus umumiy so'zni tanishtirishni istovchi til o'qutuvchilari uchun to'g'ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun hajm muammo hisoblanadi.

Korporalarning ko'pi sotib olinishi mumkin bo'lsa, ba'zilari bepul, ba'zilari esa omma uchun ma'lum emas. Noshirlar tomonidan tijorat maqsadida tuzilgan o'quv manbalari va materiallari korporasi yoki ma'ruzachilar roziligi bilan faqat cheklangan miqdorda foydalanishga ruxsat etiladigan korporalar ham til o'rganuvchilar uchun juda foydali manba hisoblanadi.

¹Hunston, S. (2002). Corpora in applied linguistics. Cambridge: Cambridge University Press.

²Yeliz Ergul. The effectiveness of using corpus-based materials in vocabulary teaching. Denizli, 2014.

³Biber, D., & Reppen, R. What does frequency have to do with grammar teaching? Studies in Second Language Acquisition, 2002. pp. 24, 199-208.

⁴Francis, W.N., & Kuçera, H. Manual of Information to accompany A Standard Corpus of Present-Day Edited American English, for use with Digital Computers. Providence, Rhode Island: Department of Linguistics, Brown University, 1964. Revised, 1971. Revised and amplified, 1979. Available online: <http://icame.uib.no/brown/bcm.html>

⁵Q'Keeffe, A., McCarthy, M.J. & Carter, R. From corpus to classroom: language use and language teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.

⁶Q'Keeffe, A., McCarthy, M.J. & Carter, R. From corpus to classroom: language use and language teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2007.

⁷Crowdy, S. Spoken corpus design. Literary and Linguistic Computing: 217-225. 1993; Biber, D. Representativeness in corpus design. Literary and Linguistic Computing: 243-257. 1993; McCarthy, M.J. Spoken Language and Applied Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press, 1998; McEnery, T. and Wilson, A. Corpus Linguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press, 1996.

⁸Carter, R. A. and McCarthy, M. J. Cambridge Grammar of English: A Comprehensive Guide to Spoken and Written English Grammar and Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1996.

Aziza AHMEDOVA,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti

ANALITIK FOLKLORIZMLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida qo'llangan analitik folklorizmlarning badiiy-estetik va lingvopoetik xususiyatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, folklorizm tushunchasining o'rganilish darajasi hamda uning tasnifi to'g'risida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: folklorizm, oddiy folklorizm, murakkab folklorizm, analitik folklorizm, qo'shiq, olqish, qarg'ish.

Annotation. The article examines the artistic, aesthetic and linguistic features of analytical folklorism, applied in the novel by Abdulhamid Suleiman oglu Chulpan "Day and Night". The degree of knowledge of the concept of folklorism and its classification are also considered.

Key words: folklorism, ordinary folklorism, complex folklorism, analytical folklorism, song, blessings, curse.

Аннотация. В статье рассматриваются художественно-эстетические и лингвистические особенности аналитического фольклоризмов, использованного в романе Абдулхамид Сулеймана оглы Чулпана "День и ночь". Также рассмотрена степень изученности понятия фольклоризма и его классификация.

Ключевые слова: фольклоризм, обычный фольклоризм, сложный фольклоризм, аналитический фольклоризм, песня, благословение, проклятие.

Tadqiqotlarda folklorizm tushunchasining yozma adabiyot paydo bo'lishi bilan birga yuzaga kelganligi ko'p ta'kidlanadi [5:12]. Folklorizm termini XIX asrda fransuz folklorshunosi P.Sebiy tomonidan taklif qilingan va yozuvchi, tanqidchi va jurnalistlarning xalq og'zaki ijodi sujetlari, motivlari va qiziqishlarini tasvirlash uchun ishlatilgan [7]. Folklorizm bu – xalq og'zaki ijodi merosini mukammal san'at asarlarida, badiiy havaskorlik namunalarda, badiiy adabiyotda qo'llash, shuningdek, keng xalq ommasiga targ'ib qilishdir [6].

O'zbek adabiyotshunosligida folklorizmlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish XX asrning 60–70-yillariga kelib birmuncha kuchaydi. N.Mallayev, G'.Jalolov, G'.Mo'minov, O.Sobirov, B.Sarimsoqov, I.Yormatov, M.Amilov, S.Asqarov, D.Quvvatova, Sh.Sulaymonov, L.Sharipova kabi ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishdi. B.Sarimsoqov o'zbek adabiyotida mavjud folklorizmlarni struktura hamda badiiy asar to'qimasida bajargan funksiyasi jihatidan ikki tipga ajratadi: oddiy folklorizmlar va murakkab folklorizmlar. Murakkab folklorizmlarni: a) analitik folklorizm; b) sintezlashgan folklorizm; d) stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar ko'rinishida uch guruhga bo'ladi [4:37–45].

L.Sharipova "XX asrning 70–80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar" mavzusidagi nomzodlik ishida analitik folklorizmlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Analitik folklorizm ... folklor materiali bo'lib, asar tarkibida alohida ajralib turadi. Xalq maqolidan boshqa istalgan folklor janri: rivoyat, afsona, qarg'ish, olqish, qo'shiq to'liq holda hamda doston va qo'shiqlardan parchalarning badiiy asar tarkibida keltirilishidan analitik folklorizm hosil bo'ladi" [5:46].

Analitik folklorizmlar asarning badiiy to'qimasi, uning yetakchi g'oyasi bilan organik birikib keta olmasligi jihatdan xarakterlanadi [4:41]. Analitik folklorizm mohiyatan undalma, kirish so'z kabi sintaktik munosabat

ifodalovchi vositalarga monand. Zero, undalma, kirish so'z gap tarkibida turib, gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, ammo gap uchun juda zarur unsur hisoblanadi [5:43]. Bizningcha, analitik folklorizmlarni mohiyatan undalma va kirish so'zga o'xshatish to'liq o'zini oqlamaydi, hatto sintaktik munosabat jihatidan ham. Chunki folklorizmlar tabiatan moslashuvchanlik xususiyatiga ega. Ular matnning muayyan bir qismi yoki asarning yakuni bilan bir butunlik hosil qiladi. Buni kirish so'z yoki undalmadagi aloqadorlikka o'xshatish to'g'ri emas. Masalan, kirish so'z yoki undalmani ishlatmasangiz ham sintaktik qurilmaning ma'nosi o'zgar olmaydi. Ammo badiiy asardan analitik folklorizmni chiqarib tashlasangiz, asar mazmuniga emas, balki badiiy-estetik jihatiga ham putur yetadi. Ya'ni ushbu tipdagi folklorizmlar asar sujetiga singib ketmaydi, deyish to'g'ri bo'lmaydi, chunki ular asarning bosh g'oyasiga aloqador unsur sifatida badiiy asarga ramziy va falsafiy ruh bag'ishlaydi. Asar ta'sirchanligini oshiradi.

Analitik folklorizmlar ijodkorning mahoratiga bog'liq holda turli shakllarda uchraydi. B.Sarimsoqov ularni ikki shaklda uchrashini aytib o'tgan: a) folklorizm o'zining folklordagidek to'liq shaklida; b) folklorizm mazmunan saqlansa ham, biroq shaklan o'zgartirilgan, ko'pincha, qisqartirilgan, ishlov berilgan holda keltiriladi [4:42]. Demak, analitik folklorizmlar oddiy folklorizmlardek to'liq shaklda, ya'ni o'zgartirilmagan holda hamda muallifning mahoratidan kelib chiqib o'zgartirilgan, ishlov berilgan analitik folklorizmlar holda asarlarda uchraydi. Biz bu tasnifga uchinchi bir shaklni – **shaklan o'xshash, mazmunan yangilangan** folklorizmlarni ham qo'shishni maqsadga muvofiq deb bildik. E'tibor berilsa, B.Sarimsoqov tasnifining birinchi shaklida aynan o'zgarishsiz qo'llangan folklorizmlar nazarda tutilgan. Ikkinchi shaklda esa mazmuni saqlangan, shakli o'zgaragan folklorizmlar haqida so'z boradi. Badiiy asarda folklo-

rizmlarning shakli deformatsiyaga uchrashi ko'p kuzatiladi. Biroq muayyan shaklni saqlagan holda mazmunni transformatsiya qilish, yangilash, o'zgartirish kabilar ham badiiy niyatga muvofiq amalga oshiriladi. Shuning uchun tasniflashda bunday ko'rinishlarni ham inobatga olish kerak, degan fikrdamiz.

I.Yormatov B.Sarimsoqovning tasnifini davom ettirgan holda analitik folklorizmlarni bajargan vazifasiga ko'ra to'rtga bo'ladi: 1) analitik folklorizm badiiy asar to'qimasining bosh g'oya yoki temaga ramziy aloqadorlikka ega bo'lgan voqea-hodisalarni mujassamlashtiruvchi bo'lagi (epizod) sifatida qo'llanadi; 2) analitik folklorizm asarning badiiy to'qimasida to'liq ishtirok etadi, ammo u bilan organik birikib ketmaydi; 3) analitik folklorizm qahramon ruhidagi ichki dramatik kolliziyalarni ochib beruvchi muayyan epizodga qo'llanadi; 4) analitik folklorizm vaziyat talabiga ko'ra ma'lum bir epizoddagi na qo'llanib, adabiy qahramon hayotida sodir bo'layotgan voqealarning reallashuviga yordam beradi [1:57–58.]

I.Yormatov tasnifida analitik folklorizmlar "... asar to'qimasiga singdirib yuboriladi", deb biroz chalkashlikka yo'l qo'yilgan. Keyinchalik, I.Yormatov tasnifining tartibi va ifodasiga L.Sharipova biroz o'zgartirish kiritadi. Olima analitik folklorizmlarning asar sujetidagi o'rni-ga ko'ra dastlab ikki ko'rinishga egaligini ta'kidlaydi: 1) sujetning boshidan oxirigacha ishtirok etadigan analitik folklorizm; 2) epizodik analitik folklorizm. U sujetdagi vazifasiga ko'ra uch ko'rinishda bo'ladi: a) badiiy asar to'qimasidagi bosh g'oya yoki mavzuga ramziy aloqador bo'lgan analitik folklorizm; b) qahramon ruhiyatidagi ichki kolliziyani ochib beruvchi analitik folklorizm; d) qahramon hayotida sodir bo'layotgan voqealarning aniqlashuviga yordam berish uchun keltirilgan analitik folklorizm.

Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida oddiy folklorizmlar bilan birga murakkab folklorizmlardan ham unumli foydalangan. Ularning har biri roman sujetida muayyan lingvopoetik vazifa bajargan. Bu bilan romanning ta'sirchanligi, badiiy-estetik qimmati ortgan. Romanda qo'shiq, olqish, qarg'ish namunalarini aynan yoki o'zgartirilgan holda qo'llash orqali asar mazmunini boyitgan hamda qahramonlar ruhiyati tasvirining ishonarli chiqishiga erishgan.

"Uzun-uzun arg'amchi-yo...

Qizlar qo'shilishdi:

...Halinchakka,

Chakan ko'ynak yarashar

Kelinchakka.

Chakan ko'ynak yengiga,

Chakan ko'ynak yengiga

Tut qoqaylik...

Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'ubor-siz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi".

"Yor-yor"ni qizlar qorong'i kechada aravada ketayotgan vaqtlarida aytishadi. Ilgari zamonlarda turmushga chiqayotgan qiz o'z turmush o'rtog'ini faqat g'ushangadagina ko'rishi mumkin bo'lgan. Ba'zan davlatmand odamlarning ikkinchi, uchinchi, hatto to'rtinchi xotini bo'lish taqdirida yozilgan qizlar ham bo'lgan. Ularning

kelajaklari shu qorong'i tunday mavhum bo'lgan. Bunday qismat ifodasi yor-yorda aks etmasligi mumkin emas edi. Zebi ham "qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'nglini", otasining gaplari, achchiq hayoti, mavhum kelajagini unutib, yuragini qo'shib qo'shiq qilib aytadi. Bu bilan "yuragida tugilib yotgan zo'r tugunni yechib yuborgan edi". Yozuvchi ushbu holatni shunday mahorat bilan tasvirlaydiki, xuddi qizning yonida u bilan birgalikda shu aravada ketayotgandek bo'lasiz. Agar ushbu o'rinda qo'shiqdan, ya'ni analitik folklorizmdan voz kechilsa, asarda ta'sirchanlik va jozibaga putur yetadi. Asar so'ngida ham yozuvchi qo'shiqdan foydalanadi. Taqdirning achchiq zarbalariga dosh berolmagan "jinni" onaning ruhiyati, qalb azoblarini ochib berishda qo'shiqning estetik qimmati juda katta: "Qorilar, domlalar, parixon, azayimxon, duoxon va boshqalarga pul berib o'qitdilar, ko'chirtirdilar, dam soldirdilar – foydasi bo'lmadi. Hamon o'sha eshonnikidagi singari har kimga qizini maqtab gapirar, so'ngra ho'ngrak otib achchiq-achchiq yig'lagach, o'zi to'qigan baytlarini o'qirdi:

Zebi, Zebi, Zebona,

Men ko'yingda devona.

Seni sotdi o'z otang,

Men bo'layin sadag'ang!

Zahar qilib oshingni

Pirim yedi boshingni!

Zebi, Zebi, Zebonam!

Qayda qolding, dilbarim?

Agar shu qo'shiq ishlatilmaganida dard va alamdan o'rtangan alamzada ona qiyofasini bu qadar aniq tasvirlash imkoni bo'lmas edi [3:119].

Asardagi "Yor-yor" ijro epizodi bilan mushtipar ona tilidan yangragan dardli qo'shiq bir-birini to'ldiradi: ona tilidan aytilgan qo'shiq an'anaviy qo'shiqchilik yo'lida improvizatsiya qilingan yangi qo'shiq. Oldindan tayyor shakl ichi tamoman yangi mazmun bilan, shaxsiy fojia – dard bilan to'ldirilgan. Bunga o'xshash holatlarni badiiy asarlarda ko'p kuzatish mumkin va bunday folklorizmlarni badiiy matnlar asosida alohida tadqiq qilish lozim. "Yor-yor" mazmunidagi "baxtiyorlik", makon va zamon tasviridagi "g'amginlik", "andisha" va "hadik" mazmunlariga ishora qiluvchi "qorong'ilik" kuchli kontrast hosil qilib, emotsional-ekspressivlikni yuqori darajada ifodalagan.

Bundan tashqari, "Kecha va kunduz" romanida xalq olqish va qarg'ishlari shaklidagi analitik folklorizmlardan ham keng foydalanilgan. "Uzoq o'tmishda kishilar so'zning inson ruhiyatiga ko'rsatadigan ta'sirini bevosita so'z mazmunidan emas, balki uning tarkibidagi allaqanday g'ayritabiiy kuch-qudrat ta'siridan deb tushunganlar. Shuning uchun ham ularning tasavvurida so'zlar yaxshi va yomon kabi turlarga ajralgan. Yaxshi so'zlar insonga sog'liq, baxt keltirsa, yomon so'zlar ularga baxtsizlik keltirgan" [2:109].

"Orzu-havasingga yet", "O'zingdan ko'pay", "Bola-chaqa ko'r", "Bor bo'l", "Omon bo'l", "Sog' bo'l", "Umring uzun bo'lsin" kabi olqishlar turli vaziyatlarda turli yoshdagi istalgan kishilarga ezgu niyat bilan aytiladi. Olqishlar yaxshilik tilash, xavf-xatardan asrash, ruhiyatni ko'tarishga xizmat qiladi. Olqishlarni barcha jabhalarda qo'llash mumkin.

Qarg'ish – o'zbek folklorining mustaqil janri hisoblanadi. U insonlarga faqat yomonlik tilash uchun ishlatiladi. Romanda qo'llangan qarg'ishlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. O'z-o'zini qarg'ash. "O'z-o'zini qarg'ash nochor qolganda, yashashdan to'yganda, baxtsizligini his qilganda qo'llanadi. Bunday hollarda, ko'pincha, o'lim tirovchi qarg'ishlar qo'llanadi". [5:63]

"– Voy sho'rim! Shuncha erkak o'tirsa-ya! O'lganim ming marta yaxshiroq! – So'ngra ovozi pasaytiribrog tirkadi: – Otamning piriday kap-katta sallalik domla o'tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman?.."

Adib ushbu o'rinda analitik folklorizmga ikki vazifani yuklaydi: 1) Zebining soddaligini ko'rsatish; 2) Zebining e'tiqodi mustahkamligini ko'rsatish. Matndan folklorizm olib tashlansa, uning ekspressiv-bo'yoqdorligi, ta'sirchanligi va xalqchilligi yo'qoladi.

2. O'zgalarni qarg'ash. Razzoq so'fi eshonning qis-tovi bilan qizini mingboshiga to'rtinchi xotin qilib uzat-

di. Qizi bu ayancli nikohga qarshilik qilolmadi. Ammo taqdirning "achchiq haziligiga" ham rozi emas. Ota noiloj ahvolda qolgan. Qizini murosaga keltirmoqchi, hammasiga ko'nikib, tinchlikda yashashini istaydi. Yozuvchi ushbu holatni asarda mahorat bilan tasvirlaydi: "Otasi shahardan piyoda kelgan edi. Oppoq soqoli bilan ko'z yoshlarini to'kib yig'ladi. "Qizim, – dedi, – meni munaqa sharmanda qiladigan bo'lsang, ilohim, bo'yning taging-da qolsin... Murodingga yetmagin".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, analitik folklorizmlar epitet o'rnida, muallif nutqida hamda qahramonlar nutqini individuallashtirishda keng qo'llaniladi. Kitobxonning qalbiga yo'l topish, fikrlashga undaydi. Odatda, xalq maqollaridan boshqa istalgan folklor janri muayyan badiiy matnda qisman yoki to'liq holda badiiyat talablari doirasida qo'llanilishi mumkin. Bunday analitik folklorizmlar badiiy asarda muhim estetik vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti, 1982. 2-son.
2. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. 256-bet.
4. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1980. 4-son.
5. Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizmlar. Filol. fanlari nom... dissertatsiya. – Toshkent, 2008.
6. <http://www.chronobiology.ru/wp-content/plugins/gtrans>
7. <https://www.litdic.ru/folklorizm>

Odil FOZILOV,

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi;

Shuhrat MURODOV,

Qarshi davlat universiteti Fakultetlararo chet til kafedrasida o'qituvchisi

CHET TILNI O'QITISHDA XALQ PAREMALARINING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillari leksik fondida mavjud bo'lgan paremalarning chet til o'qitishdagi ta'limiy va tarbiyaviy o'rni, ahamiyati yoritib berilgan hamda misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: parema, konsept, ta'lim, tarbiya leksemalari, muqobil, lingvomadaniy tahlil.

Annotation. This article deals the educational role of proverbs in the lexical base of the English and Uzbek languages in foreign language teaching and analyzes them with authentic examples.

Key words: paremia, concept, education, educational lexemes, equivalent, linguacultural analysis.

Аннотация. В статье освещается воспитательная роль пословиц в лексическом фонде английского и узбекского языков в обучении иностранным языкам, и они анализируются на примерах.

Ключевые слова: пословица, концепт, образование, образовательные лексемы, эквивалент, лингвокультурный анализ.

Maqol va matallar xalqning ko'p asrlik hayot tarzi va asrlar davomida to'plagan tajribalari, pand-nasihati, ma'naviy-axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aksidir. Maqol – xalq idrokining mahsuli, uning hukmi, turmushdagi turli voqeahodisalarga munosabatining qisqa, lo'nda va aniq ifodasi. Maqol hayotda, kishilarning bir-biri bilan muomalada bo'lish

jarayonida tug'iladi. Xalq maqoli xalqning mulkidir, unda xalqning yashash tarzi, urf-odat va an'analari, atrof-dagi kishilarga munosabati, dunyoqarashi, ichki dunyosi, ma'naviyati va ruhiyati o'z ifodasini topadi.

Maqollar borki, ularda "beozor va shirin" pand-nasihahat qilinadi, aql o'rgatiladi, mard va botir bo'lishga da'vat etiladi,

“achchiq” ayblar inson yuziga ochiq-oydin aytiladi. Ular xalq orasida tug‘ilib, ota-bobolar so‘zi avlodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tadi. Bu merosni xalq ko‘z qorachig‘iday saqlaydi.

Har bir maqol ham ma‘no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ularda qandaydir bir umumiylik bor. Masalan, o‘zbek xalqida “Bir kun tuz totgan joyga qirq kun salom ber” maqoli ko‘p qo‘llaniladi. Bu maqol orqali inson yaxshilik ko‘rgan yerini, odamini aslo unutmasligi, unga sira ham yomonlikni ravo ko‘rmas, uni hamisha hurmat qilishi kerakligi uqitiriladi. Ushbu maqolning ingliz tilidagi muqobili “*Don’t look a gift horse in the mouth*” maqoliga mos keladi.

“Nima eksang shuni o‘rasan”, “Har kim ekanin o‘rar”, “Salomga yarasha alik bo‘ladi”, “Musht ursang, shapaloq kut” kabilar (agar birovlariga yaxshilik qilsang, boshqalardan ham yaxshilik ko‘rasan; boshingga biror falokat keldimi, sababini o‘zingdan qidir; yomonlik qilib, aslo yaxshilik kutma, degan ma‘nolarda) xalq tilida keng iste‘molda bo‘lgan maqollar hisoblanadi. Ular ingliz tilidagi “*As you sow, so shall you reap*”, “*Do to others as you would have them do to you*”, “*Give as good as one gets*” maqollariga to‘g‘ri keladi.

“Sutdan og‘zi kuygan qatqini ham puflab ichadi” maqoli ehtiyotsizlik yoki noshudlik bilan bir ish qilib qo‘yib, pand yeb qolgan yoki ziyon-zahmat ko‘rgan, keyin har bir ishda nihoyatda ehtiyotkorlik qiladigan odamning holatini ifoda etadi va shunday odamlarga nisbatan ishlatiladi. Uning ingliz tilidagi muqobili: “*A burnt child dreads the fire*”.

“O‘zingga ehtiyot bo‘l, qo‘shningni o‘g‘ri tutma”. Kishi har bir narsasini, avvalo, o‘zi ehtiyot qilishi lozim. Biror narsani yo‘qotib qo‘ysa, yoki qo‘ygan joyidan topa olmay, boshqa birovdan ko‘rsa, bu tuhmat unga og‘ir botadi va oraga sovuqchilik tushadi. Maqolning ingliz tilidagi muqobili: “*An open door may tempt a saint*”.

“Birovga choh qazisang, o‘zing tushasan”, “Yoqma – pisharsan, qazima – tusharsan”. Boshqasiga zarar berish maqsadida tuzoq hozirlagan odam bu tuzoqqa, avvalo, o‘zi tushadi. Ya‘ni inson birovga yomonlikni ravo ko‘rsa, unga o‘zi giriftor bo‘ladi. Ingliz tilidagi muqobili: “*Curses, like chickens, come home to roost*”.

“Ikki kemandi boshini tutgan g‘arq bo‘ladi”, “Ikki quyondi quvlagan birini ham tutolmas”. Bu maqol birdaniga katta manfaat ko‘rish niyatida biryo‘la ikki ishning ketiga tushma, bunday qilsang, ikkalasining ham uddasidan chiqa olmaysan, degan ma‘noda qo‘llaniladi. Ingliz tilidagi “*If you run after two hares, you will catch neither*” yoki “*Between two stools you fall to the ground*” maqollari ularning muqobili bo‘la oladi.

“Gulning tikoni ham bor”, “Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi”, “Odamning olasi ichida”. Har bir kishi o‘ziga yarasha

kamchilikka ega bo‘ladi; inson doimo bir xil bo‘lavermaydi; yaxshi insonning yomon tomoni ham bo‘ladi; bir inson har doim boshqasiga yaxshilik qilsa, uning yomonlik qilishi mumkinligini ham unutmaslik kerak, degan ma‘nolarni anglatuvchi bu maqollar ingliz tilida “*Everyone’s faults are not written in their foreheads*”, “*There is no garden without its weeds*” maqollari orqali ifodalanadi.

“Qozonga yaqinlashsang qorasi, yomonga yaqinlashsang balosi yuqar”. Bu bilan qo‘lidan faqatgina yomon ish keladigan yoki yomon fe‘l-atvorga ega bo‘lgan inson bilan do‘st tutingan odamga ham yomon xislatlar o‘tadi, u ham yomon do‘sti kabi bo‘lib qoladi deyilmoqda. Ingliz tilidagi muqobili: “*He that touches pitch shall be defiled*”.

“Pichoqni oldin o‘zingga ur, og‘rimasa birovga”, ya‘ni kishi birovga biror yomonlik qilishdan avval uning o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish kerak, boshqalarga zinhor yomonlikni ravo ko‘rmasligi darkor. Bu maqol ingliz tilidagi “*Do as you would be done by*” maqoliga mos keladi.

Ko‘rinadiki, bir qator oddiy so‘zlar bilan ta‘bir qilinadigan chuqur axloqiy g‘oya qisqa, ixcham bir qolip shakliga kirgan. Demak, shakl ixchamligi maqollarga xos ikkinchi belgidir. Maqollar tarkibidagi so‘zlarning bir-biriga qofiyalanib kelishi va alliteratsiya maqollarning shakl xususiyatlariga xos belgilaridandir. Masalan, “oy tunda kerak, aql kunda kerak”, “kun ko‘rmagan kun ko‘rsa, kunduz kuni chiroq yoqar”.

Ko‘pincha, maqollarga xos uchinchi belgi ularning majoziy (ko‘chma) ma‘noda ishlatilishidir. Masalan, “daraxt bir yerda ko‘karadi”.

Ba‘zan maqol bilan matal o‘rtasida umumiylik ko‘zga tashlanadi. Bu umumiylik shundan iboratki, har ikkala kategoriya ham nutqni jonlantirish, jozibador va orazli qilish, fikrni tayyor nutq qoliplari, formulalari bilan ifodalash, uni mazmundor qilishda ishlatiladi. Biroq matallar tugal fikrni o‘zida ifodalagan maqollardan jiddiy farq qiladi.

Matal aytilmoqchi bo‘lgan fikr, muddao va boshqa vositalarni ifodalaydigan ko‘chma ma‘noli nutqiy tarkib bo‘lib, xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Matal fikrni to‘la bayon etmay, balki unga ishora qiladi. Matallarning paydo bo‘lishi nutqda turg‘un iboralarning yuzaga kelishi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ularda qiyoslanuvchi elementlar tafovuti yaxshi saqlanadi. Matallar har doim, tarkibi qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, grammatik jihatdan gapning bir bo‘lagi bo‘lib keladi.

Maqol va matallar nafaqat haqiqatni aytib, yaxshi maslahatlar beradi va shaxs shakllanishida katta rol o‘ynaydi, balki ta‘lim jarayonida dars sifati va samaradorligini ham oshiradi. Shu bois, o‘quvchilar o‘rgangan maqollarini yozib, yodlab borishlari lozim. Ular, kezi kelganda, maqol va matallardan ijodiy foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayev M. Inglizcha maqol, matal va idiomalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
2. Yuldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Doktorlik diss. – Toshkent, 1993.
3. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Москва, 1984.
4. O‘zbek xalq maqollari / Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq, 2005. 253-bet.
5. Proverbs-maqollar-posloviцы / Tuzuvchilar: M.Karomatova, H.S.Karomatov. – Toshkent: Mehnat, 2000. 400-bet.
6. The Oxford Concise Dictionary of Proverbs. John Simpson and Jennifer Speake. Third Edition, Oxford University Press, 1998. – p. 364.
7. The Oxford Dictionary of Proverbs. Jennifer Speake, John Simpson. Fifth Edition, Oxford University Press, 2007. – p. 625.
8. Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati / Tuzuvchi: M.Sodiqova. – Toshkent, 1993. 76-bet.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti // www.ziyouz.com kutubxonasi.
10. O‘zbek xalq maqollari / Yozib oluvchilar va to‘plab nashrga tayyorlovchilar: S.Xudoyberganov, M.Afzalov, S.Ibrohimov. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978. 288-bet.
11. O‘zbek xalq maqollari: 2 tomlik / Mas‘ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Fan, 1987. – T.1. 368-bet.
12. O‘zbek xalq maqollari: 2 tomlik / Mas‘ul muharrirlar: T.Mirzayev, B.Sarimsoqov. – Toshkent: Fan, 1988. – T.2. 373-bet.
13. Qanotli so‘zlar: Maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar / To‘plab nashrga tayyorlovchi: Siddiqov E. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. 256-bet.

MATNNI O'QIB TUSHUNISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Matnni o'qib tushunish insonning ko'rish a'zosi va vizual ma'lumotni qayta ishlash tizimi orqali amalga oshadi. Ko'z tekislikdagi grafik chiziqlar (harflar)ni qabul qiladi. O'qish – insonning ikkilamchi lisoniy ko'nikmasi bo'lib, u og'zaki nutq ko'nikmasi asosiga quriladi. Yozma nutq ko'nikmasi og'zaki nutq ko'nikmasi ustiga quriladi. O'qishni o'rganish – inson ongida fonemalar bilan grafemalar o'rtasida to'g'ri aloqa o'rnatish demakdir. Mazkur aloqaning to'g'riligini yozuv tizimidagi qonun-qoidalar belgilab beradi.

Tushunish – o'zida mavjud bo'lgan bilimlarni yangi o'qilayotgan yoki eshitilayotgan xabar bilan solishtirish, taqqoslash orqali sodir bo'ladi. Tushunish, ingliz tilshunosi Cheryl J.Gowie fikricha, “Bolada mavjud bo'lgan bilimlarga mos matn bolada uni tushunishga tuyuk ochadi. Berilayotgan ma'lumot uning oldingi bilimni chuqurlashtirishi, aniqlashtirishi kerak”. [1:8]

I.Azimova matnni qabul qilishni “mazmuniy persepsiya” (mazmunni tushunish) termini bilan atagan va uni qabul qilishning o'zi va tushunish darajasi [2:61] mavjudligi, qabul qilishning mohiyati sifatida matn mazmuniy proyeksiyasi (obrazi)ning o'quvchi ongida hosil bo'lishiga aytilishini ta'kidlagan. Har bir odam individual shaxs bo'lganligi uchun bu jarayon hammada har xil sodir bo'ladi, ya'ni bitta matnni o'n nafar o'quvchi o'n xil tushunishi mumkin. [3:221]

Matn o'quvchining yoshiga mos bo'lish bilan birga grammatik, sintaktik va semantik jihatdan to'g'ri tuzilishi lozim, negaki bu omillar matnning tushunilishiga katta ta'sir qiladi. Masalan, matn tarkibida qo'llaniladigan so'roq so'zli gaplarda savol mazmuni kuchli bo'lsa, “-mi” yuklamasi yordamida tuzilgan so'roq gaplarda ko'proq darak mazmun anglanadi. Ammo ko'p o'quvchilar aynan shunday so'roq so'zli savollarga e'tiborsizliklari sabab noto'g'ri javoblarni yozadilar.

Ta'lim jarayonida o'zlashtirishning muvaffaqiyati ta'lim mazmuni, o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavjudligi ta'lim metodikasining rivojlanganligiga bog'liq. Sinflar kesimidagi darsliklarda beriladigan mashqlar, matnlar DTS va dasturda belgilangan tartibda o'quvchilarga taqdim etiladi.

DTSda ona tili fanidan 5-sinf o'quvchilariga fonetika, grafika, orfografiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis bo'limlari bilan birga “nutq va matn” bo'limi ham bo'lib, unda o'quvchilar matnning tuzilishi, xatboshi, matn qismlari, bosh va kichik mavzular haqida tushun-

chalar, ijodiy matn, insho haqida bilimga ega bo'ladi.

5-sinf o'quvchilari uchun matnni o'qish va uni tushunish bo'yicha **nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish)**da quyidagilar belgilangan [4:15–20]:

- mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qiy oladi;
- 8–10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi;
- tanlangan matndan asosiy axborotlarni tushuna oladi;
- sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi.

Lingvistik kompetensiyada (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):

- yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi, matndagi so'zlar ma'nosini izohlaydi va leksik tahlil qila oladi. [4:15–20]

Davlat ta'lim standartida belgilanganidek, 5-sinf o'quvchilari sodda matnlarni o'qib tushuna olishlari, matn tarkibidagi so'zlar ma'nosini izohlab, tahlil qila olishlari kerak. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish uchun esa o'qituvchi tomonidan ta'limni to'g'ri tashkil-lashtirish, o'quvchilarning mavjud bilimlarini aniqlash, xabarni chuqur idrok qilish malakasini rivojlantirish usullaridan foydalanish talab etiladi.

Matnni o'qib tushunishni ta'minlaydigan omillar yuzasidan bir qancha tilshunoslar tajriba o'tkazganlar. O'qilgan matnning tushunilishi lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog'liq. Matnni obyektiv tushunish, shaxsning psixik holatidan kelib chiqadigan hayotiy tajribasi mahsuli bo'lgan xulosalari va his-tuyg'ulari orqali qabul qiladigan subyektiv tushunish; matnda tanish yoki notanish so'zlarning ishlatilishi; sarlavhaning qiziqarliligi va yangiligi darajasi; o'qish uchun taqdim qilinayotgan matnning axborotga boyligi; o'quvchilarga taqdim etilayotgan matnning hajmi va boshqalar.

O'quvchilar uchun matn tanlashda (xoh 5-sinf bo'lsin, xoh 10-sinf) uning o'quvchi uchun qiziqarli, yangi va tushunarli bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. Matnni o'qishdan maqsad – uni tushunish. O'quvchining lug'at boyligi yoshiga mos holda yetarli darajada oshgan, nutqi me'yor darajasida o'sgan bo'lsa, u o'qituvchi tomonidan tanlab berilgan matnni to'g'ri va to'liq tushuna oladi.

Matnning o'qilishi va tushunilishida matn sarlavhalarining ham roli katta. Biz 5-sinflarda olib borgan tad-

qiqotimiz davomida turli sarlavhali matnlardan foydalandik: "Asalari raqsi", "Tishlaringiz tekismi?", "Zaxira qo'shin", "Dunyoni o'zgartirgan 10 ixtiro", "Ob-havoni ilmiy bashorat qilamiz", "Nemezida – o'lim yulduzi", "O'simliklar nega rang-barang?", "Kislorod", "Bo'riining avlodlari", "Bir yulduzmi yoki besh yulduz?", "Dengiz josus"i" va boshqalar. Ko'rib turilganidek, sarlavhalardan matnning qiziqarli va kerakli ma'lumot bera olishi ma'lum. Natijalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, matnlar yuzasidan berilgan topshiriqlar ba'zi matnlarga nisbatan (Oqsaroy, osmon ostidagi muzey shahar, tabiiy immunitetning otasi) sezilarli darajada yaxshi, hatto a'lo darajada bajarilgan. Xatoga yo'l qo'yilgan matnlarda o'quvchi ba'zi so'zlarni o'z ma'nosida tushunmagan, mazkur so'zlar unga yaqin va bog'liq bo'lgan boshqa so'zga assotsiatsiya bo'lgan.

O'qib tushunishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri – bu matnda notanish so'zning ishlatilishi sanaladi, negaki, o'quvchi o'qish davomida so'zlarning ma'nolariga ko'ra matnning gaplari va qismlarini bir-biriga bog'lab tushunadi. Matnda notanish so'zning uchrashi esa uning bog'lanayotgan ma'nosida uzilishga sabab bo'ladi. Natijada o'quvchi so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni to'g'ri anglamaydi va matnning umumiy ma'nosini tushunishga qiynaladi.

O'qish uchun berilgan matnning informativligi (ma'lumot bera olish darajasi) ham tushunishga ta'sir qiladigan omillardan biri hisoblanadi. Matnda berilayotgan xabar umuman yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsa, uning yangi xabar berish darajasi nolga teng deb hisoblanadi. Ma'lum miqdorda informativlikka ega bo'lgan xabar o'quvchining mavjud bilimiga tayanib uni boyitadi va tushunishni ta'minlaydi. [2:66]

Tajriba ishlarini tekshirish davomida shunday xulosaga kelindiki, o'quvchilarning o'qigan matnlari tushunilishini ta'minlash o'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlarning to'g'ri tanlanishi va tahlil qilinishi, ularning natijalariga ko'ra faoliyatni yaxshilashga bog'liq. Ona tili darslari davomida o'quvchilarga tushunishni ta'minlaydigan topshiriqlar berish tavsiya etiladi. Bular: savollarga javob berish; test; nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni topib yozish; matn qismlariga sarlavha qo'yish; jadval ichida berilgan ma'lumotlarni to'g'ri, noto'g'ri, unday ma'lumot umuman berilmaganligini aniqlab belgilangan katakka belgi qo'yish; matnda tasvirlangan yoki urg'u berilgan jism(lar) rasmini chizish; matnlarni qismlarga bo'lib, har biriga sarlavha qo'yish; matnda urg'u olgan so'zlarning izohini topish; raqamli izohlarga ma'nosi to'g'ri keladigan xatboshini topish; matnda berilgan ma'lumotlarni jadvaldagi savollar asosida tasniflash; boshlangan gaplarni matn ma'nosi asosida davom ettirish; matnga o'z sarlavhasidan tashqari yana qo'shimcha sarlavha qo'yish; matnning eng muhim o'rinlarini o'z so'zi bilan yozish kabilar.

Biz o'quvchilarning matni o'qib, uni qay darajada tushunganliklarini aniqlash maqsadida bir-biridan farqlanadigan turli topshiriqlar tarqatdik hamda har bir topshiriq tushunishning ma'lum darajalarini aniqlashga guvoh bo'ldik. O'tkazilgan tajriba darslaridan birida

"Tishlaringiz tekismi?" sarlavhali quyidagi matn va uning ustidagi topshiriqlar berilgan edi.

I topshiriq. To'g'ri javobni belgilang:

1. Tilning og'iz bo'shlig'idagi o'rni qayerda?

- A) yuqori va pastki jag'ning orasida
- B) yuqori jag' tishlarining orasida
- D) pastki jag'ning ustida
- E) istalgan joyda

2. Yuqori jag'da bo'shliqning paydo bo'lishi nimaga olib keladi?

- A) nafas olishning qiyinlashishiga
- B) og'izning ochilib qolishiga
- D) tishning istalgan tarafga o'sishiga
- E) burunning yopilib qolishiga

3. Tilning kuchi tishlarni qiyshiq qilib qo'yishga

- A) yetmaydi
- B) yetadi
- D) ba'zilarga yetadi
- E) yetishi mumkin

4. Qanday sabablarga ko'ra tishlar qiyshiq bo'ladilar?

- A) til bilan o'ynashdan
- B) qo'llarini so'rg'ich kabi so'rishdan
- D) og'izdan nafas olishdan
- E) barcha javoblar to'g'ri

II topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing:

1. Tishlarning qiyshiq bo'lishida ko'proq kim aybdor?
2. Nima uchun tishlarimiz tekis va chiroyli bo'lishini istaymiz?
3. Qiyshiq tishlarni davolash uchun umrning qaysi davri qulay va oson?

Savollarga javob berish topshirig'i o'quvchidan savolni tashkil qilayotgan so'zlarning har biriga diqqatni qaratgan holda undan so'ralgan bitta faktga aniq javob berishni talab qiladi. Shu sababli darslar davomida o'quvchilarga savolda nima so'ralayotganligi o'qituvchi tomonidan tushuntirilishi kerak. Savolning mohiyatini tushunish unga to'g'ri javob qaytarishga olib keladi.

Testlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi, negaki, testlar o'quvchilarni o'qilgan ma'lumotlarning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlariga e'tibor qaratish, ularni ajratishga majbur qiladi va, o'z navbatida, ularning qay darajada tushunarli bo'lganligini aniqlashga yordam beradi. "To'g'ri – noto'g'ri" metodi yordamida o'quvchilarning matni qay darajada e'tibor bilan o'qiganliklari, so'zlar ma'nosini tushungan yo tushunmaganliklarini aniqlash mumkin. Predmetlar haqida gapirilganda uning tasvirini chizdirish yaxshi natija beradi, chunki o'quvchi chizish davomida uning qismlari, vazifalariga qiziqadi, ma'lumotlarni eslaydi, zarurat tug'alsa qayta murojaat qiladi va uni o'z qo'li bilan yaratadi. Bular esa, o'z navbatida, darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Matni o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ona tili darslarida mazkur ko'nikmaga alohida e'tibor qaratilishi, matni o'qib tushunish mashg'ulotlari muntazam ravishda olib borilishi muhim. Mashg'ulotlarda turli uslub va mavzudagi matnlarni manba sifatida olish, tushunishni tekshirish uchun savolga javob be-

rishdan to matndagi ma'lumotni rasmda ifodalashgacha bo'lgan xilma-xil topshiriqlar berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xullas, ushbu tadqiqot yuzasidan olib borilgan tajribaviy darslardagi o'quvchilarning ko'rsatkichlari tahlili

matni o'qib tushunish uchun haftada bir marta alohida shu ko'nikmaga bag'ishlangan dars o'tilganda maxsus e'tibor qaratilmagan holatdagiga nisbatan olti baravar yaxshiroq natijaga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cheryl J.Gowie, Psycholinguistic strategies for improving reading comprehension. The Elementary School Journal. Volume 79, No.2. Dec. 2015.
2. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: monografiya. – Toshkent, 2019.
3. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent, 2019.
4. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017. 15–20-betlar.
5. Arnbak, E., & Elbro, C. The effects of morphological awareness training on the reading and spelling skills of young dyslexics. Scandinavian Journal of Educational Research, 2000. pp. 44, 229–251.

O'tkur ISLAMOV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ SHAKLLARIDAGI MUAMMOLAR

Ma'lumki, til ta'limi taraqqiyotida shaxs og'zaki va yozma nutqining o'zaro uzviyligi muhim ahamiyatga ega. Chunki inson nutqi uning ham ichki, ham tashqi nutqi bilan bevosita aloqadorligi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham xalq pedagogikasida bu ikki nutq uzviyligini ta'minlashga qaratilgan alohida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ushbu ishlar tilshunoslik fanining muhim sohasi sifatida mutaxassislar tomonidan maxsus o'rganilib kelinmoqda. Bu esa shaxsning har tomonlama yetuklik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Mazkur masalaning bugungi kundagi dolzarbligi, albatta, nutqning ikki jihatiga qo'yilgan bir xil talabning qay darajada bajarilayotganligi bilan belgilanadi. Bu nutqning yozma va og'zaki shakllaridir. Yozma va og'zaki nutqning rivojlanishi hamda bu rivojlanish jaryonidagi ayrim muammoli holatlar nutq madaniyati sohasida o'z yechimini kutayotgan vazifalar sirasiga kiradi.

Tadqiqotlar davomida o'zbek tilshunosligida ham nutq madaniyati (nutqiy madaniyat) sohasining (ba'zan "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari", deb ham yuritiladi) obyekti, vazifalari haqida ko'plab ilmiy fikrlar aytilganligini kuzatamiz. Ayniqsa, nutq madaniyati masalalariga bag'ishlangan o'nlab kitoblar, maqolalar, risolalar yozgan olimlar E.Begmatov ishlarida, professorlar R.Qo'ng'urov, S.Karimov, B.Yo'doshev, Y.Tojiyev, N.Mahmudov, U.Sanaqulov qo'llanmalarida bu sohaning obyekti masalasi hal etishga qaratilgan jiddiy urinishlar bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, professor N.Mahmudov til va nutq madaniyati masalasiga juda aniq yondashgan holda "Nutqiy faoliyatda voqelangan til nutq madaniyatining obyektidir" mazmunida uning obyektini belgilasa¹, professor Y.Tojiyev "Nutq madaniyati va uslubiyat" kursining tekshirish obyekti nutqning (og'zaki va yozma) til tuzilishi

bo'lib, bu tuzilishni nutqning nutqiy bo'lmagan hodisalariga – borliq, tafakkur, ong, tinglovchi, vaziyat, so'zlovchi va, asosan, tilga munosabati nuqtayi nazaridan, shuningdek, uslublar bo'yicha tarmoqlanganligining aks etishiga ko'ra tekshiradi², deya o'z fikrini bildiradi. Olimlarning bu boradagi fikrlaridan kelib chiqqan holda mazkur maqolada ushbu soha obyektini belgilashga harakat qildik.

Namunali (madaniy) nutqiy faoliyat nutq madaniyati (nutqiy madaniyat)ning tekshirish obyektidir. Bu faoliyat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

– madaniylashgan, ishlangan, me'yorlashgan til – adabiy til;

– ishlangan, madaniylashgan tildan foydalanish qonun-qoidalarining pishiqlik holati;

– adabiy til imkoniyatlarini biluvchi, ulardan foydalanish qonun-qoidalarini, muomala madaniyati (odobi) talablariga amal qiluvchi, layoqatli shaxs – so'zlovchi (nutq tuzuvchi).

Bilamizki, namunali nutqiy faoliyat uchun, avvalo, silliqlangan, sayqallangan til kerak va bu adabiy tildir. Nutqning nutqiy bo'lmagan hodisalar bilan munosabatida uning ana shu til bilan munosabati asosiy o'rinni egallaydi. Chunki nutqning to'g'rilik, aniqlik, tushunarlilik, sofliik, ta'sirchanlik, ixchamlik kabi asosiy xususiyatlari aynan tilning nutq bilan munosabati asosida shakllanadi.

Nutqning aniqlik, mantiqlilik, jo'yalilik kabi asosiy xususiyatlari nutqning borliq, tafakkur, ong, vaziyat kabi tushunchalarga munosabati bilan belgilanadi. Nutqning ta'sirchanligi, sofliigi nutq tuzuvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Namunali nutq, asosan, to'g'ri nutq, sof nutq, boy nutq, aniq nutq, mantiqli nutq, ifodali nutq, obrazli nutq, qisqa nutq kabi sifatlarga ega bo'ladi.³ Bu sifatlarning har biri o'z

zidlariga ega. Masalan, noto'g'ri nutq, mantiqsiz nutq, tushunarsiz nutq va hokazo.

Shaxsdagi namunali nutq uning saviyasi, madaniyatini belgilab beradi. U muomala madaniyatini puxta egallagan bo'lishi lozim. Nutqiy muloqot, bilamizki, turli vaziyatlarda turli saviyadagi shaxs yoki shaxslarda bo'ladi. Bunday nutq sekin-asta o'z-o'zidan namunali nutqqa aylanadi. Namunali nutqiy faoliyat quyidagi asosiy muammolar doirasida ish ko'radi:

birinchidan, madaniy (adabiy) tilni shakllantirish, taraqqiy ettirish, uning mavqeyini belgilash va saqlash, undan foydalanishga (maqsadga muvofiq, o'rinni) munosabat;

ikkinchidan, namunali nutq tuzish va uni milliy qadriyatlar darajasidagi muomala madaniyatini talablariga rioya qilgan holda ishlatishga munosabat.

Quyidagi toifalar esa shaxsdagi nutqiy faoliyat asosini tashkil etadi: adabiy til – yomon nutq (adabiy emas); to'g'ri nutq – noto'g'ri nutq; yaxshi nutq – yomon nutq; yolg'onchilik – rostgo'ylik; ezmalik – kamgaplik; samimiylik – ig'vogarlik, tuhmatchilik, g'iybatchilik; muloyimlik – qo'pollik; shoshqaloqlik – bosiqlik; andishalilik – andishasizlik; nutqiy chechanlik – nutqiy qoloqlik (uquvsizlik); kamtarlik – takabburlik; yozma nutq – og'zaki nutq; haqqo'ylik – nohaqlik; aniqlik – noaniqlik; tushunarililik – tushunarsizlik; mantiqiylik – mantiqsizlik; chiroylilik – xunuklik; qisqalik – davomiylilik; odoblilik – odobsizlik; uyatsizlik – uyatchanlik; sukut – vaysaqilik; me'yoriylilik – me'yorsizlik kabilar.

Nutq madaniyatini sohasining taraqqiyoti haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu sohaning rivoji, albatta, shaxsdagi og'zaki va yozma nutqni shakllantirish imkoniyatlarining qanchalik tashkil etilganligiga bog'liq. Chunki og'zaki nutq har qanday insonda bor bo'lib, u shaxsning fikri, tafakkuri mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Lekin yozma nutq ham, o'z o'rnida, xuddi og'zaki nutq kabi fikr va tafakkur mevasidir. Shunday ekan, bu ikki hodisani bir-biridan ayro holda tadqiq etib bo'lmaydi.

Og'zaki nutq madaniyatini muammolaridan biri og'zaki nutq mohiyatini o'rganish bo'lib, bunda nutq tipining o'ziga xos xususiyatlari, adabiy-normativ va nonormativ tomonlarini aniqlash; adabiy-normativ, ya'ni neytral adabiy og'zaki nutqning mezon va ilmiy o'lchovlarini belgilash; og'zaki adabiy nutq uslublari, og'zaki nutqning uslubiy, vaziyatga xos ko'rinishlarini o'rganish va ularning muhim tiplarini belgilash ko'zda tutiladi. Bu:

– og'zaki adabiy nutqning uslubiy me'yorlarini aniqlash va ilmiy umumlashtirish;

– madaniy, ya'ni namunaviy og'zaki nutq ko'rinishini axtarish va uning muhim universal lingvistik va ekstralingvistik mezonlari, o'lchovlarini belgilash;

– so'zlashish-muomala odobi talablari va ularga rioya qilish;

– og'zaki nutq bilan so'zlashuv nutqi tushunchalari o'rtasidagi farqlarni tadqiq qilish;

– so'zlashuv nutqining adabiy shakli – adabiy so'zlashuv

nutqi me'yorlarini o'rganish, bu nutq tipini me'yorlash imkoniyatlarini tadqiq qilish;

– orfoepik qoidalarni mukammallashtirish va bu qoidalarining ilmiy prinsiplarini tadqiq qilish va asoslash;

– adabiy tilning "fonetik normasi" va "adabiy tilning talaffuz normasi" tushunchalari orasidagi munosabatni, mushtarak o'rinar va farqli tomonlarni o'rganish;

– og'zaki nutqning talaffuz me'yorlarini tajriba usulida o'rganishni yo'lga qo'yish;

– adabiy og'zaki nutqning radio nutqi, televideniye nutqi, ma'ruzachi nutqi, sahna nutqi singari ko'rinishlarini tadqiq qilish va ularning me'yoriy xususiyatlarini belgilash;

– og'zaki nutq uchun ekstralingvistik vositalardan foydalanish qonuniyatlarini ishlab chiqish va unga amal qilish;

– sukut saqlashga e'tibor;

– diologik, monologik nutq ta'sirchanligi;

– muomala madaniyatiga aloqador milliy talablar;

– suhbatdosh, oila a'zolari, rahbarlarga murojaat shakliga e'tiborli bo'lish kabilar deganidir.

Shuningdek, yozma nutq ham har bir inson savodxonligini belgilovchi muhim belgi bo'lib, o'z navbatida, u quyidagi talab va me'yorlarni o'z ichiga oladi:

– yozma nutq uslublari tadqiq qilish hamda bu uslublar orasidagi mushtarakliklar va o'ziga xosliklarni belgilash, neytral normativ uslub belgilari va mezonlarini o'rganish;

– madaniy yozma nutq namunasi belgilash, uning adabiy-normativ talablari, shartlarini o'rganish va ilmiy umumlashtirish;

– yozma nutqni namunaviy, madaniy nutq deb atash mezonlari, shart va talablarini axtarish hamda ilmiy asoslash;

– imlo qoidalarini takomillashtirish, undagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, imlo qoidalarini mukammallashtirishning ilmiy asoslari va metodlarini ishlash;

– imloning so'z, qo'shma so'z, murakkab so'z, birikmali termin, murakkab termin, so'z birikmasi singari tushunchalar bilan bog'liq o'rinarini chuqurroq va ilmiy asoslarda ishlash, ayniqsa, qo'shma so'zlar imlosidagi nuqsonlarni bartaraf etish;

– tinish belgilarining vazifalarini aniq belgilash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishni o'rgatish;

– husnixatga e'tiborni kuchaytirish;

– bayon etilayotgan fikrni ixcham yozishga intilish;

– ish yuritish qog'ozlarini to'g'ri to'ldirish;

– maktub yozish shakllari, odobi;

– ko'cha yozuvlarini tartibga solish;

– gazeta-jurnallar, boshqa yozma nashrlar, ish qog'ozlari, ilmiy matnlar tili tahlili;

– she'riy matnlarni tahlil qilish, baholash;

– nasriy, badiiy asarlar tilini tahlil qilish, baholash;

– dramatik asarlar tili va o'ziga xos jihatlarini o'rganish va hokazo.

Xullas, og'zaki va yozma nutq masalalari qatorida odob-axloq, nutq sifatleri, tilga e'tibor berishga aloqador yana boshqa jihatlar ham nutqiy faoliyat doirasiga kirishi mumkin, degan xulosaga kelish mumkin.

¹Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent, 2007. 20–25-betlar.

²Y.Tojiyev. Ko'rsatilgan asar. 26-bet.

³Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent, 2007. 20–25-betlar.

⁴Y.Tojiyev, R.Boboxodjayev. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent, 2017. 26–27-betlar.

O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARI MILLIY MENTALITET IFODASI SIFATIDA

Frazeologizmlar tilning milliy-madaniy o'ziga xosligi, maishiy ong tuzilmasini aks ettiradigan, o'zida ijtimoiy tajribani mujassam etgan folklorning bir ko'rinishidir. [1] Frazeologik birliklar mazmunida o'sha xalqning turmush tarzi, yashash holati, an'analari, urf-odatlar aks etadi. Ularni tahlil qilish, etimologiyasini o'rganish orqali o'sha millatga xos etnopsixologik xususiyatlar haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Frazeologik birliklarning madaniy birikmasini anglash uchun ushbu tilda so'zlashuvchi xalqning frazeologizmlarda qo'llangan timsollari asosini tahlil qilish muhim. Bu frazeologik birliklar milliy-madaniy talqini-ning muhim jihatidir. Frazeologizmlar tarkibida milliy-madaniy tus berib turuvchi qismlar mavjud bo'lib, ular xalqning asriy turmush tarzi, tarixiy tajribasi natijalari bo'lishi mumkin. Millatning kundalik hayot tarzidan kelib chiqqan frazeologizmlar sirasiga *otning kallasiday*, *otning qashqasiday* birikmalarini keltirish mumkin. O'zbeklar turmush tarzi davomida otdan ko'p foydalanangani tufayli frazeologik birliklarda ham *ot* timsoli keng qo'llangan. Frazemalar orasida *xamir uchidan patir*, *yuzini yerga qaratmoq* kabi faqat o'zbek millatiga xos ifodalarni ham uchratish mumkin. Shuningdek, *bo'zchining mokisiday*, *do'ppisi tor kelmoq*, *kovushini to'g'rilamoq* kabi iboralarda aynan *bo'zchi*, *do'ppi*, *kovush* kabi xalq, odatda, shug'ullangan mehnat turi, milliy kiyim timsollari aks etgan.

Nutqimizda ishlatilib turuvchi *soyasiga ko'rpacha yozmoq* iborasi, odatda, izzat-hurmat qilishni me'yordan oshirib yuborishni bildiradi. [4:215] Xalqimizda azaldan dasturxon atrofida ko'rpacha solib o'tirish odati bo'lib, biror mehmon kelsa, yangi ko'rpachalar solinib, dasturxonga taklif qilinadi va bu mehmonga nisbatan hurmat belgisi hisoblanadi. Itifotni oshirib yuborish ma'nosidagi iborada ham, o'zi qolib, hatto soyasiga ko'rpacha soldi, haddan ziyod ehtirom ko'rsatdi, mazmuni aks etadi. O'zbek xalqiga xos an'analardan kelib chiqqan holda "ko'rpacha" timsoli bu iborada ham hurmat-izzat timsoli sifatida assotsiatsiyalangan.

Yog' tushsa yalagudek – nihoyat darajada top-toza ma'nosini bildiruvchi bu iborada nega aynan *yog'* timsolidan, *yog'ni yalab* qo'yish mumkin bo'ladigan darajada toza deyish ma'nosida bu qiyosdan foydalanilgan? Bu savolga javob izlashdan avval o'zbeklarga xos e'tiqodiy qarashlardan kelib chiqqan holda isrofdan qochish, tejamkorlik kabi sifatlarni eslash lozim. O'zbek xalqida "uvol bo'lmasin" deya, tovoq, qozondagi ovqat yuqini ham sidirib, yalab qo'yish odati bo'lgan. Bu kambag'allik yoki yetishmovchilik belgisi emas, balki isrofdan qo'rqish, biror tomchi va biror uvoqni ham isrof qilmaslik, ovqatning barakasi oxirgi luqmada, tomchida

bo'lishi mumkinligini his qilish, shuningdek, shaytonga nasiba bermaslik mazmunini aks ettiradi.

O'zbek tilida frazeologik birikmalar qo'llanilishidagi o'ziga xos jihat sifatida N.U.Ulug'xo'jayev somatizm, ya'ni ko'zlarning saxiylik va baxillik kabi shaxs xususiyatlarini ifodalashini keltiradi. Misol tariqasida doimo barcha narsadan qoniqmaslik, yetishmovchilikni his qilaveruvchi insonlarga nisbatan "ko'zi och", bunga qarama-qarshi mazmunda esa qanoatli insonlarga nisbatan "ko'zi to'q" iborasi qo'llaniladi. [5] O'zbek tilida somatik frazeologizmi tadqiq etgan A.Isayevning ta'kidlashicha, *ko'zining paxtasi chiqmoq*, *ko'zi yorimoq*, *ko'zini moshdek ochmoq* singari frazemalar o'zbek tili frazeologik fondining o'ziga xos frazemalari bo'lib, bu frazemalarning boshqa tillarda muqobillari mavjud emas. [2]

O'zbek xalqida oq rang, asosan, ijobiy o'xshatish – ezgulik, soflik, ozodalik timsoli sifatida qo'llaniladi. *Oq yuvib*, *oq taramoq* iborasida ham bolani asrab-avaylab parvarishlash oq rang bilan assotsiatsiyalanadi. *Oq fотиha berdi* iborasida ham *duo qildi*, *yaxshiliklar tiladi* mazmuni aks etadi. Ammo ba'zi o'rinlarda ushbu rang salbiy ma'noda ham qo'llaniladi. Masalan, *farzandini oq qildi* iborasi qarg'adi, norozi bo'ldi mazmunida ishlatiladi. [6]

Og'zi qulog'iga yetdi iborasi juda xursand bo'lmoq ma'nosida qo'llaniladi. Xo'sh, nega aynan xursandchilikni ifoda etuvchi ibora tashqi belgilar, yuz qiyofasi asosida ifodalangan? Gap shundaki, o'zbek xalqiga xos psixologik xususiyatlar zamirida boshqa xalqlar singari millat e'tiqodi, dini, qadriyatlarini yotadi. O'zbeklar tabiatan xushmuomala, ochiq yuzli bo'lgani uchun ular yuzida nimtabassum bo'lgan. Og'zini katta ochib qahqaha otib kulish odobsizlik, tarbiyasizlik sanalgan. O'z tabiatida og'ir-vazminlik sifatlarni shakllantirishga intilganlar. Nimtabassum qilganda og'iz holati birmuncha yoyiladi xolos. O'zbeklar uchun og'izni haddan tashqari yoyib kulish noodatiy holat bo'lganidan, "shunchalik xursand bo'ldiki, hatto og'zi keng yoyilib, qulog'iga yetay deb qoldi" ma'nosida ushbu iborani ishlatishgan. Agar o'zbeklar uchun og'izni keng yoyib kulish, qahqaha otish odatiy holat bo'lganida, xalq vakillari orasida bu holat alohida o'xshatish vositasi sifatida keltirilmagan bo'lardi.

Frazeologiyada u yoki bu xalqning milliy madaniyati millatning mental xususiyatlariga xos qadriyatlar tizimi asosida namoyon bo'lar ekan, o'zbek iboralari orasida ham *osmonga qarab yotish*, *pashsha qo'rish* kabi frazemalar bekorchilikni ifoda etish ma'nosida qo'llaniladi. Bu o'zbek qarashlaridagi muhim bo'lmagan ishlar bilan vaqtni behuda o'tkazmaslik lozimligini aks ettiruvchi

stereotiplar, vaqtning muhimligini ifodalovchi qadriyat-larga asoslanadi. [5]

Xullas, o'zbek frazeologik birliklari o'z negizida shu xalqqa xos bo'lgan milliy madaniyat belgilari, milliy tim-

sollarni aks ettiradi. Frazеologizmlarning millat ruhiya-ti, turmush tarzini bekam-u ko'st aks ettirishini unda turmushda qo'llaniladigan so'zlardan foydalanilganida ham ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirov B.M. O'zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2011.
2. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 201 с.
3. Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Monografiya. To'ldirilgan va tuzatilgan ikkin-chi nashri. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. 116-bet.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. 215-bet.
5. Улухужаев Н.У. Лингвокультурологический аспект фразеологических единиц узбекского языка // Молодой учёный, 2016, №19 (123). – С. 614–617.
6. Улухужаев Н.З. Фразеологизмы узбекского языка с цветовыми компонентами // Молодой ученый, 2018, №7 (193). – С. 213–215.

Muhamadrizo DJURAYEV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

TARDU AKS ZIYNATI

Adabiy ta'sir va adabiy aloqalar turli tillarda ijod qilu-vchi shoirlar salohiyatini namoyish etadigan o'ziga xos maydon hisoblanadi. Tarjimachilik va tatabbuchilik tar-ixiga nazar tashlansa, muayyan bir mavzuni talqin etish va shakllantirishda turli xalqlar adiblarining salohiyat-lari yorqin namoyon bo'lganligini kuzatish mumkin. Shu ma'noda, Xo'ja Hofizning tardu aks san'ati asosiga quril-gan bir g'azalining qo'qonlik shoir Yormuhammad Yoriy (bu zot XIX asrning ikkinchi va XX asrning birinchi yarmida yashab o'tgan; Muqimiy, Muhyi, Muhayyir, Furqat singari shoirlar bilan hammaslak bo'lib, yaqin aloqada bo'lgan) hamda zamonamizning zukko shoirlaridan Sirojiddin Sayyid tomonidan tarjima qilingan namunalar, shuning-dek, ushbu g'azalga Yoriy tomonidan bitilgan tatabbu sol-ishtirilsa, bu fikrda anchayin jon borligi seziladi.

Gap avvali tardu aks san'ati xususida. Atoulloh Husayniy "Badoyi' us-sanoyi" asarida uni bu tariqa ta'ri-flagan: "Aks. Ani tabdil ham derlar, ba'zilar tardu aks derlar. Ul andin iboratturkim, kalomning bir bo'lagin ikkinchi bir bo'lagin oldiga qo'yarlar, so'ngra aning ak-sin qilurlar, birinchi bo'lagin o'rnin ikkinchisniki bilan almashtirurlar". [1:76] U aks san'atining qator turlari borasida so'z yuritadi, biroq tardu aksning Xo'jayi Hofiz istifoda qilgan turi to'g'risida so'z aytmagan. Bu tardu akslar Zahiriddin Boburning masnu' she'rlarini eslata-di. Bobur masnu'larida tardu aks Atoulloh Husayniy ta'riflaganday keltirilmaydi, balki tardi aks va tardu aks pardozida, ya'ni qo'shaloq shaklda havola etiladi. Avval ayrim birikmalar aks qilinadi, so'ngra misralar bir oz o'zgarish bilan tardu aksga uchraydi. [2:10] Natijada, ular orqali yuzaga kelgan tasvir va tavsif ta'kidi ikki his-sa yuqori darajaga ko'tariladi.

Xo'ja Hofiz g'azalining tarjimalari va ular orasida-gi tafovutlarga nazar tashlaylik. G'azalning matla'si

Yoriyda:

*Dilbari jononkim, oldi dili jonkim,
Oldi dili jonkim, dilbari jononkim [3:111].*

Sirojiddin Sayyidida:

*Bir dilbari jonim mening, oldi dili jonim mening,
Oldi dili jonim mening, bir dilbari jonim mening.*

Ushbu tarjimalarning birlamchi tafovuti vaznda bo'lsa, ikkilamchi farqi uning so'z arsenalida. Hofiz g'azalida o'ynoqi vaznlardan biri istifoda etilgan:

*Dilbari jononi man, burd dili joniman,
Burd dili joniman, dilbari jononi man.*

*Munsarihi musammani matviyi makfuf.
Muftailun / foilun / muftailun / foilun.
- V V - / - V - / - V V - / - V -*

Yoriy ham shu vaznni saqlab qolgan:

*Dilbari jononkim, oldi dili jonkim,
Oldi dili jon kim, dilbari jononkim.
Munsarihi musammani matviyi makfuf.
Muftailun / foilun / muftailun / foilun.
- V V - / - V - / - V V - / - V -*

Yoriy tarjimasida bir hijo kamlik qilgani sababidan imola qilingan. Sirojiddin Sayyid esa mazkur g'azal-ni rajazi musammani solimda tarjima qilgan. Bu holat g'azalning sal vazminroq mutolaa qilinishiga olib kelgan va bu lirik qahramonning holatiga ham ta'sir etmay qol-magan. Bundan tashqari, fors tilidagi yo-yi vahdat va yo-yi nakareni, ya'ni biror predmet yoki shaxsning birlik va noaniqligini ko'rsatish uchun noaniqlik va birlik bel-gisi yo qo'shilib, i deb talaffuz qilinishini [4:109] tarjima muallifi tushunib yetmagan ko'rinadi va shu sababidan

“bir dilbari...” tarzida tarjima qilgan. Bu esa “mening” soʻzini tarjimaga qoʻshishga hamda vazning ham oʻzgarishiga sabab boʻlgan:

*Bir dilbari jonim mening, oldi dili jonim mening,
Oldi dili jonim mening, bir dilbari jonim mening.*
[5:74–75]

Mustafilun / mustafilun / mustafilun / mustafilun.
-- V - / - - V / - - V - / - - V -

Yoriy tarjimasida Xoʻja Hofiz gʻazalining ruhi toʻla saqlangandek taassurot yuzaga keladi. Sirojiddin Sayyid tarjimasida esa “mening” soʻzini qoʻshilishi va bu soʻzning baytlararo kelishi lirik qahramon bilan maʼshuqa orasidagi yaqinlikni bir oz uzoqlashtirib yuboradi. Bunda lirik qahramon bitta shaxs sifatida namoyon boʻlib, bir shaxsning his-tuygʻulari haqida soʻz borayotganday boʻladi. Hofiz va Yoriyning lirik qahramonlarida esa bashariy umumlashma aniq sezilib turadi.

Hofiz gʻazalining ikkinchi baytini Yoriy quyidagicha tarjima qilgan:

*Lablari jononkim, tirguzadur jonkim,
Tirguzadur jonkim, lablari jononkim.*

Sirojiddin Sayyidning tarjimasida bu bayt quyidagicha chiqqan:

*Lab bersa jononim mening, jonlangusi jonim mening,
Jonlangusi jonim mening, lab bersa jononim mening.*

Yoriy mazkur baytning tarjimasida ham Hofizdan uzoqlashmagan. Yaʼni maʼshuqaning lablari (soʻzlari) jonbaxsh kuchga ega. Baytning birinchi misrasida maʼshuqaning lablari tiriltiruvchilik qudratiga egaligini taʼkidlayotgan boʻlsa, ikkinchisida uning ana shu moʻjizakorligiga yana bir karra urgʻu beradi. Sirojiddin Sayyid esa bu holatni “lab bersa jononim mening” deya individuallashtirgan. Natija oʻlaroq, sheʼning markazida turgan umumlashma va soʻfiyona mazmunga jiddiy putur yetgan. Baytning ikkinchi misrasida Yoriy istifoda etgan “tiriltirmoq” feʼli (“tirguzadur”) oʻzida namoyon qilgan maʼnidan uzoqlashmagan. Sirojiddin Sayyid bu feʼlni “jonlangusi” soʻzi bilan bergan. Mumtoz sheʼriyat, magarkim, gʻuluvga asoslanar ekan, shubhasiz, “tiriltirmoq” feʼli “jonlanmoq” feʼliga nisbatan koʻproq va chuqurroq maʼni tashiydi. Zero jonlanish lirik qahramonning maʼshuqa tomonidan keltirilgan jabr-u jafalaridan bir uygʻonishday gap, tiriltirish esa oʻlgan jasadga qaytadan jon baxsh etishdek jarayonni ifoda qiladi. Buning yana bir jihati bor. Majoziy sheʼriyatda “lab berish” boʻtil taassurotni uygʻotadi. Irfoniy sheʼriyatda maʼshuqa lablari tilga olinishi bilan mazhardan kelayotgan imdod oldinga chiqadi, yaʼni Alloh maʼrifati, piri murshidning ilohiyot borasidagi vaʼzlari beixtiyor yodga tushadi.

*Ravzai rizvonkim, tufrogʻi koʻying turur,
Tufrogʻi koʻying turur, ravzai rizvonkim.*

Yoriy gʻazalining keyingi bayti ham uxroviy mazmundan xoli emas. Mazkur baytda Hofiz istifoda qilgan “doʻst” soʻzi tushib qolgan. Bundan Yoriy boshqa maqsadni kutgan boʻlsa kerak. Yana umumiyroq fikrni keltirish nazarda tutilganga oʻxshaydi. Sirojiddin Sayyid esa shu soʻzni ham ishlatgan. Bu har ikki shoirda bayt maz-

muni orasida biroz tafovutni yuzaga keltirgan. Chunki Sirojiddin Sayyid baytga uchinchi bir timsol (doʻst)ni olib kirgan:

*Firdavsi rizvonim mening, doʻst koʻyining tuprogʻidur,
Doʻst koʻyining tuprogʻidur, firdavsi rizvonim mening.*

Yoriyda “firdavsi rizvon” “ravzai rizvon” shaklida kelib, bu maʼshuqaning makoni sifatini bersa, keyingi tarjimada “doʻst koʻchasining tuprogʻi” maʼnosiga oʻtib qolgan. Aslida “doʻst” soʻzi ham bor. Lekin Hofiz bu oʻrinda uchinchi bir shaxsni nazarda tutayotgani yoʻq, balki ayni maʼshuqani doʻst sifatida baholamoqda. Shunga koʻra, tarjimada Yoriy tutgan yoʻl toʻgʻriroqqa oʻxshaydi.

Keyingi baytda lirik qahramon (oshiq, orif)ning shaxsiy kechinmalariga koʻchiladi. Yoriy bu oʻrinda ham maʼshuqani sifatlashni yodidan faromush qilmaydi. Sifatlash yashirin tashbehlar vositasiga yuklangan. Ana shu manzara tubandagicha tasvirlangan:

*Bul dili xazonkim, volai shaydo sanga,
Volai shaydo sanga, bul dili xazonkim.*

Sirojiddin Sayyid ham Hofiz tutgan yoʻldan chekinmagan, biroq shoirning ayni oʻrindagi tarjimasi jonliroq chiqqanini ham eslash oʻrinlidir:

*Koʻnglim bu hayronim mening, shaydoyi sayroning
sening,
Shaydoyi sayroning sening, koʻnglim bu hayronim
mening.*

Shu bayt tarjimasining mantiqiy davomi boʻlgan keyingi baytlar har ikki shoirda bir oz farqlar bilan tarjima qilingan. Yoriyda:

*Yusufi Kanʻonkim, Misr malohat sanga,
Misr malohat sanga, Yusufi Kanʻonkim.*

Sirojiddin Sayyid:

*Yusufi Kanʻonim mening, husn elining podshosi sen,
Husn elining podshosi sen, Yusufi Kanʻonim mening.*

Shuni taʼkidlash joizki, bu oʻrinda Yoriy talmehni qoʻllashning boshqa bir, Sirojiddin Sayyid yana boshqa bir usulini istifoda etgan. Bizningcha, Sirojiddin Sayyidning istifoda etgan usuli bayt mazmunini toʻlaroq ochib bergan koʻrinadi. Keyingi ikki baytning tarjimalarida ham har ikki shoirning mahorati tenglashganday taassurot tugʻiladi.

Yormuhammad Yoriy Hofizning mazkur gʻazaliga tatabbu qilganini aytib oʻtdik. Tatabbu ushbu matlaʼ bayt bilan boshlanadi:

*Mehri duraxshonkim, xurshidi tobonkim,
Xurshidi tobonkim, mehri duraxshonkim. [3:112]*

Xoʻja Hofizning gʻazali 7 bayt boʻlgani holda, Yormuhammad Yoriyning tatabbusi 10 baytni tashkil qiladi. Tatabbuning vazni ham Hofiz gʻazali vazniga muvofiq tushadi:

*Munsarihi musammami matviyi makfuf.
Muftailun / foilun / muftailun / foilun.
- V V - / - V - / - V V - / - V -*

Tatabbuning soʻz arsenalida shunday birikma-

lar ishlatilganki, ular shoirning tasvir mahorati tarzida ko'rinib, tardu aks vositasida ma'shuqaning zohiri va botiniy sifatlarini yoritib berishga to'la xizmat qilgan. Ular bir tizimga solinsa, quyidagi manzara hosil bo'ladi: "gavhari ummon", "durri g'ilton", "ko'zlari cho'lfon", "la'li badaxshonkim lablarini qirmizi", "huqqai marjonkim g'unchadek og'zi oni", "Sunbuli rayhonkim zulfi suman-solari", "Chashmai hayvonkim shahdi ziloli oni", "Pistai xandonkim g'unchai gul kulgusi", "Yoquti rummonkim labi chu aqiqi Yaman". G'azalning biz ajratgan bu tasvirlarida ma'shuqaning vasf qilinayotgani sezilib tursa, maqta'da muallif ma'shuqani "shahi davron" deya umumlashgan holda ta'riflab, undan karam qilishini iltijo qilayotganini ko'rish mumkin:

*Ey shahi davronkim, Yoriyg'a qilg'il karam,
Yoriyg'a qilg'il karam, ey shahi davronkim.*

Xullas, adabiy ta'sir va adabiy aloqalarning o'z qonuniyatlari borkim, tarjimachilik va nazirago'ylik ana shu qonuniyatlarga suyanadi. Tarjimaga olingan asar qanchalik pishiq va puxta bo'lsa, ayni chog'da tarjimashunosning salohiyati ham shunga muvofiq kelsa, amalga oshirilgan ish ham bir ijodiy asar sifatida o'quvchiga manzur bo'ladi. Tatabbuchiilikda ham xuddi shunday. Biz so'z yuritgan asarlar ana shu mezonlarga to'la muvofiq tushadi. Bu esa adabiyotning; xoh original asar bo'lsin, xoh tarjima yoki nazira bo'lsin, umrboqiyiligini ta'min etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atoullah Husayniy. Badoyi' us-sanoyi. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. Siddiqov M. Zakovat adabiyoti. – Toshkent: Bayoz, 2014.
3. Yoriy Yormuhammad. Devon. Qo'lyozma. Inv. raqami: 9358. 111-bet.
4. Abdusamatov M. Fors tili. – Toshkent: Sharq, 2007.
5. "Jahon adabiyoti" jurnali. 2009, mart.

Xayriniso O'LJAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

“ZARBULMASAL” ASARIDA BADIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI

Yosh avlod tarbiyasida kattalar tomonidan so'zlab berilgan turli hikoya, rivoyat, ertaklar muhim o'rin tutadi. Shunidek, masal janridagi qiziqarli voqealar bayoni ham yordam beradi. Masal majoziy xarakterdagi nasriy yoki she'riy qisqa hikoya bo'lib, uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iborat bo'ladi. Ushbu janrdagi obrazlar ramziy-majoziy ma'noda qo'llanilib, insonlar fe'l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shuki, u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi.

Ezop masal janrida samarali ijod qilgan birinchi masalnavis bo'lsa, undan so'ng Fedr Babriy uning davomchisi hisoblanadi. Fedr Babriy eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o'tgan grek masalchilaridan bo'lib, Ezop masallarini she'riy yo'l bilan lotin tiliga mohirona tarjima qilgan. Mana shu tarjima jarayonidan ilhomlanib, XVII asrda Fransiyada Lafonten, XVIII asrda Germaniyada Lessing, Gellert va XVIII–XIX asrlarda Rossiyada I. Krilov masal janrida samarali ijod qildi.

Sharq adabiyotida ham majoziy shaklda, ya'ni turli hayvonlar tilidan tarbiyaviy ahamiyatga molik hikoyachalar keltirish tajribasi qadimgi hind adabiyotining nodir namunalarini bo'lgan "Panchatantra", "Kalila va Dimna" kabi asarlar tarkibida uchraydi. Bu hikoyatlar ham dunyoning ko'pgina tillariga tarjima qilinib, shunday yo'nalishdagi yangi asarlarning yaratilishiga turtki bergan.

Masalchilikning eng yaxshi namunalarini o'zbek adabiyotida ham mavjud. O'zbek mutafakkir shoir-u adib-

lari maxsus "pandnoma", "odobnoma"lar yaratishgan, bu asarlar maktab-madrasalarda alohida o'quv qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Shu o'rinda majoziy shakldagi ibratli hikoyatlarining eng sara namunalarini Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi birinchi doston – "Hayrat ul-Abror" (yaxshi odamlarning hayratlanishi)da va maxsus shu yo'nalishda yaratilgan "Lison ut-tayr" (qush tili) dostonida uchrashini alohida aytib o'tish lozim.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yashab o'tgan Muhammad Sharif Gulxaniy ham "Zarbulmasal" nomli asari bilan o'zbek adabiyotida masalchilik rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ulardan tashqari, XX asrga kelib Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov kabi ijodkorlar asarlarida masal janrining yaxshi namunalarini uchraydi.

"Gulxaniyning mashhur va ajoyib asari "Zarbulmasal"da xalq maqollari (Gulxaniyning aytishicha, 400 ommaviy maqol), qisman Gulxaniyning o'zi yaratgan maqolsimon hikmatli so'zlar, qisman saj'lar (qafiyali nasr), qisman matal va rivoyatlar to'plangan. Bular tematik va epik jihatdan bir-biriga bog'lanib, yaxlit sujetni tashkil etadi. Asar qahramonlari, asosan, qushlardan iborat. Muallif maqollar orqali bir-biri bilan so'zlashgan qushlar obrazida turli ijtimoiy qatlamlarning salbiy urf-odatlarini, xulq atvori, muomala va munosabatlarini kulgi qiladi" [1]. Gulxaniy Sharq poetikasining fikrni ravon va nafis ifodalash yo'li va vositalari, badiiy san'at turlari: talmih, saj', anafora, takrir, qaytarish va maqollardan samarali foydalangan.

Talmih san'atining "Zarbulmasal"da qo'llanilishi.

Talmih (arab tilidan olingan) o'tmishdagi mashhur zotlarga, mashhur qissa, bayt yoki maqolga ishora qilish, tarixiy yoki adabiy qahramonlar nomini keltirish usulidir. Yapaloqqush Ko'rqushga qarata: "...nobino bino so'zini quloqqa olmay, o'z xijolatidin o'zini ilonga chaqdirib halok bo'ldi. Senga gapirsam, bu muhim xayr kechga qolur. Bu hikoyatning bayoni voqiyasini istasang "Kalila va Dimna" din top", – deya ishora qiladi [1:62]. Ma'lumki, "Kalila va Dimna" mashhur masallar to'plamidir.

Gulxaniy talmih san'atini nasrda ham, nazmda ham qo'llagan.

Shahrning zindonidin ozod o'lub,**Tog'ning Shirinig'a Farhod o'lub.****Sonur edi o'zini tog' Xisravi,****Tog'in o'qib Dehlaviyi ma'noviy. [1:10]**

Yuqoridagi parcha Najjor maymun hikoyatidan keltirilgan.

Saj' san'atining qo'llanilishi. Gapdagi ayrim bo'laklarning vazn yoki qofiyada moslashishi, nasriy asarlardagi qofiya saj' (ar. qofiyali nasr) deyiladi. "Zarbulmasal" asari nasr va nazmda yozilgan. Shuning uchun asarda bir qancha badiiy adabiyotga xos bo'lgan janrlarni uchratishimiz mumkin. "Anda Turumtoy aytdi: "taqsir afandim, xato qildim. Og'iz oshga yetganda burni qonagan men bo'ldim". Eshitganingiz yo'qmi, o'tganlardin masal qolibdurkim: "arg'umoq ot bo'lmas ozg'on so'ng; xo'jasi qo'lig'a boqmas yozg'on so'ng" [1:25].

"Zarbulmasal"da anafora san'atining qo'llanilishi. Banddagi misra, gaplarning boshidagi so'z yoki so'z birikmasining boshqa misralar boshida ham aynan takrorlanib kelishi anafora (takror)dir. Gulxaniy "Zarbulmasal"da ushbu san'atni bir necha bor takror-takror qo'llagan.

Sabr bilan basta eshikdur kushod,**Sabr bilan topdi eranlar murod.****Sabr sening dardingga darmon bo'lur,****Sabr bilan xor Guliston bo'lur... [1:62]**

Mazkur parchada nafaqat anafora, balki talmih san'ati ham mavjud. "Sabr bilan topdi eranlar murod" misrasi orqali "Kalila va Dimna" asariga murojaat qilinadi, ya'ni hind shohi Dobshalim topshirig'iga ko'ra Beydabo ismli faylasuf shogirdi bilan birgalikda bir yil davomida bu asarni yozib tugatadi. Dobshalimga "Kalila va Dimna" asari ma'qul keladi, Beydaboni taqdirlash maqsadida uning tilagini so'raydi, shunda faylasuf shunday deydi: "Eronliklar bu kitobdan xabar topishsa, uni qo'lga kiritib yo'q qilib yuborishlaridan qo'rqaman. Sizdan iltimosim shuki, bu kitob "Hikmatlar uyi", ya'ni kutubxonadan tashqariga chiqmasin" [3:29]. Beydabo iltimosiga ko'ra ushbu asar maxsus kutubxonada saqlana boshlanadi, ammo kunlarning birida kitob haqidagi xabar shoh Xusrav Anushiravonga yetib boradi. Anushiravon ilm-san'atga qiziqadigan, ishbilarmon, adolatli, g'ayratli kishi bo'lgan. U ushbu kitob o'z xazinasida bo'lishini xohlaydi va

uni qo'lga kiritish uchun Barzuya ismli, hind tilini yaxshi bilgan ilmiy bir kishini Hindistonga yuboradi. Barzuya u yerga borgach, faylasufning shogirdi bilan do'st tutinadi, ular o'rtasidagi samimiylik ancha mustahkamlangach, nima maqsadda hind diyoriga kelganini aytadi. Buni eshitgan faylasufning shogirdi shunday deydi: "Men seni nima maqsadda kelganingni payqagan edim, suhbatlarimiz vaqtida biror so'z bilan siringni fosh qilib qo'yarsan deb poyladim, lekin bunday bo'lmadi. Men sening sabr-u irodangga qoyil qoldim" [3:32]. U samimiy munosabatlarni saqlagan holda "Kalila va Dimna" asaridan nusxa ko'chirishga yordam beradi. Barzuya sabr-qanoati va aql-zakovati bilan shoh Dobshalim buyrug'ini bajaradi, ya'ni o'z murodiga yetadi.

"Zarbulmasal"da takrir san'atining qo'llanilishi. "Takrir" arabcha so'z bo'lib, takrorlash degan ma'noni bildiradi.

Agar so'z jona paydo qilmasa so'z,**Ani so'z demagil, ey majlisafaro'z. [1:85]**

Anafora va takrir san'atlarining ikkida ham bir so'z aynan takrorlanib keladi. Ularning bir-biridan farqi shundaki, anaforada so'z yoki so'z birikmalari misra boshida aynan takrorlanib keladi. Takrir san'ati esa bir so'zning misralarning qaysi qismida bo'lishidan qat'i nazar takrorlanib kelishidir.

"Zarbulmasal" – kichik hajmli asar. Shunga ko'ra uning leksik bisoti ham katta emas. Maqol, matal, xalq aytmalarini Gulxaniy mahorat bilan qo'llay olganligi sababli yaxlit bir kichik asar yaratilishiga sabab bo'lgan.

Maqol janrining "Zarbulmasal"da qo'llanilishi.

Gulxaniy "Zarbulmasal"da odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni hayvon, parranda, qush kabilarga ko'chiradi. Asarni yaratishda voqealar rivoji va paytiga qarab maqol, matal, kichik hikoyatlarni ustamonlik bilan qo'llaydi, masalan, shoir o'zi to'plagan maqollardan obrazlar xarakterini ochishda mohirlik bilan foydalanadi. Jumladan, Ko'rqush Yapaloqqush bilan suhbat qilayotganida suhbatdoshining g'ayriinsoniy xulqqa ega ekanligini, qallobligini fosh etar ekan, "qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas" maqolini qo'llaydi. Kordon bilan boyqush suhbatida Boyo'g'lining qo'polligiga nisbatan Kordon: "Yaxshilar topib, yomonlar qopib so'zlar" maqollarini keltiradi. Ushbu maqollar insonni tarbiyaga va mushohadali bo'lishga undaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Zarbulmasal"dagi hikoyat va hikmatlarga o'xshagan ibratli maqol va matallar o'zbek xalqi hayotida, kundalik turmushida, so'zlashuv nutqida doimiy uchraydigan hodisadir. Unda ishlatilgan qator maqollar va hikmatli iboralar ota-bobolarimiz tomonidan azal-azaldan aytib kelingan bo'lib, ular hayvon va parrandalar tilidan insonlarni odob-axloqqa chorlaydi. Bu hikmatlar nafaqat Gulxaniy davrida, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulxaniy. Zarbulmasal / Nashrga tayyorlovchi: H.Yoqubov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. 112 -bet.
2. Is'hoqov F. Gulxaniy "Zarbulmasal"ning ilmiy-tanqidiy matni mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasiga ilova. – Toshkent, 1997. 236 -bet.
3. Kalila va Dimna / Tajimon: Suyima G'aniyeva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. 304 -bet
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. URL: <http://www.ziyouz.com/>
5. <https://maqollar.uz/cards/category/donolik-haqida>

Tair AKIMOV,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoy filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

IBORALARDA XITOIY AN'ANAVIY MADANIYATINING AKS ETISHI

Iboralar insonlar eng ko'p foydalanadigan va insoniyat tomonidan yaratilgan eng qadimgi stilistik vositadir. Iboralarning shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, xitoy tilidagi iboralar qadimgi she'rlar, tarixiy manbalar, afsonalar, roman va hikoyalardan kelib chiqqan. Iboralarni o'rganish jarayonida ushbu iboralarning kelib chiqish tarixi, ularga mos keladigan sinonim, antonimlar haqida ham ma'lumot berib borilsa, hikoya matnlarini tarjima qilish jarayonida o'quvchilar ham tilni o'rganadi, ham iboraning nima haqida ekanligini bilib olishlari oson kechadi.

Xitoy tili iboralar keng qo'llaniladigan til bo'lib, ular kundalik muloqot davomida ham faol qo'llaniladi. Jumladan, 乌鸦口 – qarg'aning og'zi iborasi o'zbek tilidagi *sovuq nafas qilmoq; yomon niyat qilmoq; nafasingni shamol uchirsin* iboralariga mos keladi. Rus tilida ham shunga yaqin ibora bor: *накаркать; вороны накаркали*. Masalan: *Просто не хочу о плохом думать и тебе не советую. Ещё накаркаешь!* (Men shunchaki yomon narsalar haqida o'ylashni xohlamayman va senga ham maslahat bermayman. Nafasingni issiq qil!)¹.

他真是个乌鸦嘴，好好一件事就被说坏了 – U haqiqatan ham yomon niyat qildi, yaxshi bo'lib turgan is, u gapirishi bilan yomon tomonga o'zgarib ketdi.

Ushbu gapdagi “乌鸦嘴 – qarg'aning og'zi iborasi so'zma-so'z tarjima qilinganda o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib qoladi, shuning uchun misollar asosida tushuntirilganda iboraning mazmuni anglashiladi.

足足有余 – tugamas ish (ishning ko'pligi, qilsa ham tugamasligi)ni ifodalaydi.

家庭生活足足有余² – Uning ishlari hech tugamaydi.

Xitoy tilini o'rganishga kirishgan talabalar uchun tabiat, hayvonot, qush va boshqa jonzotlar aks ettirilgan iboralarni tushunish biroz qiyinchilik tug'diradi. Masalan, ajdar – xitoy tilidagi iboralarda kuchli, botir ramzida qo'llanilsa, bizda ajdar yomon maxluq sifatida tushuniyadi.

Xitoyliklar o'g'il farzandlarining ismini 小龙 – ajdar-cham, botirim deb qo'yishadi. Mashhur xitoy kinoaktyori, qo'shiqchisi 成龙 Chéng Lóng (Jackie Chan)ning ismi ham ajdar ma'nosini anglatadi. Xitoy tilida ajdar so'zi bilan bog'liq iboralar ko'p uchraydi. Masalan:

望子成龙 – o'g'lining qaysar odam bo'lishini orzu qilmoq; avlodlarining zo'r muvaffaqiyatlarga ega bo'lishini umid qilmoq;

天下父母没有不望子成龙的 – dunyoda farzandlarining qaysar botir bo'lib ulg'ayishini istamaydigan otana yo'q bo'lsa kerak;

龙飞凤舞 – chiroyli (xatni chiroyli yozish ma'nosida); 他的草书龙飞凤舞，令人叫绝 – Uning nafis xattotlik mahorati odamni o'ziga jalb qilar edi;

龙蛇混杂 (鱼龙扎混) – ajdar va ilonlar aralashib ketishi yoki baliq bilan ajdar aralashib ketdi (yaxshi yomon odamlarning aralashib ketishi), o'zbek tilida *gurch kurmaksiz bo'lmas* iborasiga yaqinroq.

Talabalar xitoy tilidagi iboralarni o'rganish jarayonida uchraydigan savollarga xitoyliklarning an'anaviy madaniyatini o'rganish orqali yechim topishi mumkin. Xitoy tilidagi iboralarda xitoy millatining qarashlari, fikrlashi, tafakkur uslublari va milliy o'ziga xos irim-sirimlarining izlarini topish mumkin. U xitoy an'anaviy adabiyotida eng olis tarixdan beri ishlatib kelinayotgan tilning stilistik vositasidir. Iboralar jamiyatning oddiy, ixcham, sermazmun va amaliy bilimlar majmuasi hamda har xil fikrlar jamg'arma qomusidir. Iboralarda chiroyli o'xshatishlar, hayvon obrazlari bilan insonlar o'rtasidagi o'xshash jihatlar ham aks ettirilgan. Masalan, sigir Hindistonda muqqadas hayvon sifatida e'zozlansa, xitoy tili iboralarida mehnatkash, mehribon, yapon tilidagi iboralarda esa dangasa insonlar timsolida qo'llaniladi:

老牛舔小牛 – sigir bolasini yalaydi (farzandlariga mehribon bo'lmoq);

天下父母哪有不老牛舔小牛的 – Dunyoda o'z farzandlarini yaxshi ko'rmaydigan ota-ona qayerda bor?

牛角挂书 – sigirning shoxiga kitob osib qo'yimoq (tiriklik bilan o'qimoq; berilib o'rganmoq);

我们要学习他牛角挂书的读书精神 – biz uning shijoat bilan o'qishini o'rganishimiz kerak;

九牛一毛 – to'qqizta sigirning bitta juni (dengizdan bir tomchi);

Insonlardagi ayrim kamchiliklar hayvonlar obrazi orqali ham ifodalanadi: 老牛破车 – qari sigir aravani sindiradi; 杀鸡骇猴 (杀鸡吓猴) – tovuqni o'ldirib maymunni qo'rqitmoq³ iboralari o'zbek tilidagi “qizim senga aytay, kelinim sen eshit” iborasiga to'g'ri keladi.

Jonivorlarning nomlari ishtirokida qurilgan iboralar insonning fe'l-atvorini ifodalaydi⁴:

非驴非马 fēi lú fēi mǎ⁵ – na eshak, na ot (na don, na somon);

驴子的脸儿 – eshakning yuzi (yuzsiz odamlarga nisbatan qo'llaniladi);

马角乌白 – otning shoxi o'ssa, qarg'a oqarib ketadi (umuman amalga oshmaydigan ish; tuyaning dumi yerga yetganda);

铁树开花 – temir daraxt gullaganda (tuyaning dumi yerga tekkanda); qizil qor yoqqanda⁶;

对牛弹琴 – sigirning qulog'iga g'ijak chalmoq (devorga gapirmoq; eshakning qulog'iga tambur chertmoq).

Xitoy tilida odam ismlari bilan keladigan iboralar ham ko'p uchraydi:

东郭先生 – Dong guo janoblari (yaxshilikka yomonlik);



Марвар ШАРАФУТДИНОВА,
учитель средней общеобразовательной школы № 30 города Бухары

ЧИТАТЕЛЬСКИЙ ДНЕВНИК (5-й класс)

Не так важно научить детей читать,
намного важнее научить детей обдумывать то, что они читают!
(Джордж Карлин)

Методическое пособие для учителей русского языка в школах с узбекским и другими языками обучения соответствует требованиям Государственного образовательного стандарта Республики Узбекистан для учащихся 5-х классов с узбекским языком обучения, разработано в соответствии с программой по литературному чтению к учебнику «Русский язык» для 5-го класса Ю.Ю. Мусурмановой, составлено для повышения у учащихся читательского интереса к произведениям русской литературы, создания базы эффективных методов и приёмов по формированию читательской компетентности школьников, стимулирования творчества детей.


Методическое пособие


